

## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHRIR HAY'ATI

Hilola UMAROVA  
G'ayrat SHOUMAROV  
Risboy JO'RAYEV  
Shaxnoza XALILOVA  
Komola FARFIYEVA  
Dilnozaxon ABDULLAJANOVA  
Ayubxon RADJIYEV  
Sharibboy ERGASHEV  
Feruza QODIROVA

**Mas'ul kotib**  
Sayyora Alimxodjayeva  
**Adabiy muharrir**  
Sayyora Alimxodjayeva  
**Kompyuterda sahifalovchi**  
va dizayn  
Ilmira Adilova

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqiz qilinmaydi.

Muallifning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

**Muassislari:**  
**O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxisi markazi "MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.**

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "MAKTAB VA HAYOT" dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

**Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.**

**MANZIL:**

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktavahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI – 1019**



## MUNDARIJA

<b>L.S.TURSUNOV.</b> O'spirin o'zligini anglashi va ijtimoiy muhitga moslashuvi jarayoniga kognitiv yondashuv .....	2
<b>E.E.MURODOV.</b> Umumiyl o'rta ta'lim tashkilotlari bitiruvchi yosolarini kasbga tayyorlash mexanizmlari.....	4
<b>D.S.ABDULLAJANOVA.</b> Kichik maktab yoshida kasblar haqida tasavvurlar shakllanishining psixologik jihatlari.....	7
<b>M.M.NASIMDJANOVA.</b> Ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalarga tolerant munosabatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari.....	9
<b>L.R.MIRZAXMEDOVA.</b> Boshlang'ich sind ona tili va o'qish savodxonligi darslarida axborot texnologiyalarining ahamiyati .....	11
<b>X.S. RAXIMOVA.</b> Koxlear implantatsiya - texnologiya, tibbiyot, surdopedagogika va logopediyaning rivojlanishidagi innovatsiya .....	13
<b>G.S.ALIXODJAYEVA.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarning kognitiv rivojlanish muammosi .....	16
<b>I.T.MEXMONOV.</b> Maktablarda texnologiya fanini o'qitish-ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining birlamchi bo'g'ini sifatida .....	18
<b>G.M.SALIXOVA.</b> Nogironligi bo'lgan o'smir kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish.....	21
<b>A.A.NASIROV, PANG CHU MAN.</b> Janubiy Koreya ta'limi va davlat tili xususida .....	23
<b>N.M.KAYUMOVA.</b> Ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarasi asosida bolalarning jismoni tarbiyasini tashkil etish.....	28
<b>D.A.CHORIYEVA.</b> Sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash .....	30
<b>A.B.MAMATOVA.</b> O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohotlari va ularning ahamiyati .....	32
<b>D.R. BABAYEVA, Z.M.SALIXOVA.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik diagnostikani tashkil etish.....	34
<b>A.P.XOLTURAYEV.</b> Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o'quv faoliyatida natijaga erishish muammosining psixologik tahlili .....	36
<b>Z.N.RAXMONOVA.</b> Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar doirasida emotsiunal intellekt va qadriyatlar o'zaro aloqadorligi muammolari .....	38
<b>D.B.KASIMOVA.</b> Современные педагогические технологии в игровой деятельности детей при обучении иностранному языку .....	40
<b>Y.YO.FAIZIEVA.</b> Создание учебно-методической базы – один из главнейших условий эффективности инклузивного образования.....	42
<b>D.M. AYIMBETOVA, G.JUMANIYAZOVA.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarni ertaklar yordamida tarbiyalash .....	44
<b>K.X.ALIMOVA.</b> Nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda grafomotor ko'nikmalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari .....	45
<b>Y.U.TEBACAROVA.</b> Ритм – основа правильного формирования речи у школьников с заиканием .....	47

# O'SPIRIN O'ZLIGINI ANGLASHI VA IJTIMOIY MUHITGA MOSLASHUVI JARAYONIGA KOGNITIV YONDASHUV

L.S.Tursunov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti psixologiya kafedrasи dotsent v.b, psixologiya fanlari nomzodi

В статье утверждается, что подростковый возраст является специфическим этапом развития человека, что он имеет особое значение в общественной жизни и играет важную роль в онтогенезе человека своими психологическими показателями.

**Ключевые слова и понятия:** онтогенез, подросток, поведение, коммуникация, психологическая маска, установка, управление поведением, совершенствование личности.

The article argues that adolescence is a specific stage of human development, that it has a special significance in public life and plays an important role in human ontogenesis by its psychological indicators.

**Key words and concepts:** ontogenesis, teenager, behavior, communication, psychological mask, attitude, behavior management, personality improvement.

Shaxs takomillashuvi va rivojlanishiga ontogenezida bosib o'tadigan har bir bosqichini o'ziga xos o'rni mayjudligini insonshunoslik bilan shug'ullanuvchi mutaxasislar tez-tez ta'kidlab turishadi. Yil fasllari o'rin almashinuvi qat'iy tabiat qonuni asosida amalga oshganidek shaxs rivojlanishida yosh davrlarining ketma-ketligi jamiyat qonuniyatlarida yaqqol aks etib turadi.

Fan-texnikaning taraqqiyoti va ommaviy axborot bo'ronlari keng quchoq yozgan davrda yoshlarni bilimli bo'lishlari bilan bir qatorda turli axborotlarga nisbatan im-munitetga ega bo'lishlari zaruriyati kundan-kunga oshib bor-moqda. Bundan tashqari jamiyatda o'z o'rinalarini egallashga bo'lган intilishlarida milliy hamda diniy qadriyatlar bilan bir qatorda yozilgan va yozilmagan qonuniyatlarga ham aniq amal qilishlari lozimligi tez-tez eslatilib turiladi. O'spirinlik davridagi fizik-anatomik o'zgarishlar bilan bir qatorda ruhiy tanglik va zo'riqishlarga (krizis, stres) boy davr deb ta'riflanishi bekorga emas. Yoshlarni ana shu murakkab vaziyatlari davrni muvaffaqiyatli bosib o'tib, o'z o'rinalariga ega bo'lishlari uchun davlatimiz rahbariyati tomonidan barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Ijtimoiy fanlar qatorida umumiyligi psixologiyaning turli tarmoqlarida ham inson yosh davrlarini turli bosqichlarga bo'lib o'rganishga alohida urg'u beriladi. Inson ontogenezisining eng murrakab davri – bu ilk o'spirinlik davri hisoblanib, bu davr sohiblari bolalik bilan xayrashib, kattalar dunyosiga kirib borishlilari bilan boshqa davrlardan farqlanib turadi.

E.G'.G'oziev mazkur davrni ikki asosiy bosqichga bo'lib tahlil etishga alohida e'tibor berib "O'spirinlik davri inson kamolotida yetuklikning muayyan bosqichi hisoblanib, ijtimoiy hayotda alohida ahamiyat kasb etadi va o'zining ko'rsatkichi bilan muhim rol o'ynaydi. Shaxs davri bir necha taraqqiyot bosqichlarini aks ettirib, u ilk o'spirinlik va yoshlikni qamrab oladi.

– Birinchi bosqichi "balog'at" deb nomlanib, 15-16 yoshdagilar.

– Ikkinchisi bosqich "ixtisos egallash" deb atalib, 17-18 va 21-23 yoshdagilar.

Quyida mazkur ikki bosqichni o'spirin xususiyatlariha hamda uning genezisiga ta'sirini kognitiv jihatdan izohlashga harakat qilamiz. Chunki shaxs hayotidagi har bir o'zgarish kognitiv jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

16 yoshga to'lganida pasport olishi asnosida o'spirin "erkin fuqaro" mavqeiga ega bo'lishi, aksari yoshlarda g'urur va iftixonni yuzaga keltirsa, ba'zi yoshlarda "men erkin va mustaqil fuqaroman, xohlagan ishimni qila olaman" degan fikrni dominant bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Ana shunday vaziyatlarda kattalar tomonidan tushuntirish ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, pasport olgani bilan halil ota-onasi qarmog'ida ekanligini, qolaversa pasport uni har bir faoliyati uchun mas'uliyat va mas'ulligini oshirganligini tushuntirish lozim bo'ladi. Pasport shaxsga huquqlarni berish bilan bir qatorda mas'uliyat, mas'ullik va burchni yuklashini chuqur anglagan yoshlar pasport davlat ramzi ekanligi mohiyatini anglab yetadilar.

17-18 yoshda maktabdagi o'quv jarayonlarini yakunlab attestat olishlari asnosida katta hayotga qadam qo'yishlari, mazkur ilk qadamning muvaffaqiyatlari bo'lishi o'spirinni kel-gusida kim bo'lishini belgilab beradi. Misol tariqasida qizlarning ijtimoiy faoliyatiga nazar solsak: shu bosqichda oila qurgan qizlar bilan ixtisoslikka ega bo'lish maqsadida o'qishni davom ettirgan qizning dunyoqarashida, ijtimoiy faolligida hamda faoliyatida katta farq bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur davr bosqichida talabalik davriga e'tibor qaradigan bo'lsak, o'spirinning xulqida qator o'zgarishlar kuzatiladi. Talabalik maqomiga ega bo'lган yoshlar o'quv jarayonining dastlabki oyalarida mazkur maqomga sazovor bo'la olmagan o'z tengdoshlaridan tubdan farqlanib turadilar. Ularни o'zlarini tutishlari, xatti-harakatlari, hatto muloqotlarda ham o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin, ya'ni psixologik niqoblari mutlaqo o'zgaradi. Bitiruv kursi va magistratura bosqichida o'zlariga hamda boshqalarga bo'lган munosabatlari o'zgarib, xulq-atvorlarini boshqarish imkoniyatlari yuzaga chiqqa boshlaydi. Ana shu bosqichda men "kimman", "endi nima qilishim kerak" degan savolga javob topishga harakat qiladilar. Ularni oldida ikkita yo'l turadi – birinchisi "ilmiy izlanishni davom ettirish" bo'lsa, ikkinchisi "ishlab chiqarishda faoliyat olib borish".

Yuqoridagi muammolar bilan bir qatorda oila qurish masalasi ham hamohang bo'lib turganini his etib turgan yoshlarda yoshga oid tanglik (krizis) yuzaga kelishi tabiiy hol hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimizning eng nozik qirralaridan biri yoshga nisbatan gender munosabat bo'lib, unda nozik jins vakillarining oila qurishlariga bo'lган munosabat hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda, o'spirinlik davrining vakilalari 17-23 yoshlarida turmushga chiqish va yangi mavqyega moslashishlari an'anaga aylangan bo'lib, nihoyatda mas'uliyatlari davrni boshlaridan kechiradilar. Ularни qurshab turgan muhit ziyoli, zamonaga mos va ilm-fanga intiluvchan bo'lsa nur ustiga a'lo nur, aksincha bo'lsa-chi, o'spirindagi stress, depressiya hamda affekt, tanglik holatini izohlashning hojati yo'q.

Mazkur davrning milliy qadriyatlaridan kelib chiqib, uylanib oila boshlig'i maqomiga ega bo'lgan yigitlarning holatini ham tasavvur qilish qiyin emas. Mazkur yosh oila ichidagi oila bo'lismiga qaramay, hali oila byudjeti va oila xo'jaligini boshqarish u yoqda tursin, oilaning psixologik muhiti hamda oilaning psixologik iqlimini barqarorligi tizimini boshqara olishi qiyin kechishi natijasida turli oilaviy nizolar sababli tanglik holati hamma turlarining guvohi bo'lishi tabiiy.

O'spirinlik davrining yana bir diqqatga sazovor tomoni muloqotga kirishiga xoslilik hisoblanadi. Shu sababli ham bu davrdagilar aksari hollarda biror guruhga a'zo bo'lismiga harakat qiladilar. O'spirinlik davri ijtimoiy psixologiya yo'naliishi orqali tadqiqot qilinlar ekan, ular ko'pincha referent guruhlarga taalluqli ekanligi uqtirib o'tiladi, ya'ni ularga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan hamda alohida o'g'il yoki qiz uchun muayyan qiymatga ega bo'lgan guruh gavdalanadi. Ijtimoiy psixologiya fanida ilk o'spirinlik davrida yuzaga keladigan guruhlar ikki xil guruhga ajratiladi:

1) rasmiy guruhlar, ya'ni muayyan muhitga daxldorligi, yaqqol vaqt hamda fazoda hamkorlik tizimiga aloqadorligi;

2) ixtiyorsiz, g'ayritabiyy, spontan tarzda vujudga keluvchi guruhlar.

O'z tengdoshlari guruhida yoshlar ko'proq o'zlarining fikrlarini bayon etishlari bilan bir qatorda o'zlariga oid fikrlarini to'liq ifoda eta olishlarini namoishkorona namoyon eta olishlar bilan diqqatga sazovordir.

Mazkur davrda yoshlar o'zlarining kelajakdag'i farov-on hayotlari uchun zamin yaratib olishlari va katta hayotga mustahkam qadamlar bilan kirim borishlari, o'z "men"lari to'liq shakllanishi asosida "men"ligiga qaraganda "biz" ligini namoyon eta olishi lozim bo'ladi.

Biz sanab o'tgan maqomlarni egallash bir davrda yuzaga kelishini hisobga oladigan bo'lsak o'spirinlik davrida yangi ijtimoiy mavqyelarga (statuslarga) moslashuv jarayoni naqdar murakkabligini ko'rshimiz mumkin.

Mazkur davrga kognitiv asosida yondashadigan bo'lsak, bu davrda idrok jarayonining yaxlitligi ortishi bilan vaqtning idroki sezilarli darajada oqsashini, o'z-o'zini idrok etishini ortishini va o'z harakatlarini idrok etishdan qoniqmasligi hamda maklonni idrok etishda e'tiborsizligini e'tirof etishlari tabiiy hol hisoblanadi. Ba'zi yoshlar idroklaridagi o'zgarishlarni e'tirof etsalar, ba'zilar uni o'tish davri sababli degan fikrni aytadilar.

Xotira jarayoniga kelsak, bu davrda xotiraning obrazligi ortib, esga olish samaradorligi ortadi, esda saqlash mukammalashadi, esga tushirishda ikkilanish ortadi va unutish jarayoni faollashuvni yuzaga keladi.

Tafakkur jarayonida analizda aniqlik ortishi natijasida sintez samaradorligi ortadi. Mazkur davrdagi krizislar ta'sirida umumlashtirish bir oz sost kechadi. Ammo aksar tadqiqotchilarning ta'kidlashlariga ko'ra, bu davrdagi yoshlarda tafakkurning kreativligi ortadi. Tafakkurdagi hukm va xulosa

chiqarish shoshma-shosharlik asosida amalga oshirilishi bilan bir qator tez-tez o'zgarishlar ko'zga tashlanadi.

O'spirin yoshidagi tafakkurning tezligi savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Ilk o'spirin tafakkuring tezligi qator omillarga: bиринчидан, фикрлар үчун зарур материалнинг хотирада mustahkam saqlanganligiga, уни тез ўзда тушира олишга, муваққат bog'lanishning tezligiga, турли his-tuyg'ularning mavjudligiga, o'quvchining diqqati va qiziqishiga; иккинчидан, унинг билим савиёсига, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalarga bog'liqdır.

Xayol jarayonida tassavur kuchayadi, образлilik ma'lum darajada susayishi kuzatiladi. Ixtiyorsiz xayol aksari hollar-da ustunlikka erishadi (dominantlik). Shu sababli ham bu davrdagi yoshlar kelajak haqidagi tasavvurlari ko'pgina holla-rda taqlidchanlikka asoslanadi.

Shuningdek, bu davrda diqqatni bir joyga to'plash va uni yo'naltirish ma'lum darajada susayadi. Ammo psixologik tadqiqotlar bu davrda "ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat" turi-ning faollashishini ta'kidlashadi.

O'spirinlik davrining aynan o'ziga xos xususiyatlariغا kelsak, E.G.'G.oziyev ta'kidlaganlaridek, "O'spirin qobiliyati, layoqati va iste'dodi ta'lim jarayonida mehnat faoliyati da rivojlanadi. Uning qanchalik iste'dodli ekanini aniqlash uchun ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, mehnatga moyilli-gi, intilish, psixik tayyorligi, mantiqiy fikrlashining tezligi, izchilligi, samaradorligiga e'tibor berish kerak. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shilib ketadi".

O'spirinlik davrining yana bir murakkab tomoni uni o'ziga xos bo'lgan ruhiy kamoloti hisoblanadi. Mazkur ruhiy kamolotning ijtimoiy jamiyatdagi mavqyelarga mos kelishi, o'spirining xulq-atvori yo'naliishiha ijtimoiy muhitning ta'siri beqiyosligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Aynan o'spirinlik davrida xulq-atvorning takomillashuvini o'rgangan aksari psixologlarning ta'kidlashlariga ko'ra, xulq-atvorni qaysi tomonga og'ishi o'spirin davrida tezda ko'zga tashlanadi. Bolalik davridagi xulq-atvor bilan maz-kur davr xulq-atvoring farqi o'spirin tomonidan o'z oldiga qo'yadigan quyidagi savollarda aks etadi; "nega menga bun-day munosabatda bo'lischadi?", "men endi yosh bolamidim?", "men bilan ham maslahatlashishlari kerak" kabi mulohazalar asosida o'z xulqini namoyon etishga harakat qiladilar.

E.G.'G.oziyev "Ontogenetik psixologiyasi" darsligida ta'kidlaganlaridek, "O'spirinlik davri jo'shqin kechinmalarga boy bo'lishi bilan bir qatorda, yuksak insoniy hisslarning o'zida takomillashuvni va mohiyatini chuqurroq anglovchi davr ham hisoblanadi". Darxaqiqat, mazkur davrda sevish va sevishlikdey noyob sezgini ham yoshlar yuragida jo'sh urishi bilan bir qatorda. Shaxs hayoti davomida muhim rol o'ynaydigan: burch, mas'uliyat, oriyat, boshqalarga hurmat, qadriyatlarga amal qilish, vijdonyilik, do'stlik kabi xususiyatlar takomillashib boradi. Bu davrda ijodkorlik, yangilikka intilish, o'zining imkoniyatlarini namoyon etish, yangi-yangi marralarni zabt etish kabi boshqalarni o'ziga jalb etuvchi xatti-harakatlarini tez-tez ko'rshimiz mumkin. Shu sababli ham fan-tek-nika va sport sohalarida mazkur davr sohibi va sohibalarini muvaffaqiyatlari ko'proq qayd etiladi.

Shaxs ontogenezing har bir davrida o'ziga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishida, yuzaga keladigan ruhiy tangliklarni (krizis) yengib o'tishda uni qurshab turgan muhitning unga bo'lgan munosabati nimalarda aks etadi? degan

savolga javob bitta, u ham bo'lsa "ta'lism va tarbiya mohiyatida aks etadi".

Davlatimiz yetakchisi tomonidan joriy yilni "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lism" yili deb nomlanishi bejiz emas. Chunki ta'lism biz uchun, kelajak uchun yo'l, kelajak darvozasi, kelajak poydevori hisoblanadi. Shaxs ontogenezining qaysi davrida bo'lishidan qat'iy nazar o'zligini anglashi uchun tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligini kundalik tajribamizda ko'rib turibmiz.

Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, bu davrdagi yoshlarni bo'sh vaqtini unumli boshqarish katta ahamiyatga ega. Mazkur davrda yoshlarni kasb-hunar va mutaxassislikka to'g'ri yo'naltirish kelajagi buyuk bo'lgan, yangilanayotgan mamlakatimizni ertangi kunini belgilab berishimi davla-

timiz rahbariyati tomonidan urg'u berilishi bilan bir qatorda yoshlarga keng imkoniyatlar ochib berilayotganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Katta hayot bo'sag'asida turgan yigit va qizlarning erta-ga kim bo'lishlari bugungi mакtab partasida olayotgan ta'lism manbalariga bog'liqligini unutishga pedagoglarning haqlari yo'qligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir, desak xato bo'lmaydi.

#### Adabiyotlar

1. G'oziyev. E.G. Ontogenet psixologiyasi. – T.; "Noshir", 2010 y.
2. G'oziyev. E.G. Psixologiya metodologiyasi. – T.; "Noshir", 2013 y.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHI YOSHLARINI KASBGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI

**E.E.Murodov, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi**

В данной статье анализируется дуальный образовательный подход к профориентации учащейся-молодежи и передовой зарубежный опыт в этом направлении, а также даны практические предложения по совершенствованию компетентностных требований к выпускникам и механизмов подготовки молодежи к профессии.

**Ключевые слова и понятия:** национальные государственные образовательные стандарты, профориентация, дуальное образование, британская, французская, немецкая модели.

This article analyzes the dual educational approach to the career guidance of young students and advanced foreign experience in this direction, as well as practical proposals for improving the competency requirements for graduates and the mechanisms for preparing young people for the profession.

**Keywords and concepts:** national state educational standards, career guidance, dual education, British, French, German models.

Dunyoda bitiruvchi yoshlarni kasbga va hayotga tayyorlash masalasi kundan kunga murakkablashib va dolzarblashib bormoqda. Bir tomondan, dunyo iqtisodiyotida va mehnat resurslarida kasb turlarining shiddat bilan o'zgarayotganligi, boshqa tomonda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarining o'zgarishi bitiruvchi yoshlarni kasbga yo'naltirishda bir qancha qiyinchilik va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu global tendensiyaga o'z vaqtida javob qaytarish va muammolarni bartaraf etish ta'lism siyosatidagi ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotchilarning fikricha, juda kam sonli kasblar (5 foizdan kam) to'liq avtomatlashtirilishi mumkin bo'lgan faoliyat turlaridan iborat. Biroq, kasblarning qariyb 60 foizida tashkiliy faoliyatning kamida uchdan bir qismi avtomatlashtirilishi mumkin, bu esa barcha ishchilar uchun ish joyidagi jiddiy o'zgarishlarni nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, avtomatlashtirishga ko'proq moyil bo'lgan kasblar – ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, bank ishlari, advokatlik ishlari, buxgalteriya hisobi, ofis ishlari va boshqalar. Shuningdek, avtomatlashtirish nisbatan kam amalga oshadigan kasblar esa – odamlarni boshqarish, tajribani qo'llash, ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladigan kasblar, xususan, bog'bonlar, sанtexnik yoki bola va qariyalarga qaraydigan enaga kasblardir [1].

Ta'lism tizimi va ta'lism islohotlari yoshlarni kasbga tayyorlash va malakali kadrlar bo'lib yetishishini ta'minlashga qaratilgan. Bugungi globallashuv va avtomatlashtirishning ortishi

bilan endilikda yoshlar faqat bir davlatda emas, balki dunyoda raqobatbardosh bilim va malakalar hamda yuqori kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak. Kasbiy bilimlarga ega bo'lish bugungi kunda muhim bo'lishi bilan birga, iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlarda yoshlarni bandligini ta'minlashda katta rol o'yashini ta'kidlashimiz mumkin. Shu bois, umumiy ta'linda kasbiy ta'lismi ham o'rgatishda dual tizimi samarali ekanligi ilgari suriladi.

Xususan, 2008 yilgi moliyaviy inqirozdan so'ng, ko'plab yevropa mamlakatlarida yoshlar ishsizligi yuqori bo'ldi. Keyin ma'lum bo'ldiki, dual tizimdan foydalangan mamlakatlar (Avstriya, Germaniya, Shvetsariya, Daniya) inqirozda kamroq ta'sir ko'rgan va dual tizimning bunda bog'liqligi bor degan taxmin o'rta chiqqan. Aniqroq qilib aytganda, korxonalarda o'z shogirdlarini yollashga o'rgatish tendensiyasi tufayli yoshlarni korxonalarda o'qtish ish joyiga xavfsiz o'tishni ta'minlagan [2]. Nemis olimi Eyxxorstring fikricha, bir qator kontinental yevropa mamlakatlarida ko'proq namoyon bo'lgan dual tizim yoshlarning ishga o'tishiga yordam berishda muqobil akademik yoki kasb-hunar ta'limidan ko'ra samaraliroqdir [3].

Oxirgi 3-4 yillikda O'zbekistonda ham dual tizim haqida ko'plab fikrlar va ma'lumotlar o'rta chiqmoqda. O'zbekistonda o'rtal maxsus bosqichda dual ta'lism shakli joriy etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lism-tarbiya va

ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonida ko‘zda tutilgandi. Ham kasbiy ta’limda o‘qib, ham o‘z yo‘nalishiga mos ishda ishslash – dual ta’lim demakdir [4].

Dual ta’lim dasturi ta’lim muassasasi va korxona (tashkilot)da bitiruvchiga muayyan kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarishga qaratilgan professional ta’lim tayyorgarligining asosiy mazmunini belgilovchi ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja, o‘quv dastur (modul)lari, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to‘plamidir [5].

O‘zbekistonda dual ta’limni yo‘lga qo‘yish tegishli tashkilotlar va korxonalar, hokimiyatlar bilan kelishgan holda Oliy ta’lim vazirligi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Lekin, yoshlarni kasbga yo‘naltirishda o‘rta maktabdan ayniqsa, 11 yillik ta’lim tizimiga qaytgandan so‘ng, bitiruvchi yoshdagi yuqori sinflar uchun dual ta’limni yo‘lga qo‘yish yanada maqbul bo‘ldi, deb hisoblaymiz. Chunki, bitiruvchilarning aksariyati (taqriban 50-60 foizi) ta’limni oliy va o‘rta maxsusda davom ettirmaydi. Bu bitiruvchi yoshlarni kasb-hunarsiz mehnat bozoriga kirib kelishiga sabab bo‘lar ekan, ularning ish topish imkoniyatlarini pasaytirmoqda. Shundan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’limni 9 sinfdan so‘ng, maktabning o‘zida istovchi o‘quvchilarni bir paytda dual tizimda o‘qitishni yo‘lga qo‘yish lozim. Albatta, bu uchun yetarlicha korxona va tashkilotlardan talab ham bo‘lishi kerak. Shuning uchun, dual ta’limga talab bor joylardagi maktablarda ta’limning ushbu turini yo‘lga qo‘yish mumkin. Bunda o‘qishni istovchi o‘quvchilar (agar u yashaydigan hududda dual ta’limni yo‘lga qo‘yish imkon bo‘lmasa) o‘z maktablarini o‘zgartirgan (ko‘chirgan) holda kelib o‘qishi mumkin. Bu mexanizm ko‘plab yevropa davlatlarida yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlab o‘tishimiz kerak.

Umuman olganda, bitiruvchi yoshlarni kasbga tayyorlashda tadqiqotchilar uch xil model xususida bahs yuritadi. Ushbu modellar tarixiy rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lib, kasb madaniyati shakllanishida katta rol o‘ynagan. Tadqiqotchi Graynert kasbga tayyorlashni tashkil etishda mehnat madaniyatidan kelib chiqib, Buyuk Britaniya – liberal iqtisodiyotga asoslangan modelni (bozor modeli), Fransiya – davlat byurokratiyasiga asoslangan va amaliyotda maktablarga asoslangan model, Germaniya – davlat va kompaniyalar uchrashadigan, natijada ikki tomonlama shogirdlik tizimi yaratiladigan dualistik korporativ modelni yaratganligini ta’kidlaydi [6].

B.Britaniyaning bozor modeli kasbga tayyorlash va o‘qitishda bozorlarning tartibga solish kuchiga ishonadigan modeldir. Tizimning ishslashida davlat juda kam ishtirot etadi. Bozor modelining xarakteristikalari: (a) ta’lim ehtiyojlari va mavjud qamrov o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlik bozor tomonidan tartibga solinadi; (b) kasb va malakalarning tabiatи ularning mehnat bozorida foydaliligi bilan belgilanadi; (c) o‘qitish uchun kamroq standartlar, chunki bozorga qarab egiluvchadir. Shu bois, bir nechta umumiy qabul qilingan sertifikatlar mavjuddir; (d) kasbiy ta’lim xarajatlari o‘quvchilar yoki kompaniyalar tomonidan qoplanadi; (e) bozor modelidan foydaladigan mamlakatlarda umumiy ta’lim va maxsus kasb-hunar ta’limi o‘rtasida muhim farq mavjud. Birinchisi, davlat maktablarda amalga oshiriladi, ikkinchisi esa bozor ishtirotchilar o‘rtasidagi kelishuvga asoslanadi [6].

Fransuz maktab modeli davlat kasb-hunar ta’limi tizimini tashkil etish va tartibga solishga ishonadi. Ushbu model quydigilarni o‘zida aks ettiradi: (a) ta’lim ehtiyojlari va mavjud takliflar o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlik davlat organlari tomo-

nidan o‘rnataladi; (b) kasbiy ko‘nikmalarning tabiatи ularning ish joyida bevosita qo‘llanishiga kamroq bog‘liq; (c) maktab modeli kurslar o‘rtasida yuqori darajada farqlanadi; (d) maktab kasbiy ta’limi davlat tomonidan moliyalashtiriladi; (e) o‘rta muddatli istiqbolda o‘quv kurslari tabaqalashtiriladi [6].


Nemis modeli – bu yuqorida biroz bahs yuritanimiz dual tizimdir. Kasbga tayyorlash va o‘qitishda manfaatdor tomonlarga ijtimoiy mas‘uliyat yuklaydi. Davlat kasb-hunar ta’limi tizimiga qonuniy asosda aralashsa-da, yakka o‘zi harakat qilish imkoniyatiga ega emas. Dual tizim davlat, ish beruvchi va xodimlar o‘rtasidagi maslahatlashuv va hamkorlik natijasidir. Mazkur modelda quydigilar amalga oshiriladi: (a) kasb-hunar ta’limining dual tizimi asosan umumiy ta’limdan ajralib turadigan va o‘ziga xos tashkiliy tuzilma va huquqiy asosga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash sohasini tashkil etadi; (b) kompaniya ushbu kooperativ tizimda o‘rganish uchun asosiy joy bo‘lib, kompaniya ichidagi ta’lim (shogirdlik) standart hisoblanadi; (c) o‘qitishning turi va ko‘rinishi (mazmuni) ish beruvchi yoki ish beruvchilarning ayrim guruhlari manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar tomonidan belgilanadi. Ta’lim profilari ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va davlat organlari o‘rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi va milliy qonunchilikda mustahkmlanadi; (d) shogirdlik xarajatlari odatda korxonalar tomonidan qoplanadi, lekin soliqdan chegiriladi. Shogirdlar ish beruvchidan pul kompensatsiyasi oladilar. Kasb-hunar maktabining joriy xarajatlari davlat mablag‘lari hisobidan qoplanadi [6].

Tadqiqotchi Graynertga ko‘ra, bugungi kunda yevropa davlatlarida va dunyoning boshqa davlatlarida ushbu modellar foydalilanadi yoki bir qismini olgan holda o‘z milliy modellariga moslashtirishadi.

Bitiruvchi yoshlarni kasbga tayyorlashda yuqoridagi muammolarni inobatga olgan holda tadqiqotchilar Milmeyster, Rastoder va Xausman ta’lim va kasbni tanlash va uni rivojlanishda quydagi modelni taqdim qiladi (1-rasm) [7].

Tadqiqotchilar Milmeyster, Rastoder va Xausmanning modelida o‘quvchining ta’lim va kasbiy tanlovi, birinchi navbatda, o‘quvchi o‘z kasbining tasvirlari va o‘z imijini taqqoslash natijasi sifatida ko‘rib chiqiladi, tanlov eng mos keladigan natijadir. O‘quvchilarning kasblari haqidagi tasavvurlari ularning tajribasi va mulohazalari, ya‘ni sinflardagi tajribasi, kasblar haqidagi (qisman fantaziya) g‘oyalari, tengdoshlarining ta’siri va kattalar bilan munosabatlari ostida shakllanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ota-onalari maktabdagi martaba, ijtimoiy keilib chiqishining ta’siri va moliyaviy cheklolvarga asoslangan fikrlash orqali kasbning o‘ziga xos tasvirlariga ega. Ota-onalarning kasbi o‘quvchining qiyofasiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, o‘quvchi tomonidan qilingan taqqoslash natijasidan qat’iy nazar, ota-onalar o‘zlarining fikrlashlari va o‘zlarining mantiqiy taxminlarini qo‘yish orqali ta’lim traektoriyasini tanlashga bevosita ta’sir ko‘rsatishlari mumkin. Nihoyat, o‘quvchilar va ota-onalarning kasbiy imijiga kasbga tayyorlash tizimining milliy turi, kasblar haqidagi ijtimoiy tasavvurlar, kasbning ijtimoiy bahosi (jamoatchilikdagilimiji) va kasblar haqida taqdim etilgan ma’lumatlar kabi kontekstli elementlar ta’sir ko‘rsatadi [7].

Umuman olganda, tadqiqotchilar Milmeyster, Rastoder va Xausman bitiruvchi yoshlarni ta’lim va kasb tanlashda sotsiologik va psixologik jihatlarning muhim rol o‘ynashini ilgari suradi. Shuningdek, bitiruvchi yoshdagi o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda har bir maktabda “kasb namunalari”ni yaratish katta ahamiyatga ega ekanligini ilgari suradi.



I-rasm. Yoshlarning ta'lim va kasb tanlashining integratsiyalashgan modeli

Umumta'lim maktablari bitiruvchilarni kasbga tayyorlash borasida turli modullar va to'garaklar hamda o'yin va musobaqalar ham bor. Ular ham bitiruvchilarning kelajak kasblari borasida taassurotga ega bo'lishi va ushbu kasblarga yo'naltirilgan kompetensiyalarni o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Shunday tadbirdan biri Selfi-yugurish (kvest-o'yini) modulli bo'lib mактаб bitiruvchi yoshdagi o'quvchilarning kasbiy o'zini-o'zi belgilash jarayonini faollashtirish, zamonaviy kasb va mutaxassisliklarni ommalashtirish, o'quvchilar o'rtasida mehnatga ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish maqsadida o'tkaziladi. Tadbirning bunday noodatiy shakli bo'lajak bitiruvchilarga mutaxassislik va kasb tanlashda yordam berish uchun mo'ljallangan. Tadbir o'yinli va amaliy tarzda o'tkaziladi va ikki bosqichdan iborat: birinchi bosqich – har bir stansiyadagi vazifalarni bajarib, yakunlangan natija bilan selfi-tushib yorqin fotosuratni ko'rsatishi kerak. Sakkiz kishidan iborat ikkita jamao 8 ta o'yin stansiyasidan o'tishi va kasblar hamda mutaxassisliklar olamiga "sho'ng'ishi" kerak. Stansiyalar – bu ta'lim tashkilotini tamomlagan holda olinishi mumkin bo'lgan kasblar. Vazifalar juda qiziqarli va hayojonli bo'lib, o'yin ishtirokchilari ko'plab unutilmas taassurotlar bilan birga kichik sovg'alarga ega bo'lishadi [8].

Boshqa bir tadbir, masalan, "professional orientator" ijtimoiy loyihasidir. Bu bir hududning (viloyat yoki tuman-shahar) ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojlarini tahlil qilgan holda, qaysi kasblar va mutaxassisliklarga talabdan kelib chiqib o'tkazilagan tadbirdir. Bunda hududning iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari kontekstida ishchilarga prognoz qilinayotgan ehtiyojlar o'r ganiladi, tegishli davlat tashkilotlaridan ushbu ma'lumotlar olinadi, internet-resurslardan foydalangan holda makro va mikro jihatdan hudud, mamlakat va dunyo bo'yicha kasblarga talablar va o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlanadi va o'quvchilar, mактаб jamoasi va ota-onalar ishtirokida o'quv-seminarlar o'tkaziladi. Sabab bitiruvchi yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdir [8].

Umuman olganda, bitiruvchi yoshlarni kasbni ongli ravishda mustaqil tanlash mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasida-

gi tafovutni kamaytirish, iqtisodiy xarakatlarni kamaytirishga, mehnat unumдорлиги va uning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, "professional orientator" ijtimoiy loyihasi shaxs va jamiat manfaatlari va ehtiyojlariga mos keladigan kasbni oqilona tanlash hamda bu tanlovdan motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bunda korxonalar, tadbirdorlar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, ularning vakillarini o'quv-seminarlarga jalb qilish, fikr-mulohazalarini va ma'ruzalarini bitiruvchi yoshlariga, ota-onalarga yetkazish katta rol o'ynaydi.

Ta'limda o'qitish metodlari, kasbga tayyorlash modellari va mexanizmlari juda ko'p. Albatta samaradorligi chuqur tahlil va baholash bilan o'Ichanishi mumkin. Olimlar tomonidan ishlab chiqilayotgan o'qitish modeli va mexanizmlarining maqsadi sifatli ta'lim berish, zamonaviy fan-tehnologiya bilimlarini yetkazish, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish, mehnat bozori talablariga mos kasblarga tayyorlash va kasbiy bilimlar berish hamda malakali mutaxassislar yetishtirishdan iboratdir. Bularning barchasi shaxs, jamiat va davlat manfaatlariga xizmat qiladi, rivoqlanish va taraqqiyotni ta'minlaydi.

Bitiruvchi yoshlarda kompetensiyaviy talablar umumiy va maxsus ko'rinishda bo'ladi: umumiy talablar fanlar, til va texnik bilim va ko'nikmalar hamda xulq-atvorni rivoqlantirish bo'lsa, maxsus talablar kasb-hunar va mutaxassislikka qaratilgan bo'ladi. Afsuski, ko'pincha ta'lim muassasalarida maxsus talablar e'tibordan chetda qoladi. Shu bois, bitiruvchi yoshlar uchun alohida kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv-seminarlar, dual tizim ko'rinishidagi amaliyotlar, turli tadbirdorlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Ushbu tadbirdorlar amaliy ko'rinishda, tegishli tashkilotlar, muassasalar, tadbirdorlik sub'ektlari va jamaot arboblari ishtirokida bo'lishi, joyiga chiqib ish o'rganish va 2-3 oylik mehnat qilish kurslarini tashkil etish lozim. Bu bo'lajak bitiruvchilarni kasbga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Bu borada Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tomonidan olib borilayotgan 103 turdag'i kasblar uchun qisqa

muddatli kurslari [9] va metodik tavsiyalari, yo‘riqnomalarini diqqatga sazovor va muhim ekanligini ta’kidlab o‘tish jozi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlarda ta’limning eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodni o‘zgaruvchan hayot sharoitlariga tayyorlashdir. Kasbga yo‘naltirishni tashkil etishning asosiy tizimini tashkil etuvchi omil doimiy jarayon bo‘lib, uning doirasida maktab o‘quvchilari uchun boshlang‘ich kasb-hunar ta’limini amalgalashirish imkoniyati yaratiladi. Bitiruvchi yoshlarni zamonaviy kompetensiyalarni va zamonaviy kasb talablarini o‘zlashtirishi ta’lim muassasalarini ustuvor vazifasi bo‘lib qolishi lozim. Zamonaviy mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va tendensiyalarni kuzatish, tahlil qilish, hudud va mamlakat ishchi va kadrlar resurslarini tadqiq qilish orqali kasbiy bilimlar berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, ta’lim tashkilotlarining maqsadi shaxs, jamiyat va davlat uchun manfaatlil bo‘lgan zamonaviy kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni bitiruvchi yoshlarda shakllanishini ta’minalashdir. Bitiruvchilar kasbga ongli va katta qiziqish bilan kirib kelishi, ta’lim dasturlari va o‘qitish nazariy bilimlardan amaliy ko‘rinishga o‘tishi lozim.

## Adabiyotlar

1. McKinsey Global Institute, Jobs lost, jobs gained: What the future of work will mean for jobs, skills, and wages. Report, November 28, 2017. <https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work/jobs-lost-jobs-gained-what-the-future-of-work-will-mean-for-jobs-skills-and-wages>

2. Kleinert C., Vosseler A., and Blien U., Classifying vocational training markets. Ann. Reg. Sci. 61, 2018, pp. 31-48. doi: 10.1007/s00168-017-0856-z

3. Eichhorst W., Rodríguez-Planas N., Schmidl R., and Zimmermann K., A Road Map to Vocational Education and Training in Industrialized Countries. ILR Rev. 68, 2015, pp. 314-337. doi:10.1177/0019793914564963

4. Профессионал таълим тизимида дуал таълим ташкил этилади. 30.03.2021. <https://kun.uz/73460450>

5. Ўзбекистон профессионал таълимида ўқитишнинг дуал тизими ташкил этилиши мумкин. 25 Август 2020. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-professional-talimida-oqitishning-dual-tizimi-tashkil-etylishi-mumkin>

6. Greinert W. D. Mass Vocational Education and Training in Europe: Classical Models of the 19th Century and Training in England, France and Germany During the first Half of the 20th. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2005.

7. OECD. PISA 2018 Results (Volume II): Where All Students Can Succeed. Paris: OECD Publishing, 2019, p. 50.

8. Milmeister Paul, Rastoder Merlin and Houssemann Claude. Mechanisms of Participation in Vocational Education and Training in Europe. Frontiers in Psychology, HYPOTHESIS AND THEORY, 30 May 2022. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.842307>

9. Межрегиональный центр компетенций. Новые форматы профориентационной работы и продвижения рабочих профессий. Тюмень, 2018. – С. 4.

10. Мардонов Ш., Таълимда инновацион кластер методининг кўлланыш имкониятлари. 28 Март 2019, <https://xs.uz/uzkr/post/talimda-innovatsion-klaster-metodining-qollanish-imkoniyatlari>; Mukhamedov G. I., Khodjamkulov U. N., Shofkorov A. M., Makhmudov K.Sh. Pedagogical Education Cluster: Content and Form. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, Vol. 81, Issue 1, 2020, pp. 250-257.

11. Ходжамкулов У.Н., Педагогик таълим инновацион кластери (Ўзбекистон таълим тизими мисолида). Academic Research in Educational Sciences, Vol. 1, Issue 4, 2020, pp. 537-547.

## KICHIK MAKTAB YOSHIDA KASBLAR HAQIDA TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIATLARI

D.S.Abdullajanova, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Umumiyy psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Данная статья о сегодняшней необходимости формирования первых представлений о профессии у детей младшего школьного возраста, об исследовании проблемы представителями различных отраслей, особенности их взглядов. А также даны рекомендации по аспектам формирования первых представлений о профессии, которые зависят от возраста, пола и особенностей характера.

**Ключевые слова и понятия:** младший школьный возраст, половые различия, психологический аспект, характер.

This article is about today’s need to form the first ideas about the profession in children of primary school age, about the study of the problem by representatives of various industries, the features of their views. And also recommendations are given on aspects of the formation of the first ideas about the profession, which depend on age, gender and character traits.

**Key words and concepts:** primary school age, gender differences, psychological aspect, character.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaat-nomasida ta’kidlaganidek, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir.

Shu bois, birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz.

“Najot — ta’limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.[1]

## Kasbga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti

Darhaqiqat, shaxs sifatida shakllanish, jamiyatga foyda keltiradigan inson bo'lib yetishish, qolaversa, kelajakda baxtli yashashning mohiyatini to'g'ri kasb tanlash tashkil etadi. Bu haqidagi ilk tasavvurlarning shakllanishi bevosita bolaning bog'cha hamda kichik maktab davridan boshlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining intellektual ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish muammosining dolzarbligi avvalo jamiyatning nostandard tafakkurga ega, jamiyatdagi sotsial o'zgarishlarga tayyor, fuqarolik jamiyatini yaratishda faol ishtirok etib o'z hissasini qo'shishga qobil, o'z ustida tinmay ishlovchi, rivojlanishdan to'xtamaydigan shaxsga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Bunda har bir kichik maktab o'quvchisining qobiliyatini inobatga oluvchi, imkoniyatlardan unumli foydalanuvchi ta'lif-tarbiya sharoitlarini yaratib berish, ularni ijodiy fikrlash usslublari bilan qurollantirish, kichik maktab o'quvchilarining o'zini o'zi intellektual-ijodiy takomillashtirish uchun zamin hozirlash kabi o'quv jarayonidagi yangi qadriyat va maqsadlarni ko'zlash muhimdir. Shu bilan bir qatorda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining intellektual-ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishga oid qo'llanmalar, nazariy va amaliy asoslar haqidagi ma'lumotlar yetarli emas.

Hozirgi kunda kasbga yo'naltirishning bir talay nazariy va amaliy muammolari mavjud. Xususan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini kasbga yo'naltirish va rivojlantirishning psixologik, pedagogik amaliyotda zarurati yuqoriligiga qaramay yetarli darajada tadqiq etilmagan. Jumladan, hozirgi kunga qadar "maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyati" noaniq ta'rifa ega bo'lib, u qobiliyatlar va kreativlik tushunchalari bilan bog'lanadi. Bu esa kasbni rivojlantirish omillarini noaniqligicha qoldiradi. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, ijodiy tafakkur asosan iste'dodli, iqtidorli bolalarda o'rganiladi, shu sababli, uning umumiyy Psixologik xususiyatlari chetda qolib uni rivojlantirish omillari bir yoqlamaligicha qolishiga sabab bo'ldi.

Mazkur muammoning yana bir murakkabligi shundaki, kasblar professiogramma mohiyatini bevosita tadqiqotda aniqlash imkoniyati yo'q, shuning uchun ijodiy tafakkur ko'p asrlik tarixga ega bo'lishiga qaramay hali ham tadqiqiy jihatlari talaygina.

Kasbiy faoliyat har qanday inson va umuman jamiyat hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bolaning tug'ilishidanoq ota-onalar uning kelajagi haqida o'ylashni boshlaydilar, uning qiziqishlari va moyilliklarini diqqat bilan kuzatib boradilar, chaqaloqning kasbiy taqdirini oldindan belgilashga harakat qilishadi. Bu masalada bolaning ijtimoiy moslashuvi juda muhim rol o'ynaydi, bu bolalar bog'chasi va maktab kabi ijtimoiy institutlar yordamida amalga oshiriladi. Bu yerda bolalarning moyilliigi va qobiliyatları aniqlanadi va ularni keyingi yo'nalishga yo'naltiradi.

Mehnat tarbiyasi maktab o'quvchisini tarbiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Kasb tanlashga yosh avlodni oila va maktabda tarbiyalash jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida qaraladi

O'rta ta'lif muassasalarida o'quv va maktabdan tashqari ishlar tizimi o'quvchilarini kasbiy yo'nalishdan tashqari mehnatsevarlikka, kasb-hunarga o'rgatish, tarbiyalash jarayonini ta'minlaydi.

Ko'rinish turbdiki, kasbga yo'naltirishda ko'nikma va malakalarini to'g'ri o'rgatmasdan turib, kasbni to'g'ri tanlashni shakllantirish mumkin emas, shuning uchun kasbni o'quvchi o'zining qiziqish va imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib taylandi, bu esa o'ziga xos bilim olishda qo'llanma bo'lib xizmat

qiladi. Kasbga yo'naltirish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini turli kasblar va mehnat turlari bilan tanishtirish jarayonining jihatlarini o'z ichiga oladi, ularga moyillik va qobiliyatlariga mos keladigan kelajakdagi kasb va mutaxassislikni tanlashda yordam beradi. Bu yoshda kasblar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda ishning asosiy vazifasi: mehnat resurslari, kasb, mutaxassislik, mehnatsevarlikni tarbiyalash, turli kasb egalariga hurmat kabi tushunchalarni ochib berishdir.

7-10 yoshda bolaning hayotiy tajribasi kamliги sababli kasblar haqidagi bilimlari ancha cheklangan. U ota-onasining kim bo'lib ishlashini biladi, o'qituvchi va boshqa kasblarni biliadi, ular haqida juda kam eshitgan, chunki ular haqida shunchaki eshitish yoki ularni tashqaridan kuzatish mumkin.

Bu borada, E.A.Klimov ish dunyosi va kasbiy mahorat bilan yoritilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlar birinchi sinfdan boshlab butun maktab davri davomida amalga oshirilishi kerak, deb hisoblaydi. Kasblar dunyosi to'g'risidagi ma'lumotlar bolalar uchun kitoblarda, sevimli mashg'ulotlarda, ijodiy ja-moalarda mashg'ulotlarga qatnashishi uchun qulay shakllarda berilishi kerak .

A.I.Kochetovning esa, bolani inson faoliyatining turli shakllari bilan erta tanishtirish uning umumiyy ufqlarini tezda kengaytiradi, shuningdek, eng muhimi, bola o'zini ancha erta namoyon qiladi, o'zini o'zi belgilaydi, qiziqish va moyilliklarini ochib beradi. Uning fikricha, uning pedagogik tajribasi, agar inson bolaligidanoq kelajakdagi kasbi bilan bog'liq holda o'z oldiga aniq maqsadlar qo'sya, kelajakda jamiyatdagi o'mini aniq belgilashga harakat qilsa, u hyech qachon tarbiyasi qiyin o'smirlar safiga qo'shilmasligi ehtimolini oshiradi. Demak, kichik maktab yoshidanoq aniq maqsadni belgilash va unga erishishga harakat qilishga o'rgatish bolani jamiyat uchun foydali inson bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

S.N. Chistyakova kasbiy o'zini o'zi belgilashning asosiy vazifasi kichik maktab yoshdag'i o'quvchilarida kasbiy faoliyatiga sog'lam qiziqishni shakllantirishdir, deb hisoblaydi [4].

Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflashimiz mumkin: hissiylik, qiziquvchanlik va sezgirlik. Ular kichik muvaffaqiyatlarga ham qanoat qiladilar, yangi narsalarni tushunish jarayoni quvonch keltiradi. Bolalar odatda kattalarga taqlid qilishga harakat qilishi shadi va bu hodisa psixologik darajada sodir bo'ldi. Shuning uchun ko'pincha ular o'zlarini uchun muhimroq bo'lgan kattalarning kasblariga, yaqinlariga e'tibor berishadi. Jumladan, o'qituvchilar, ota-onalari, qarindoshlari, oilaning yaqin do'stlari.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining mehnat faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Maktab o'quvchilarini uchun bu, birinchi navbatda, o'quv mashg'ulotlari, ya'ni o'qish maktab o'quvchisining ishi. Birinchi sinfdan boshlab bolalar turli xil ko'rgazmali qurollar, rasmlar, jadvallar, sxemalar, turli kolleksiyalar, gerbariyalar, oddiy maketlar yasash bilan shug'ullanadilar.


Bizning fikrimizcha, yuqoridaq vazifalarni amalga oshirishda o'quvchi uchun o'z-o'ziga xizmat qilish birinchi o'ringa qo'yilishi kerak. Chunki, mehnatga tayyorchash bu bola tarbiyasida katta rol o'ynaydi. Bolaning jismoniy rivojlanishi ham bilvosita uning mehnati va amaliy faoliyati bilan bog'liq, chunki bu jihatlar unga foydali ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining aqliy qobiliyatlarini, uning aql-zakovati va ijodiy zukkoligini rivojlantirishda kasbga yo'naltirish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kasbga yo'naltirish shaxsni axloqiy tarbiyalashning

ajralmas qismidir. Jamoaviy mehnat yordamida o‘rtoqlik, ja-moaviylik, o‘zaro yordam va o‘zaro talabchanlik kabi axloqiy jihatlar yaxshi shakllanadi.

“O‘z-o‘ziga xizmat qilish”, kiyinish, yechinish, ovqatlanish, madaniy va gigienik ko‘nikmalarни shakllantirish va bu bilan mustaqil shug‘ullanishni o‘rgatish mehnatning bir turi bo‘lib bu yoshda juda muhimdir.

Har bir kichik maktab o‘quvchisi uy-ro‘zg‘or ko‘nikmalarini egallashi mumkin: xonani tozalashi, idishlarni yuvishi, kir yuvishi va hokazo. Agar o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish o‘ziga g‘amxo‘rlik qilishga qaratilgan bo‘lsa, uy ishlari ijtimoiy faoliyatga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshi-dagi bolalarda kasbga yo‘naltirish, ularni kasblar dunyosi bilan tanishtirishda o‘ziga o‘zi xizmat tushunchasi ijtimoiylashishla-rida faolroq ta’sir ko‘rsatishini kuzatishimiz mumkin.



Shuningdek, kichik maktab yoshidagi bolalarda kasb ha-qidagi tasavvurlar kengroq shakllanishida oilaning va mak-tabning o‘rnii muhim hisoblanadi. Kichik maktab yoshida o‘quvchilarda kasb, hunar haqidagi tushunchalarini shaklla-nishida jins tafovutlarining mayjudligi o‘rganilgan bolib, bu na-faqat jins nuqtai nazaridan, balki xarakter xususiyatlarini shakl-lanishi bilan bog‘liq bo‘lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, kichik maktab yoshida kasbga ijobjiy munosabati shakllantirish, ularni turli xil kasblar bilan tanish-tirish borasidagi sa‘y-harakatlar kelajakda bolaga kasbini tan-lashiga yordam beradi va tanlagan kasbi o‘zi uchun foydali, qiziqarli bo‘lishini belgilaydi. To‘g‘ri va qiziqarli kasbni tanlay olish inkoniyatini yaratilishi farzandlarimizning kelajakda baxtli yashashlariga albatta o‘z hissasini qo‘sadi.

## Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xal-qiga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
2. Пряжников Н.С., Пряжникова Е.Ю. Психология труда и человеческого достоинства. М., 2003.
3. Семенова Г. Развитие учебно-познавательных мотивов младших школьников// Школьный психолог №10, 2004.
4. Антонова М.В., Максимкина О.И. Педагогическое сопровождение процесса социально-профессиональной ориентации младших школьников // Вестник Московского государственного педагогического университета. Педаго-gika и психология. 2017. – № 2 (40)

## TA’LIM MUASSASALARIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA TOLERANT MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

**M.M.Nasimdjanova, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

В статье анализируются трудности работы с детьми с ограниченными возможностями и отношения к ним в обществе. Рассматриваются проблемы детей с ограниченными возможностями во время учебы в школе и в общении со сверстниками, излагаются рекомендации для развития толерантности у детей к их сверстникам с ограниченными возможностями.

**Ключевые слова и понятия:** личность, отношение, общество, интеграция.

The article analyzes the difficulties of working with children with disabilities and attitudes towards them in society. The problems of children with disabilities while studying at school and in communication with peers are considered, recommendations are made for the development of tolerance in children towards their peers with disabilities.

**Key words and concepts:** personality, attitude, society, integration.

Imkoniyati cheklangan shaxslarga tolerant munosabati ni shakllantirish zamonaviy jamiyatning murakkab ijtimoiy holati hisoblanadi. Jamiyat ongida imkoniyati cheklanganlar- ga nisbatan pozitiv obraz shakllanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Ko‘pchilik, nafaqat oddiy fuqarolar, balki ayrim davlat tuzilmalari ham bunday insonlarni teng huquq va im-koniylarda integratsiyalash o‘rniga ularning o‘ziga xos-liklariga e’tibor qaratib, jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilmaydilar. Bu holat imkoniyati cheklanganlarning jamiyatdagi o‘rnini yaxshilash zaruriyatini dolzarblashtiradi.

Aynan tolerantlik bugungi kunda, insonlar hayotida davlat qurilmasi, ijtimoiy tuzilmalar, individual xulq-atvor strate-giyalarining gumanizatsiya va ijtimoiy-madaniy barqarorlik yo‘lidan ketishida kuchli boshqaruv funksiyasini egallashi lozim.

Inson o‘z sivilizatsiyasi davomida imkoniyati chek- langan bolalarga nisbatan munosabatda qarama-qarshi yo‘lni bosib o‘tdi. Bu jamiyatning ma’naviy evolyusiyasi bo‘lib, bunda befarqliq, nafrat va agressiya bilan bir qatorda g‘amxo‘rlik va shavqat kabi saxifalarni kuzatishimiz mum-

kin. Faqatgina bir narsa, teng shartlar asosidagi hamkorlik kuzatilmagan.

Imkoniyati cheklangan nogiron bolalarga jamiyat qanday munosabatda bo‘lganligini qadimgi Sparta mifologiyasida uchratishimiz mumkin bo‘lib, qadimgi tarixchilardan bo‘lgan Plutarxning keltirishicha, nogiron bo‘lib tug‘ilgan bolalar qoyadan tashlab yuborilgan. Qadimgi Gretsiyada jismoniy yetuklik juda qadrlangan bo‘lib, jismoniy kamchiliklar bilan tug‘ilgan bolalar o‘limga mahkum qilingan. Qadimgi Rimda ham jismoniy kamchiliklarga ega bolalarning o‘ldirilishi norma hisoblangan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, Rimda nogironligi bor shaxslarni davolash usullari ishlab chiqilgan. Masalan, Aristotel eshitish sezgisidagi nuqsonlarni o‘rgangan bo‘lsa, Gippokrat esa epilepsiyani davolash usullarini topishga harakat qilgan. Qadimgi yahudiylar madaniyatida ko‘rlar va karlar, bevalar, yetimlar va kam ta’minlanganlarga e’tiborli munosabatda bo‘lish qabul qilingan bo‘lib, bolalarni o‘ldirish taqilangan. Lekin, imkoniyati cheklanganlar “gunohkor” deb hisoblangan va ularga diniy marosimlarda ishtirot etish taqilangan.

Qadimgi Misrda ilk davolash sir asrorlari va sehrli duolar ro‘yxati keltirilgan hujjatlar aniqlangan. Shunisi muhimki, misrliklarni nafaqat kasallik sabablari va uni davolash usullari, balki nogironlarning ijtimoiy holati ham qiziqtirgan bo‘lib, tabiblar ko‘rlarni musiqa, ashula aytish, uqalash ko‘nikmalariga o‘rgatganlar hamda diniy marosimlarda ishtirot etishga chorganlar. Alovida davrlarda ko‘zi ojizlar saroydagi musiqachi va shoirlarning asosiy qismini tashkil qilgan.

Tarixga nazar tashlagan holda shuni kuzatishimiz mumkinki, nogiron bolalarga bo‘lgan munosabat har bir davrda o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan. Jamiyat o‘z mayjudligi davomida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan qarama-qarshi hissiyotlarni boshidan kechirgan bo‘lib, bular rahm-shafqat va g‘amxo‘rlikdan tortib, g‘azab va nafrat ko‘rinishlarida bo‘lgan [1].

Imkoniyati cheklangan bolalar muammosi maxsus tadqiqotlar predmetiga aylanganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Bolalar rivojlanishi borasidagi jiddiy tadqiqotlar ikkinchi jahon urushidan so‘nggina boshlandi, bu esa insoniyat rivojlanishi qamrovidagi juda qisqa vaqt oralig‘i hisoblanadi. Shuni ham rad etib bo‘lmaydiki, ushbu masalada dinamika yaqqol namoyon bo‘lib, “to‘laqonli bo‘lмаган а‘зо”ларни jismoniy yo‘q qilish, tan olmaslik va izolyasiyadan tortib turli deffekt-larga ega bo‘lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvi zaruriyati va ular uchun to‘siksiz muhitni yaratishda namoyon bo‘ladi. Bu rivojlanishida o‘ziga xosliklar mayjud bo‘lgan bolalar ijtimoiyashuvi uchun juda unumli hisoblanadi [3].

Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan tolerant munosabatni shakllantirishning bir yo‘li imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim maktablarida o‘qishini talab etuvchi inklyuziv ta’limni kiritish hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlarni professional tayyorlash va o‘qitishda to‘siksiz muhitni yaratishga yo‘naltirilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalar bilan bitta sinfda ta’lim olgan o‘quvchilar tolerantlik va mas’uliyatga o‘rganadilar.

Inklyuziv ta’lim ostida imkoniyati cheklangan bolalarning normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birqalikda ta’lim-tarbiya olishi jarayoni tushunilib, buning natijasida ular ijtimoiy rivojlanishda to‘liq progressga erishadilar. Aynan ijtimoiy adaptatsiya va rehabilitatsiya imkoniyati cheklangan bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatishning asosiy

tizimi bo‘lishi lozim. Shu bilan bog‘liq holda alovida ehtiyojlar mayjud bo‘lgan bolalarga munosabat bo‘yicha ta’lim muassasasi rivojlanishining asosiy markaziy vazifalaridan biri pedagoglar, tengdoshlar, ota-onalarda tolerantlikni shakllantirish bo‘lishi lozim.

Maktabda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan bog‘liq bo‘lgan xuddi jamiyatdagi kabi bir qator muammolar mayjud bo‘lib, bular quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- o‘quvchilar orasida imkoniyati cheklangan insonlar va ular duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar haqida ma‘lumot yetishmasligi;

- o‘quvchilarda nogiron bolalar bilan muloqot ko‘nikmalarining mayjud emasligi;

- maktablar dasturida o‘quvchilarga imkoniyati cheklangan tengdoshlarini tushunishga yordam beruvchi va ular bilan muloqot qilishga o‘rgatuvchi mashg‘ulotlarning mayjud emasligi;

- bu sohadagi metodik ishlanmalarning yetishmasligi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning asosiy muammosi uning dunyo bilan aloqalarining cheklanganligi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqalarining yetishmasligi, madaniy qadriyatlar va ba’zida ta’lim olishga imkoniyati yo‘qligidadir. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berish sifatini oshirishga xalal beruvchi, tengdoshlari tomonidan negativ munosabatda bo‘linishi, jismoniy va psixik to‘siqlarning mayjudligi. O‘quvchilarda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan tolerant munosabatni rivojlanish uchun pedagogning o‘zi tolerantlikni namoyon etishga tayyor bo‘lishi lozim. Tolerantlik bu nafaqat rahm-shavqat va bag‘rikenglik, balki boshqalar huquqlarini hurmat qilish hamdir. Bu insonlar o‘z tabiatiga ko‘ra tashqi ko‘rinishi, holati, nutqi, xulq-atvori va qadriyatlari bo‘yicha farqlanishi hamda dunyoda yashab o‘z individuallagini saqlash huquqiga ega ekanligini tan olishdir [2].

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashda yuzaga keluvchi qiyinchiliklarni yengishda bir qator tavsiyalarga amal qilish lozim. Bunda pedagoglarning imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashha psixologik tayyorligi muhim axamiyat kasb etib, ular quyidagilarda namoyon bo‘лади:

- imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslash davomidagi qiyinchiliklardan qochib bo‘lmasligiga va bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish mumkinligiga o‘z-o‘zimi psixologik tayyorlash;

- birinchi muvafaqqiyatsizlikdanoq orqaga chekinmasdan bu muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash;

- o‘z-o‘ziga va o‘quvchilarga ishonch, ulardagagi individuallikni ko‘ra olish va hurmat qilish, ular bilan hamkorlik qilish, o‘quvchiga mexribon va e’tiborli bo‘lish, o‘z-o‘zida nimadir o‘zgartirishga tayyor bo‘lish.

Tolerantlik ruhidagi tarbiya boshqa insonlarga nisbatan munosabatda qo‘rquv va begonalashuv hissini chaqiruvchi ta’sirga qarshilikka yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. U yoshlarda mustaqil tafakkur, tanqidiy fikrash va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan fikrlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilishi lozim.

Imkoniyati cheklangan bolalarga tolerant munosabatni shakllantirish uchun quyidagi vazifalarga tayanish lozim:

- tarbiyalanuvchilarda noadekvat ijtimoiy tasavvurlar va jamoat fikrini o‘zgartirish;

- nafaqat tengdoshlari, balki ularning ota-onalari, oila a’zolari tomonidan boshqa insonga nisbatan hamdardlik holati bilan kechuvchi empatik asoslarni shakllantirish;

- nogiron bola hulqidagi va uning oиласидаги qaramlik uslublari va kayfiyatini neytrallashtirish;

- integrativ ta’lim metodikalari va texnologiyalari sohasida pedagoglarning professional kompetentligi darajasini oshirish.

Kichik maktab yoshida shakllantirilgan tolerantlik shaxs potensialini muvaffaqiyatlama amalga oshirilishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Tolerantlik xususiyatiga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashda ta’lim muassasalarini muhim ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu yerda bola vaqtining katta qismini o‘tkazadi va atrofdagilarga nisbatan o‘zaro hurmat hamda sabrli munosabatda bo‘lishga o‘rganadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan birga ta’lim olish ijtimoiy kompetentlik, tolerantlik kabi xususiyatlarni va shaxslararo muammolarni hal etish, o‘z kuchiga ishonish hamda o‘z-o‘zini hurmat qilish kabi zarur ko‘nikmalarning rivojlanishiga yordam beradi. Hamkorlikdagi tadbirlar davomida bolalar muammoni muhokama etishni, boshqalar fikrini eshitish va tinglashni, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishni, oponent fikrini tinglagan holda nizolarni kelishuv asosida hal etishni

o‘rganadi. Buning natijasida ular har bir insonning “boshqa-chaga” bo‘lish huquqini tan olishga o‘rganadilar.

### Adabiyotlar

1. Замский Х. С. Умственно отсталые дети. История изучения, воспитания и обучения с древних времен до середины XX века. М.: НПО «Образование», 1995.

2. Леонтьев Д. А. Факторы и психологические механизмы развития личности в затрудненных условиях // Инклюзивное образование: методология, практика, технология: Материалы международной научно практической конференции (20—22 июня 2011, Москва). М., 2011.

3. Stodden R. A., Dowrick P., Gilmore S., Galloway L. M. A review of secondary school factors influencing post school outcomes for youth with disabilities. Honolulu (HI), 2001.

## BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

L.R.Mirzaxmedova, Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 265-maktabning boshlang‘ich sind o‘qituvchisi

В данной статье рассматривается вопрос использования информационных технологий на уроках родного языка и грамотности чтения, которая повышает интерес учащихся к предмету. А также представлена информация об отличии от традиционных занятий по родному языку и грамотности чтения, организованных на основе информационных технологий.

**Ключевые слова и понятия:** электронный учебник, информация, информационная технология, аудио текст, электронная доска.

This article discusses the use of information technology in the lessons of the native language and reading literacy, which increases students’ interest in the subject. It also provides information on the difference from traditional classes in the native language and reading literacy, organized on the basis of information technology.

**Keywords and concepts:** electronic textbook, information, information technology, audio text, electronic board.

“Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish “Raqamli O‘zbekiston -2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir”[1].

Axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan 2020 yil 6- oktyabrdagi PQ-4851-sonli Prezident qarori hozirgi kunda amalga oshirilayotgan axborot texnologiyalarini rivojlantirish yo‘lidagi ishlarning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Yuqoridagi fikrdan ham ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi o‘z oldiga axborot texnologiyalarini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yan. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda birinchi e’tibor ta’lim sohasiga qaratiladi. Ta’lim sohasida malakali kadrlarni shakllantirish va ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishda axborot texnologiyalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda yo‘lga qo‘yilgan ta’lim tizimining asosiy vazifasi ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan, kelajakda o‘z o‘rnini egallashga harakat qiluvchi barkamol avlodni tarbiyalash hisoblanadi. Shunday ekan zamonaviy bilimlarni berishda bizga axborot texnologiyalari yordam beradi.

Ta’lim sohasining poydevori - bu boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda olingan bilim ko‘nikma va malakalar qolgan yillar davomida egallanadigan bilimlar uchun asos – poydevor hisoblanadi. Zero, poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa imorat shunchalik chidamli bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda mukammal bilimga ega bo‘lgan o‘quvchi yuqori sinflarda va ta’limning keyingi bosqichlarida ham hyech qanday muammolarga duch kelmaydi. Boshlang‘ich ta’lim inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Inson maktabga ilk qadam qo‘ygan kunidan boshlab uning oldida bitta- bilim olish maqsadi turadi. U ushbu maqsadini amalga oshirish uchun harakat qiladi. Bu yo‘lda qanchadan qancha kitoblar o‘qiydi va ustozlardan kerakli bilimlarni oladi. Shu sababli ham boshlang‘ich sind o‘qituvchilaridan o‘quvchilariga bilim berishda mas’uliyat talab etiladi. Ular o‘quvchilar savodini chiqarishda, ularga fan yuzasidan zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarini berishda o‘zlarining barcha imkoniyatlarini ishga solishlari zarur.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslari alohida ajralib turadi. Ona tili darsi va o‘qish savodxonligi orqali o‘quvchining savodi chiqadi. U yozishni va o‘qishni o‘rganadi. Til insonlar orasida bir qancha ijtimoiy

vazifalarni bajaradi. Tilning ijtimoiy vazifalari, ya’ni kishilar orasidagi nutq orqali amalga oshadigan aloqani yakunlashga xizmat qilishi, nutqning og‘zaki yoki yozma shakli orqali tinglovchiga yoki o‘quvchiga turli ma‘lumotlarni yetkazishi hamda so‘zlovchining ko‘zlagan maqsadi, nutqiy faoliyat amalga oshayotgan vaziyat va munosabatdan kelib chiqadi [2]. Bu unga keyinchalik ham fanlarni yaxshi o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bunda asosiy rolni albatta boshlang‘ich sinf o‘quvvachisi egallaydi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodini chiqarish o‘quvvachidan kasbiy mahorat va bilim talab etadi. Bu vazifa o‘quvvachining zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. O‘quvvach har doim ushbu mas’uliyatni his qilgan holda dars jarayonini tashkil etishi lozim. Bunda o‘quvvachidan ijodkorlik, izlanish, ilg‘or va inovatsion texnologiyalarni, ilg‘or o‘quvvchilarining tajribalarini o‘z darsida mahorat bilan qo‘llay olish talab etiladi.

Hozirgi kunda biz hayotimizni axborot-kommunikatsion texnologiyalrsiz tasavvur eta olmaymiz. Ta’lim sohasida ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish bugungi kunda barcha o‘quvvachi va pedagoglardan talab qilinmoqda. Bu o‘z navbatida kompyuter texnologiyalarining butun dunyoda keng miqyosda tarqalganligi bilan xarakterlanadi. Maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlari natijasida hozirgi kunda deyarli barcha maktablar kompyuter texnikasiga ega bo‘ldilar. Maktab jamoasi bugungi kunda ushbu kompyuter qurilmalaridan unumli foydalanib kelmoqdalar. Respublikamiz ta’lim sohasida ushbu axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yuzasidan ilmiy-metodik baza yaratilib u mustahkamlanmoqda. Bu olib borilayotgan ishlarning barchasini zamirida albatta ta’lim tizimini rivojlantirish va bu orqali yetuk mutaxassislarni tayyorlash yotibdi.

Yuqorida aytganimizdek, o‘quvvchilarining savodxonligini oshirishda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari muhim ahamiyatga ega. Boshqa fanlarda bo‘lgani kabi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ham axborot texnologiyalaridan foydalanib dars olib borish ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvvchilarining darsga nisbatan qiziqishlarini o‘stirishga yordam beradi. Shu sababli ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida dars o‘tish davr talabi deb aytish mumkin. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, axborotning xilma-xilligi, matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi. O‘quvvchilarga ta’lim olishda ijodiy munosabatni uyg‘otadi va bu o‘quvvchilarda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi; o‘quvvchilarining tafakkurini rivojlantiradi; o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi; o‘quvchi mavzu bo‘yicha yangi fikrlarni bildirishga va o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi. Ushbu jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy o‘quvvuchi butun dunyo ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlardan doimo xabardor bo‘lishi va ularni o‘zlashtirib o‘z faoliyati davomida qo‘llay olishi lozim.

Shu paytgacha maktablarning boshlang‘ich sinflarida “ona tili” va “o‘qish” darslari alohida o‘tilar edi. Bugungi kunga kelib ushbu ikki fan birlashtirilib yagona “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi joriy etildi. Ushbu fan joriy etilishining o‘zi ham bugungi kunda yurtimizda ta’lim

sohasidagi bo‘layotgan o‘zgarishlarning bir turidir. Yangi darslik asosan axborot texnologiyalari asosida darsni o‘tishga mo‘ljallangan. Yangi darslikda rang-barang tasvirlar, qiziqarli topshiriqlarga e’tibor qaratilgan. Yangi darslikda o‘quvvchilar ning tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Shunday ekan ushbu topshiriqlarni bajarish uchun albatta o‘quvvach dars davomida axborot texnologiyalari dan foydalanishi zarur. Boshlang‘ich sinflarning “ona tili va o‘qish savodxonligi” fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratilgan va bular sirasiga o‘quv adabiyotlarining yangi avlodlari: elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron darsliklar, qisqa interaktiv o‘quv dasturlari, audio qo‘llanmalar, multimediali darslarni kiritib o‘tish mumkin. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvvchilarga topshiriqlarda audiomatnni tinglab tushunishlari va shu asosida topshiriqlarni bajarishlari yuzasidan topshiriqlar qo‘yilgan. Ushbu darslik xalqaro baholash tizimlariga mos ravishda tuzilgan bo‘lib, darslikdan asosiy maqsad o‘quvvchilar o‘z fikrlarini tinglab va o‘qib tushunishlari, fikrni bayon eta olishlariga erishish hisoblanadi. Ushbu darslik bilan bir qatorda o‘quvvach kitobi, o‘quvvchilar mashq daftari va fan multimedia ilovalari ishlab chiqilgan. Asosan darslikda audiomatnlar uchraydi. O‘quvvchilar ushbu matnlar orqali tinglab tushunishlari lozim bo‘ladi. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida keltirilgan mashqlardan misollar keltiramiz.

“Maktabim – ikkinchi uyim” bo‘limida “Maktab” audiomatnni tinglang topshirig‘i berilgan va quyidagi savollar qo‘yilgan:

1. Maktabda qanday bilimlar o‘rgatiladi?
2. Maktabda olinadigan bilimlar nima uchun kerak?
3. Maktabda o‘qish majburiy ekani qaysi hujjatda yozib qo‘yilgan?
4. Qadimda maktablar qanday nomlangan?
5. Tarixda ta’limning maktabdan keyingi bosqichi nima deb ataladi?
6. Zamonaviy ko‘rinishdagi ilk maktablarni kimlar ochgan?

7. Hozir yurtimizda qancha maktab bor? [3]

Ushbu berilgan savollarga o‘quvvchilar berilgan audiomatnni tinglab tushunib javob berishlari lozim hisoblanadi. Bunda o‘quvvuchi matnni o‘quvvchilarga eshittirishda axborot texnologiyasidan foydalanadi. Bundan tashqari darslikni ishlab chiqishda asosan rangli tasvirlardan foydalanilgan. O‘quvvchilar berilgan tasvirga qarab o‘z fikrlarini bayon etadilar va mustaqil ravishda matn tuzadilar. Bunday mashqlarni bajarishda darslikda berilgan tasvirmi monitorda ko‘rsatilsa o‘quvvchilarining tushunishlari osonlashadi va tasvirlangan jarayon yanada aniq ko‘rinadi.

Dars davomida o‘quvvuchi o‘quvvchilarga bilim berishda didaktik o‘yinlardan foydalanishi ham mumkin bo‘ladi. O‘yinni tashkil etishda ham monitordan foydalanadi. “Davom ettir” didaktik o‘yini ona tili darslarida keng qo‘llaniladigan o‘yinlardan biri hisoblanadi. Monitorda o‘quvvchilar biror matn yuzasidan berilgan gaplarning boshlanishini o‘qiydilar, keyin jumlalarni o‘zlarini oxiriga yetkazadilar. Masalan:

1. Olma ye gohi-
2. Turli osh ko‘kat-
3. Bil, oddiy tuxum-
4. Ichmoqliknii sut-

Ushbu mashq darslikda berilgan bo‘lib, monitor yordamida yanada o‘quvchilarga tushunarli bo‘ladi. Ushbu mashqlarda multimediatdan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- ona tili darslarida ko‘rgazmalilik eng asosiy o‘rindan birini egallaydi;
- berilgan topshiriq o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydi;
- o‘quvchi dars davomida bir vaqtning o‘zida ham ko‘radi, ham eshitadi, ham tushunib oladi;
- o‘quvchilarga kengroq qamrovdagagi va kattaroq hajmdagi materiallar yetkazib beriladi;
- mashg‘ulot davomida o‘quvchilar bilimi kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, tinglab tushuna olish, zamonaviy texnika yordamida erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qiladi va rivojlantiradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars tashkil etilsa, o‘quvchilar mavzu yuzasidan ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladilar. «Ona tili va o‘qish savodxonligi» darsligini axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish hozirgi zamon talablariga to‘la mos keldi. Xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham keltirib o‘tilgan [4], ya’ni axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim tizimiga to‘liq kiritish jarayoni 2030 yilgacha davom etadi.

### Adabiyotlar

1. “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851. 06.10.2020
2. Siddiqova Sh. “Izlanish samaradorligi” mavzusidagi respublika yosh tilshunoslar va adabiyotshunoslarning ilmiy-nazariy anjumani. “O‘zga gap va matn intertekstsualligi” mavzusidagi maqola. B-62
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslik. Toshkent. Respublika ta’lim markazi. 2021
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712. 29.04.2019

## KOXLEAR IMPLANTATSIYA - TEXNOLOGIYA, TIBBIYOT, SURDOPEDAGOGIKA VA LOGOPEDIYANING RIVOJLANISHIDAGI INNOVATSIYA

X.S. Raximova, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, “Maxsus pedagogika” kafedrasи dotsenti v.b., PhD

В данной статье описывается роль кохлеарной имплантации в развитии медицины и специальной педагогики, цель и задачи кохлеарной имплантации.

**Ключевые слова и понятия:** инновации, технология, медицина, сурдопедагогика, технология, медицина, сурдопедагогика, реверберационное состояние, диагностическое, компенсаторное, адаптивное.

This article describes the role of cochlear implantation in the development of medicine and special education, the purpose and objectives of cochlear implantation.

**Keywords and concepts:** innovations, technology, medicine, deaf pedagogy, technology, medicine, deaf pedagogy, reverberation state, diagnostic, compensatory, adaptive.

Hozirgi kunda qator mamlakatlarda istiqomat qiluvchi ko‘pgina eshitishda muammosi bor insonlar eshitishni koxlear implantant yordamida tiklab borishlari tobora keng tarqalib bormoqda. Hozirgi davrda eshitishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalar va kattalarning eshitish sezgilarini yaxshilash uchun turli eshitish apparatlaridan foydalanilmoqda. Biroq hamma apparatlar ham foydalanish jarayonida nutqning aynan eshitish sezgilariga ta’sirini yaxshilay oladi, deya olmaymiz.

Ayrim eshitish apparatlari turli texnik, fiziologik va patofiziologik sabablari bilan eshita olmaydigan kishilarning eshitishiga qisman, ayrimlariga esa umuman ta’sir qilmaydi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta’lim tarbiyasiga oid nazarli ma’lumotlarning tahlili asosida quyidagi xulosalarni shakllantirildi:

kar va zaif eshituvchi bolalarning ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda to‘g‘ri tashxisning ahamiyati kattadir;

eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda eshitish qoldig‘idan foydalanishga ustuvorlik berish zarur. Bu jarayonda eshitish sezgisiga ta’sirning turli vositala-

rini bolaning fiziologik va psixiologik hususiyatlarini inobatga olgan holda tanlash muhimdir;

kar va zaif eshituvchi bolalarda so‘zlashuv nutqini rivojlantirishning eng optimal yo‘li sifatida nutqning og‘zaki, yozma daktil va imo ishora shaklidan o‘rinli foydalanish talab etiladi;

kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ishlashda ilk davrdan boshlab, ham eshitish, ham nutq ustida ishlashni parallel olib borish lozim;

kar va zaif eshituvchi bolalarning eshitish idroki va nutqini rivojlantirishda ovoz kuchaytirib beruvchi apparatlarning shu jumladan eshitishni tiklashga mo‘ljallangan koxlear implantning imkoniyatlari kattadir.

Oxirgi o‘n besh yillik davr mobaynida surdotexnika va surdopedagogika fanlarining rivojlanishi hamda innovatsion texnologiyalarning amaliyotda qo‘llanilishi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun yangi – ko‘p kanalli koxlear implantatsiya yordamida eshitishni tiklash vositasidan foydalanishga ehtiyojni kuchaytirdi. Koxlear implantatsiya quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- shovqin sharoitida nutqning tushunarligini 10-12%ga oshirish;
- fazoda tovush manbaining lokalizatsiyasini yaxshilash;
- reverberatsiya sharoitida, bir necha so‘zlashuvchilar bilan suhbatlashishda nutqning tushunarligini orttirish;
- turli tovushlarni ajratishga va gapirishga o‘rgatish, lug‘at boyligini oshirish.

Koxlear implantatsiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolaning rovojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish.
2. Eshitish sezgisini tiklash.
3. Eshitish idrokini rivojlantirish hisobiga nutqni rivojlantirish.
4. Sog‘lom insonlar orasida uyg‘unlashish imkonini ta‘minlash.

Koxlear implantatsiya – deganda, ichki quloqqa eshitish nervining afferent tolalarini bevosita elektrostimulyasiya qilish yo‘li bilan eshitish sezgisini tiklash maqsadida elektrodlar tizimini joylash tushuniladi.

E.V. Mironovaning ta‘kidlashicha: «Past eshituvchi kishining o‘rta qulog‘ini operatsiya nutqni rivojlantiradi, shilliq o‘ramasiga ta‘minot blokiga ulangan elektrod tasodifan tegib ketadi va mijoz o‘zining qulog‘ini avvalgidan ko‘ra yaxshiroq eshityapti, deb his qiladi».

Sensonevral karlik ichki quloqning, ya’ni tolali to‘qimalarning zararlanishi bilan kechadi. Biroq sensor to‘qimalarning ko‘pgina qismi zararlanishiga qaramay, ko‘pgina bunday kasallarda eshitish nervining tolalari saqlangan bo‘ladi. Bu tolalar elektr toki bilan bevosita harakatga keltirilganda miyaga eshitish sezgilarini paydo bo‘lishini ta‘minlovchi signal berishi mumkin. Aynan shu jarayonga koxlear implantatsiya prinsipi asoslangan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida sun‘iy ichki quloq demakdir.

Bugungi kunda total karlik va sensonevral eshitmaslikning yuqori darajasidagi kishilar uchun koxlear implantant eshitish protezining real vositasi bo‘lib bormoqda. Eng ko‘p tarqalgan koxlear implantant sistemalaridan biri bu - «Cochlear» firmasi tomonidan tarqatilayotgan 22 kanalli «Nucleus» koxlear implantanti hisoblanadi.

Turli kishilarda eshitish nervining elektr stimulyasiya si natijasida turlicha (his) sezgilar bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, bir kishida turli kanallarni stimulyasiya qilishda yoki bir kanalni turli kishilarda stimulyasiya qilishda stimulyasiya qiluvchi tokning turlicha kuchlaridan foydalanish zarur. Bundan tashqari, aynan bir kishining turli kanallarning stimulyasiya qilinishida ovozning turli tonlarini individual ajratish qobiliyatini mavjud. Shu maqsadda nutq protsessorida nozik sozlama ko‘zda tutilgan bo‘lib, mijozning elektr stimulni qabul qilishiga qarab individual holatda sozlanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan koxlear implant moslamasining fizik-texnik imkoniyatlari orqali eshitish sezgisini tiklash insonga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

- me‘yoriy eshitishga nisbatan 40 dB gacha bo‘lgan eshitish sezgisi tiklanadi;
- atrofda uchraydigan kundalik nonutqiy tovushlarni eshitib farqlash darajasi oshadi;
- nutqiy tovushlarni eshitish orqali insonning eshituvchilar olamiga samarali kirib borishi ta‘minlanadi;

- koxlear implantli bolalar va kattalar eshitish evaziga suhbatdoshining nutqini tushuna boshlaydilar.

Tovush o‘tkazish natijasida eshitishni yo‘qtish yoki eshitish qobiliyatining qisman zararlanishi individual eshitish apparatlari yordamida kompensatsiya qilinishi mumkin.

Amaliyotda munozarali savollar ko‘p uchrashi kuzatildi ya’ni, ovoz kuchaytiruvchi apparat yaxshimi? yoki Koxlear implantatsiyami? ushbu savolning amaliy yechimi sifatida quyidagi tibbiy, pedagogik, surdotexnik xulosalarimizni sanab o‘tamiz:

1. Ko‘p kanalli implantant eshitishning chastotali selektivligini, ya’ni akustik signaldagagi bir vaqtida mavjud bo‘lgan chastotalarini ajrata olish qobiliyatini tiklashi mumkin. Eshitish apparatlari eshitishning chastotali selektivligini princip jihatidan tiklay olmaydi.

2. Implantni qo‘llash akustik qayta aloqaga yo‘l qo‘ymaydi (ko‘pincha ovoz kuchaytiruvchi apparat bilan eshitganda xonaning tovush qaytaruvchi ta’siri insonga salbiy ta’sir ko‘rsatadi). Shunga muvofiq so‘zlashuv nutqidagi o‘ta past tovushlarni sezish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan Koxlear implantatsiyaning qulayliklaridan tashqari ayrim kamchiliklari ham mavjuddir:

1. Koxlear implantatsiyadan so‘ng nutqni eshitish sezgilarining yaxshilanish natijalarining variativligi (turli tumanligi). Shu kunga qadar implantatsiya qilinganlarning nutqni sezishlarini proqnoz qilish uchun bir qator omillar aniqlanishiga qaramay, buning aniq proqnozi keltirilgani yo‘q.

2. Implantdan foydalanuvchi kishilarda jamlangan tovushlarni sezishda qiyinchilik tug‘iladi, masalan musiqiy tovushlar. Bundan tashqari, mikrofon ma’lum masofadagi tovushlarni qabul qilishi mumkin, lekin katta masofalardan turib eshitish imkoniyati mavjud emas. Hozirgi kundagi elektron texnologiyalarning taraqqiy etishi bu kamchilikni bararaf etishi ham mumkin.

Koxlear implantatsiyani qo‘llashga dastlabki ko‘rsatma sensonevral karlikning eng yuqori darajasi hisoblanaadi. Keyingi koxlear implantatsiya uchun tanlov me‘yori – oddiy eshitish apparati bilan eshitishni protezlash samadorligiga e’tibor qaratiladi. Agar inson oddiy eshitish apparatidan foydalanib 30-40% so‘zлarni anglab olatyotgan bo‘lsa, koxlear implantantga tavsiya etish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Agar kasalda javoblar 5% dan kam bo‘lmasa va qarshi ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmasa uni implantatsiya qilishga ishonch bilan tavsiya etish mumkin.

Jarrohlikdan so‘ng, bolada yuz berishi mumkin bo‘lgan asoratlarni pedagoglar va ota-onalar bilishlari lozim. Ular quyidagilar:

- jarohatning asoratlari holatlari;
- yuz nervining shikastlanishi;
- qulq orqasi sohasida sezishning yo‘qolishi va rigidlik;
- ta’m sezish va muvozanatning buzilishi;
- qulqodagi shovqinning sezilarli darajada ortishi;

Shuni aytish lozimki, koxlear implantning samara bermasligi kamdan kam hollarda kuzatilgan. Biroq, implantning nutqni anglashni sezilarli darajada yaxshilamasligi ehti-moldan holi emas. Elektr stimulyasiyaning davomiyligi haligacha aniqlanmagan.

Jarrohlikdan so‘ng birinchi yil bolada butun hayoti davomida zarur bo‘ladigan jismoniy va psixik xususiyatlarning

shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega davr hisoblanadi. Bu davrni tadqiqotchilar bolalarning eng tezkor rivojlanish davri deb hisoblaydilar.

Ma'lumki, me'yorda tug'ilgan va rivojlanayotgan bolaning go'daklik davrida sensor tizimlar, ya'ni ko'rish, eshitish, taktil sezgilar intensiv holda rivojlanadi. Bu davrning ijtimoiy vaziyati kattalar va bolalarning ajralmas holda birgalikdagi faoliyati bilan tavsiflanadi. Bunda kattalar ko'rav va eshituv sezgilarining qo'zg'atuvchisi sifatida bolaga ta'sir qiladilar. Go'daklik davri va ilk yosh davrlari bola rivojlanishidagi xavfli davr hisoblanadi, aynan shu davrda miya atrof-muhitdagi nutq tovushlari kabi stimullarni his etish va foydalanishiga yuqori darajada sezgir bo'ladi. Bu eshitish funksiyasi shuni anglatadiki, tovushlar miyaning rivojlanish bosqichida nutqni imitatsiya qilish, nutq faolligi, qaytarma akustik aloqa va so'z, iboralarining ma'no mazmunini anglash uchun zarur bo'ladi. Fonemalarining differensiatsiyalashgan eshitish tuyg'usi ularni to'g'ri talaffuz etilishidagi zarur shart-sharoiti sifatida xizmat qiladi.

5 – 6 yoshi bola o'z talaffuzini rivojlantira borib, nutq rivojlanishining barcha tomonlarini to'laligicha egallab olishga qodir. Ya'ni, so'zning fonetik, ritmik tuzilishi, iboralarini ohanglar bilan variativ bezash, turli xil kommunikativ maqsadlar asosidagi ifodalni nutqni to'liq egallah, keyingi kattaroq yosh davrlarida emotsiyonal holatlarning nozik tomonlarini ham o'rganib oladilar.

Ilk nutqiy harakatlarning paydo bo'lishi uchun miya po'stloqlarining ishlashi bilan paydo bo'luvchi ma'lum bir kognitiv zahira mavjud bo'lishi kerak. Ona ovozini va boshqa tovushlarni eshitganda mo'ljal olishning paydo bo'lishi, so'zlochingning yuzini ko'rishi, yorqin rangdagi o'yincholarga qiziqib qarashi va boshqalar bolaning umumiy rivojlanishi uchun muhim omillardan hisoblanadi. 1,5 oylik bolada muloqotning birinchi noverbal reaksiyalari paydo bo'ladi: onaning yuzini ko'rishi bilan va ovozini eshitishi bilan jilmayish kabi. 3 oylik davrga kelib, bolaning kulgusi ota-onalar kulgisi bilan sinxronlashadi.

Vizual muloqot, emotsiyonal o'zaro ta'siri eshitish, eshitish diqqatini jalb etish va ushlab turish, eshitish segisi va nutq sezgisini belgilab beruvchi verbal muloqotni aniqlab beradi. ye.N.Vinarskayaning ta'kidlashicha: «Bola hayotining 9-10- oyiga kelib, unda kattalar nutqini tushunish shakllanadi, 18-20- oylikda bo'g'inlab ayta oladigan oddiy so'zlarni anglaydi».

Kar bolalarda eshitishning buzilishi psixik rivojlanishning sensor tomonini kamaytiradi. Bundan tashqari hissiy sohadagi, fazoviy tasavvurlar, predmetli-amaliy faoliyatdagi ikkilamchi buzilishlar paydo bo'ladi. Ilk yosh davrlarida eshitishni yo'qtongan bolalar ona tilini mustaqil egallah imkoniga ega bo'lmaydilar. Sog'lom bolalarda esa bu imkoniyat taqlid darajasida mavjud bo'ladi.

E.V. Mironovaning fikricha: "Normal eshituvchi bolada qandaydir sabablar bilan eshitishning buzilishi atrof-dagilarning unga qaratilgan nutqini qabul qilish imkoniyatinigina emas, balki uning shaxsiy nutqi sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bular: intonatsiya qashshoqlashadi, so'zlarni talaffuz qilish tempi o'zgaradi, lug'at qisqaradi, tovushlarni talaffuz qilishda nuqson – ularni oxirigacha talaffuz qilmaslik, tushurib qoldirish kabilalar hosil bo'ladi. Natijada og'zaki kommunikatsiya ikki tomonlama buziladi".

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlar eshitishida og'ir patologiyalar mayjud bo'lgan bolalar eshitish apparatlaridan foydlanganlarida past chastotali tovushlarni yaxshiroq eshitadilar, deb hisoblaydilar. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, implantatsiya qilingan bolalar nutq protsessorining 1-marotaba ulanishi bilanoq tovushlarning keng spektorini, shuningdek, yuqori chastotali tovushlarni qabul qila boshlaydilar. Shu tarzda biz aminmizki, nutqni egallashning boshqa imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Koxlear implant orqali uzatiladigan akustik va nutq signallari tabiiy tovushlardan farq qiladi. Shunga qaramay barcha toifadagi mijozlar (tug'ma kar yoki orttirilgan karlik) da yangi tovush obraziga moslashish ma'lum muddatni o'z ichiga oladi.

Ilk yosh davrlarida koxlear implantatsiya qilingan bolalar kompleks ko'mak berilganida shaxsiy eshitish-nutqiy malakalarini rivojlantirishlari, bunda me'yorda eshituvchi tengdoshlariga yaqinlashtirilgan holda, yuqori darajadagi psixofizik rivojlanish darajasiga ega bo'lishlari kuzatiladi.

O'zbekistonda koxlear implantatsiya amaliyotining ilk davrida mutahassislarining bolalar bilan yakka tarzda ishlashi ustuvorlik qilgan. Ya'ni, mutaxassislar koxlear implantantli bola bilan jarrohlikkacha va jarrohlikdan keyin maqsadli mashg'ulotlar olib borganlar. Dastlabki davrda pedagoglarning mashg'ulotlar mazmunini nonutqiy va nutqiy tovushlarni eshitib farqlashga o'rgatuvchi topshiriqlar asosida ishlab chiqdilar. So'ngra respublika miqyosida Toshkent RIPIAT markazida ilmiy – amaliy seminar tashkil etilishi natijasida mashg'ulotlar mazmunini yaratishning yaxlit pedagogik tizimi amaliyotga joriy etildi. Ushbu tizim mazmuni quyidagi yo'nالishlarni o'z ichiga oladi.

1. Nonutqiy tovushlarni eshitib, farqlashga o'rgatish.
2. Nutqiy tovushlarni eshitib, farqlashga o'rgatish.
3. Jumla va matnlarni eshitib, farqlashga o'rgatish.

Koxlear implantli bolalar bilan pedagogik ishslash bo'yicha rossiya amaliyoti yetakchilik qiladi. Rossiyalik olim O. Zontova koxlear implantli bolalar bilan ishslashning bir qator metodikalarini amaliyotga joriy etgan. Ushbu metodikalarining o'ziga xosligi shundaki, koxlear implantli bolalar nutqiy muhitda o'ziga qulay bo'lgan muloqot turini tanlashga imkoniyat beriladi. Xususan, bu yondashuv nutq shakllanib bo'lgandan so'ng yoki maxsus ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan davrda koxlear implantant o'rnatilgan bolalarga nisbatan qo'llanilgan.

Sanab o'tilgan tadqiqotlarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni koxlear implantatsiyaga tayyorlash, jarrohlikkacha va undan keyingi surdopedagogik ta'sirning metodik tomonlari, o'ziga xos ta'lim shakllari hamda maxsus didaktik vositalarning qo'llanilishi yuzasidan metodik tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan. Ma'lumki, koxlear implantli bolalar intellektual rivojlanishda sog'lom bolalar kabi imkoniyatlarga egadirlar. Shuning uchun yevropaning yetakchi davlatlari, xususan Rossiya amaliyotida samarali qo'llanilayotgan koxlear implantli bolalarning umumta'lim jarayonida ta'lim olishi maqsadga muvofiqligi yuzasidan qarashlar

O'zbekistonda ham asos sifatida hisoblanilmoqda. Ya'ni, koxlear implantli bolalar umumta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda maktablarga jalb etilishi talabi ustuvorlik qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. И.И. Королёва Кохлеар имплантация глухих детей и взрослых М Санкт –Петербург 2012
2. X.S.Raximova, Koxlear implantli bolalar bilan logopedik ish (o‘quv qo‘llanma). F.: 2021
3. X.S.Raximova. Koxlear implantli bolalarning eshituvnutqiy reabilitatsiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa

doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertsiya:— T.:TDPU, 2022. 145 b.

4. Yuldashevna, Ayupova Mukarramxon, and Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. “Correction-pedagogical work system of preparation of children for independent activity after cochlear implantation.” archive of Conferences. Vol. 10. No. 1. 2020.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV RIVOJLANISH MUAMMOSI**

**G.S.Alixodjayeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi**

В данной статье представлены размышления о проблеме познавательного развития детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова и понятия:** познавательное развитие, дошкольный период, познавательный процесс, мировоззрение, развитие, чувства, потребность, ролевая игра.

This article presents reflections on the problem of cognitive development of preschool children.

**Key words and concepts:** cognitive development, preschool period, cognitive process, worldview, development, feelings, need, role-playing game.

Har qanday inson dunyoni bilishning doimiy jarayonida:dir: u boshqa odamlarning nutqini tushunadi, aks ettiradi, gapiradi, o‘ylaydi va his qiladi, o‘z his-tuyg‘ularini baham ko‘radi. Bu qobiliyatlarning barchasi o‘z-o‘zidan emas, balki faol bilim faoliyatida rivojlantiriladi va takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi davr ham bu dunyoqarashning bilish va rivojlanish davridir. Bola ularni yetakchi faoliyatga aylanadigan rolli o‘yinda namoyish etadi. U o‘ynab, tengdoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Bu ham ijodkorlik davri. Bola nutqni o‘rganadi, tasavvurga ega bo‘ladi. Bu insonning dastlabki shakllanish davri, uning xatti-harakatlarining oqibatlarini hissiy oldindan sezishning paydo bo‘lishi, o‘zini o‘zi anglash, tajribalarni murakkablashtirish va xabardorlik, yangi his-tuyg‘ular va motivlar bilan boyitish, hissiy ehtiyojlar sohasi murakkablashadigan davrdir.

Kognitiv rivojlanish muammozi, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlar ko‘p yillar davomida psixologik va pedagogik tadqiqotlarda yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish hususiyatlarini o‘rganib, biz maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv rivojlanishidagi turli xil psixologik omillarning rolini aniqlashni, bu yoshda kognitiv rivojlanishning qanday umumiyy xususiyatlari rivojlanishini, har bir omil ta’siridan qanday kognitiv oqibatlarga olib kelishimi aniqlashimiz mumkin.

Maktabgacha yosh davrida kognitiv rivojlanish — bu atrof-muhit ta’siri ostida, shuningdek, maxsus tashkil etilgan o‘quv va tarbiya ta’siri va bolaning o‘z tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlash jarayonlarida yuz beradigan sifat va miqdoriy o‘zgarishlarning yig‘indisi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ning aqliy rivojlanishi bir qator ijtimoiy va biologik omillarga bog‘liqidir.

Kognitiv rivojlanish faoliyatda atrofdagi olamni bilib olishga intilish, bu ham kognitiv ehtiyoj, ham shu bilan o‘zg‘aladigan bilim faoliyatidir, aqliy tarbiyaning alohida vazifasi — boshlang‘ich bilimlar tizimi va hayotiy hodisalari aqliy rivojlanish sharti sifatida amalga oshiriladi.

Kognitiv psixologiya butun hissiy jarayonlarni, hissiyotlardan idrok etish, naqshni aniqlash, diqqat-e’tibor, o‘rganish, xotira, konsepsiyalarni shakllanishigacha bo‘lgan oraliqlarni qamrab oladi. Fikrlash, tasavvur qilish, yodlash, til, hissiyotlar va rivojlanish jarayonlarini hamda xulq-atvorning barcha turlarini qamrab oladi.

Kognitiv psixologiya – bu bilish jarayoni va ong faoliyatiga yo‘naltirilgan psixologik tushuncha. Kognitiv psixologiya — kognitiv jarayonlarni o‘rganadigan zamonaviy psixologiya fanining bir tarmog‘i. Bolalar intellektini rivojlanirish haqidagi mavzularni tanlash va kuzatish jarayonida bolalarni atrof-olamga bo‘lgan qiziqishlari ortib boradi.

Kognitiv jarayonlar — inson atrofidagi dunyoni, o‘zi va boshqa odamlarni o‘rganadigan aqliy jarayonlar. Bunday jarayonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sezgi, idrok, e’tibor, xotira, fikrlash va tasavvur. Kognitiv faoliyatning natijasi, bilish qanday shaklda amalga oshirilganligidan qat’iy nazar (fikrlash yoki idrok etish orqali) olingan bilimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv rivojlanish faoliyati atrofdagi olam hodisalari to‘g‘risida bilim olishga intilish, bu ham kognitiv ehtiyoj, ham shu bilan o‘zg‘aladigan bilim faoliyati bo‘lib, bolalarni rivojlanishida uchraydigan muammolarni bartaraf etadi. Kognitiv faoliyat aniq tashqi ko‘rinishga ega bo‘lib, unga asoslanib, uni tashkil etish mohiyatini baholash mumkin. Unga ko‘ra bolaning qiziqishi nimada, uning ba‘zi bir hodisalar bilan tanishish intilishlarining intensivligi nimadalgini quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash mumkin:

- Mavzularga e’tibor va alohida qiziqish;
- Obyektlarga hissiy munosabat (ajablanish, sarosimaga tushish, makkorlik, ya’ni ushbu obyekt sabab bo‘lgan turli xil his-tuyg‘ular);

- Obyektni tanib olishga, uning funksional maqsadini tushunishga qaratilgan harakatlar.

Ushbu harakatlarning umumiyy soni so‘rovning intensivligidan dalolat beradi. Ammo harakatlarning sifati ayniqsa muhimdir, birinchi navbatda ularning xilma-xilligi va ayrim

turlarini boshqalari bilan almashtirishi, bola bu mavzu haqida o'ylashi, fikrashi ijod qilishi kerak bo'ladi.

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemini shakllantirish. Bola tevarak atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

2. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lмаган belgilarni ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdag'i bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O'simlik va hayvonlar bilan tanishish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar o'simlik, yosh hayvonlar to'g'risidagi ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladi. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma, malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin. Bular quydigilar:

#### «Sen ta'rifla, men topaman»

**Didaktik vazifa** – Kattalarning savollariga narsaning xarakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish.

**O'yin harakati** – Kattalarga topishmoqni aytish.

**O'yin qoidasi** – Ta'riflanayotgan narsaning nomini aytish mumkin emas.

Tarbiyachining savollariga aniq va to'g'ri javob berish.

**Jixozlash** – Sabzavot va mevalar stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi stulini o'simliklar ko'rinnmaydigan qilib qo'yiladi.

**O'yining borishi** – Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang, Men sizdan uning qandayligini so'rayman, Siz javob berasiz, faqat uning nomini aytmang, Sizlarning javoblariningizdan men uni topishga harakat qilaman, deydi. Keyin tartib bilan tarbiyachi savol beradi: "Shakli qanday?, hamma tomoni shardek dumaloqmi?, chuqurchasi bormi?, rangi qanday?" va boshqa.

Bolalar savollarga to'la javob berishadi. Bolalar narsaning xarakterli belgilari haqida gapirib bergenlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi.

O'yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mehnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrofdagi olamning turli-tumanligini, chiroyini ko'rsatadi, o'simlikning turli xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o'simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning aqliy tarbiyasi o'yinda, kattalar tomonidan maxsus yaratilgan, ochiq, didaktik o'yinlarda, turli xil bilimlar, aqliy operatsiyalar, bolalar egallashi kerak bo'lган aqliy harakatlar asosida amalga oshiriladi. Ijodiy o'yinlar tabiatda aks etadi: ularda bolalar atrofdagi hayot haqidagi taassurotlarini, ilgari olgan bilimlarini aks ettiradilar.

Bolalarni qiziqishni rivojlantirishni boshlash uchun bo'yitilan fan-fazoviy muhitni yaratish; bolalar uchun kognitiv qidiruvni tashkil etish; ijodiy vazifalarni amalga oshirishda

ishtirot etish; turli tadbirlarni birlashtirish; bolalarda bo'lajak faoliyatga psixologik munosabatni shakllantirish; muammo li qidiruv holatini yaratish; o'yin-kulgilarni tarkibga kiritish; bolaning hodisalarga, narsalarga va faoliyatga ijobjiy hissiy munosabati namoyon bo'lishini rag'batlantirish, qiziqishni shakllantirishning har bir bosqichida yetarli vosita va usulardan foydalanish.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida o'z qadr-qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar bog'chaga kelganda dastavval o'z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka harakat qiladilar. Keyinchalik turli o'yin va majburiy mashg'ulotlar davomida bolalar jamoasiga qo'shilib, o'z tengqurlarining hurmatini qozonishga harakat qiladilar, ya'ni boshqa bolalarga har tomonlama yaxshi ko'rinishga intiladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar xatti-harakatlari motivlarning rivojlanishida axloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Bolalar o'z xatti-harakatlarini anglaganlari sayin axloqiy motivlarning, ya'ni ijtimoiy axloqiy qoidalarga rioxha qilish motivlarning o'rni kuchayib boradi. Bolalar endi o'zlarining egoistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan harakat qilishga o'rgana boshlaydilar. Masalan, bolalar o'zlariga eng yoqadigan o'yinchoqlarini boshqa bolalarga beradigan va hattoki o'zlarining uyidan olib kelgan shirinliklarini ham bo'lib beradigan bo'ladi. Shu tariqa bolalarda ijtimoiy motivlar rivojlanma boshlaydi. Katta yoshdag'i bog'cha bolalari har doim kichik yoshdag'i bolalarga yordam berishga, ya'ni ijtimoiy motivlar asosida harakat qilishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdag'i bolalar xatti-harakatlari motivlarning rivojlanishida axloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Bu yoshdag'i bolalarda ijtimoiy axloqiy qoidalarga rioxha qilish motivlari katta o'rni tutadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ana shunday motivlar bilan birga o'z-o'zini anglash, o'zining xatti-harakatlariga baho berish ham tarkib topa boshlaydi. Masalan, "Uch ayiq", "Uycha", "Aka-uka bahodirlar" kabi hikoyalarni ifodalni qilib o'qib berish yoki inssenirovka qilish orqali bolalarda o'z-o'zini anglash va o'z xatti-harakatlariga baho berish tarbiyalab boriladi.

Bolalarning bilimlarni egallab olishlari ularning aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning mактабда muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o'rni katta. Bilimlar zahirasini kengaytirish, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, mактабда yaxshi o'qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir.

Bola 6-7 yoshdan maktabga o'tishi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun kognitiv rivojlanishi yetarli bo'lishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilim tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shaqlanadi, bilish jarayonlari takomilla shadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda kognitiv rivojlanish faoliyati dastlab muomala orqali, so'ng rivojlanish markazlarida bilim berish orqali amalga oshiriladi.

Kognitiv rivojlanish muammosi, maktabgacha yoshdag'i bolalarning bilish faolligini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan shart -sharoitlar ko'p yillard davomida psixologik va pedagogik tadqiqotlarda yetakchi o'rnlardan birini egallab kelgan.

## Adabiyotlar

1. Ж.Андерсон. Когнитивная психология. СПБ.: Питер, 2002.
2. Б.М.Величковский «Когнитивная наука. Основы психологии познания». В 2 томах. М.: ИЦ «Академия», 2006
3. M.Eysenck., M.Keane. Cognitive Psychology: A Student's Handbook.
5. V.M.Karimova. «Socialpsychology». – Textbook. – T.: "Science and Technology" Publishing House (2012).
6. О.Э.Хайтов., Н.Х.Лутфуллаева. «Психоdiagностика и прикладная психология: Конспект лекций.» -Т.: ТДИУ (2005).
7. D.R.Babayeva "Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyasi".-T.: "Ilm ziyo zakovat". 2022.

## MAKTABLARDA TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISH-TA'LIM, FAN VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINING BIRLAMCHI BO'G'INI SIFATIDA

I.T.Mexmonov, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, O'quv jarayonini tashkil qilish bo'limi boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi

В статье представлены организационные особенности обучения предмета технологии в школе, интеграция образования и производства в профориентации учащихся, современные формы профориентации, современное состояние и перспективы.

**Ключевые слова и понятия:** наука, образование и бизнес, инновации, цифровой Узбекистан, драйвер, информационно-коммуникационные технологии, компетенция, инвестиции, интеллектуальная собственность, производственные предприятия, современная техника и технологии, малые технологии.

The article presents the organizational features of teaching the subject of technology at school, the integration of education and production in the career guidance of students, modern forms of career guidance, the current state and prospects.

**Key words and concepts:** science, education and business, innovations, digital Uzbekistan, driver, information and communication technologies, competence, investments, intellectual property, manufacturing enterprises, modern equipment and technologies, small technologies.

Hozirgi kunda yangiliklar, yuqori texnika-teknologik innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o'zgarmoqda. Kundalik hayotda ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'larning integrativ yondashuvi STEAM ta'limi joriy etilmoxda. Bunday yondashuvdan maqsad — ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan.

Ilgari mehnat darslarida qizlar faqat fartuk tikishni, o'g'il bolalar yog'ochga va metallga ishlov berishni, tasviriy san'at va chizmachilik darslarida rasm va chizmalar, qalam bilan qo'lda chizishni o'rganishgan bo'lsa, hozirgi kunda buning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Bugungi kunda butun dunyo maktab o'quvchilarini robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, programmalashtirish, 3D-loyihalashtirish va boshqa ko'plab yangiliklar qiziqtirmoqda. Bunday qiziqishlarni amalda sinab ko'rish uchun yanada murakkabroq bilim, ko'nikma, malakalarni egallash va kompetensiyalarni shakllantirish zarur bo'ladi. Bu o'rinda nafaqat bilish va uddalay olish, balki tadqiqot olib borish va ixtiro qilish talab etiladi. STEAM ta'limi DTS asosida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulot-

lari va maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarib ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030 yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan birdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha harajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilashi mumkinligi asoslab berildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqish va joriy etish vaziflari

belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, zamnaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda sanoatlashgan mamlakatda ta’lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni o‘zgartirdi. Shu bilan birga katta mehnat migratsiyasi, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma qashshoqlik va ishsizlikning yuqori darajasi, infratuzilmaning eskirganligi, kadrlar kompetensiyalarining iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga nomuvofiqligi, intellektual mulkni himoya qilish muammolar, oliy ma‘lumot olish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, inson kapitali va imidjiga zarur miqdordagi investitsiyalarining sarflanmasligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, o‘rta bo‘g‘in rahbar va xodimlarining past darajadagi malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag‘batning yo‘qligi, ishchi va muhandis-texnik kasblar obro‘sining tushgani, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Rivojlangan mamlakatlar o‘z iqtisodiy doktrinalarida tashqi tahdidlarga qarshi kurashishga, rivojlanayotgan mamlakatlar esa ichki tahdidlarga qarshi kurashishga ko‘proq e’tibor berishadi. O‘zbekiston uchun tashqi tahidlardan biri ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida ortda qolishdir. Tashqi va ichki tahidni bartaraf qilish, sanoat rivojlanishining 4.0 industriyasiga barqaror o‘tishning eng muhim omillaridan biri – bu umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishni yangi bosqichga ko‘tarishdir.

Eng yangi avlod texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini pasaytirishi, shuningdek, o‘sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkin. Xususan, sanoatda kutilayotgan yangi texnologik o‘zgarishlar sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarida ijodkorlik qobiliyati va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda maktabdan keyingi ta’lim bosqichi yoki mustaqil hayotga qadam qo‘yishda zarur bo‘ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Texnologiya fanini o‘zlashtirgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilari sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injiniring, ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik bazalarining yanada rivojlanishi, bir so‘z bilan aytganda, yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida “drayver” rolini bajaradi. Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Isroil, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida ham texnologiya fani umumiy ta’limning asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Xalq ta’limi vazirligi tizimida 11 yillik ta’lim joriy qilinishi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimining funksiyalari o‘zgarishi hisobiga texnologiya fanini o‘qitishning institutsional rivojlanishida ayrim bo‘shliq va kamchiliklar yuzaga kelgan, shu jumladan:

texnologiya fanining ilmiy metodik ta’mnoti (darslik, o‘quvvachchi kitobi, ish daftari, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emasligi;

texnologiya fanini o‘qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog‘liqlikning kamligi;

texnologiya fani me’yoriy hujjalarda baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi, darslik, ishchi daftari hamda o‘quvvachchi kitobi, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

texnologiya fani mazmuniha mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O‘zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo‘ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo‘lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o‘quvchilarda zamnaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktil kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi;

texnologiya fani moddiy-texnika bazasining eskirganligi, zamnaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlash bo‘yicha yetarli choralar ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganligi;

mavjud oliy ta’lim muassasalarida zamnaviy texnologiya fani yo‘nalishida o‘quvvachchi pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi texnologiya fanini o‘qitishni tubdan qayta ko‘rib chiqish va zammon talaliga mos ravishda yangilashni taqozo etishi;

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarini (laboratoriya) zamnaviy mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska, planshet va multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlashni ta’minlash, ularni o‘z vaqtida yangilab borish choralarini ko‘rish;

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarining (laboratoriya) jihozlanish darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv uskunalari (asbob-uskuna va moslamalar, zamnaviy stanoklar) bilan ta’minlash;

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarida (laboratoriya) o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar uchun kerakli xom ashyo materiallarni davlat byudjeti, homiy tashkilotlar va ta’lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davr talabi hamda o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda dolzarb kasblarning birlamchi asoslarini o‘rgatish uchun to‘garaklar, shu jumladan, robototexnika, dasturlash bo‘yicha yo‘nalishlari moddiy-texnik ta’mnotini mustahkamlash;

## Texnologiya

o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalarining (laboratoriya) moddiy-texnik ta’minoti va xom ashyo bazasidan oqilona foydalanish va asrab-avaylash;

uskunalaridan xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga riyoq qilgan holda foydalanish;

zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu bora-da pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirib borish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratish;

ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida indi-viduallashtirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari aso-sida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;

nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan (Edu Market interfaol-virtual ta’lim dasturi) hamda ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish;

masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga texnologiya fani bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmualarni, elektron ta’lim rusurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini ken-gaytirish;

ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida QR kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joy-lashtirish tizimini yaratish;

texnologiya fanining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish.

Texnologiya ta’limining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

O‘quvchilar tomonidan yaratilgan ijodiy loyiha ishlari natijalarini tijoratlashtirish ishlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byud-jetdan tashqari mablag‘lar hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akseleratorlarni tashkil etish hamda ularning faoliyat olib borishlarini ta’minlash;

startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori iqtidorli o‘quvchi-yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish;

iqtidorli o‘quvchi-yoshlarni aniqlash, chuqurlashtirilgan (variativ) ta’lim dasturlari asosida o‘qitish, «Ustoz-shogird» tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga biriktirish;

texnologiya fani bo‘yicha olimpiada tashkil etish va iqtidori o‘quvchilar ishtirokini oshirish;

innovatsion infratuzilmani rivojlanishirish hamda boshlang‘ich, o‘rtalik va o‘rtalik maxsus professional ta’lim tizimi bilan uzviyligini ta’minlash.

Texnologiya fanining umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

jadal rivojlanayotgan raqamli asrda innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun yangi bilimlarni o‘zlashtirish

va amalda qo‘llashning tobora ortib borayotgan ahamiyati milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va milliy xavfsizlik strategiyalarining samaradorligini belgilovchi omillardan kelib chiqqan holda integratsiyalash tizimini ishlab chiqish va yo‘nalishlarini belgilash;

globallashuv davrida mehnat bozori talablariga mos, nostandard masalalarni ijodkorlik yondoshuvni asosida yecha oladigan o‘quvchilarni tarbiyalash masalasini amalga oshirish uchun muayyan fikrlash modellari zarur, o‘quvchilarda bunday fikrlash modellarini shakllantirishda integratsiyalash funksiyalarini belgilash;

yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’limda innovatsiyalar, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o‘quvchilar ning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlanirishga yo‘naltirilgan integratsiyalash tendensiyalarini aniqlash;

texnologiya fanini rivojlanirish doirasida zamona-viy texnologik jihozlar, kasblar dunyosi bilan tanishish, o‘quvchi-yoshlarni turli ijtimoiy sohalarda mustaqil ravishda mehnat qiladigan yo‘nalishini topish, ularni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirishda integratsiyalash darajalari va amalga oshirish shakllarini ishlab chiqish.

Texnologik ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: Texnologiya fani ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini harakatlantiruvchi kuch, O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanchi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi globallashuv, ijtimoiy madaniy o‘zgarishlar transfor-matsiyasi kadrlar tayyorlashda sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, texnologiya fani maqomi va nufuzini oshirish, o‘quvchilar o‘rtasida ijodkorlik muhitini shakllantirish, «Iqtidorli o‘quvchi-yosh-larni aniqlash», umumiy o‘rtalik maktablari, tuman, viloyat, respublika miqyosida intellektual yetuk o‘quvchi-yoshlar selek-siyasini tashkil etish tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Respublika bo‘yicha umumiy o‘rtalik maktablari ba-zasida «Bolalar texnoparklari»ni tashkil etish.

Umumta’lim maktablarida fanlarni o‘qitish jarayonida fan-teknika taraqqiyoti, injeneriya, matematika va kundalik hayot bilan bog‘lab o‘rganishning STEAM (science, technology, engineering, art and mathematics) yondashuvni ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb masaladir. STEAM zamon tabablari asosida xalqaro miqyosda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda umumta’lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan umumiy reja. STEAM o‘ziga tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san’at, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini umum-lashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi.

STEAM -kundalik hayotning ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiylari bilan ta’limning integrativ yondashuvni taqozo etadi. Bunday yondashuvdan maqsad — ta’lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarning texnik ijodkorligini, qobiliyatini, tafakkurini rivojlanirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga

texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni”

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.

3. Miraliyeva D. Jahon ta'lim tizimi. O'quv uslubiy majmua. T.: Iqtisodiyot., 2016 y., 30-bet

4. Sh.E.Ne'matov, O'.O.Tohirov, G.Yadgarova, N.Tashbayev. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzviyligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari.

## NOGIRONLIGI BO'LGAN O'SMIR KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALARINI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH

G.M.Salixova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti, Surdopedagogika va inklyuziv ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, (PhD)

В данной статье представлены возможности организации специализированных реабилитационных мероприятий в семье для адаптации глухих и слабослышащих детей подросткового возраста к социальной среде.

**Ключевые слова и понятия:** адаптация, социальная среда, возможности, поддержка, глухие и слабослышащие, совместная деятельность, семья, школа.

This article presents the possibilities of organizing specialized rehabilitation measures in the family for the adaptation of deaf and hard of hearing adolescent children to the social environment.

**Key words and concepts:** adaptation, social environment, opportunities, support, deaf and hard of hearing, joint activities, family, school.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmonida belgilab berilgan 100 maqsadning 66-maqsadida nogironlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda uzviylikni ta'minlashga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bugungi kunda oilada nogironligi bo'lgan bolalarни ijtimoiy hayotga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda kar va zaif eshituvchi bolalarни ijtimoiy hayotga moslashtirishda muktab, oila va mahalla hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari alohida e'tibor qaratish ularni mustaqil hayotga tayyorlashda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bilan bog'liq ayrim muammolar ijobiy hal etiladi. Ularda atrof-muhitda bo'ladigan, mehnat munosabatlarida, oilaviy muloqotlarda, qiziqishlariga ko'ra ota-onalar kasblarini o'rganishda, bo'sh vaqtlarini tashkil etishda bo'ladigan muammolarni yechish, vaqtidan samarali foydalanish, axloq-odob qoidalariiga rioya qilish, ya'ni ijtimoiy hayotdagini o'rnini topishda hamkorlikdan foydalanish jarayoni rejali va muvaffaqiyatlari amalga oshiriladi. Shu bois mahalla fuqarolar yig'inlari mutasaddilar, o'qituvchi-tarbiyachilar, ota-onalar o'zlarining ta'lim- tarbiyaviy ishlarida zamон talablari, nogiron bolalarning talab va ehtiyojariga tayanmoqlari, ularni turli ijtimoiy-ma'naviy tadbirlarini bajarishga o'rgatib, ularga ishonch ruhini singdirib borishlari zarur.

Shuningdek, bu bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila, muktab va mahallaning hamkorligi mexanizmlari qo'yidagicha tizimda bo'lishi lozim. Jumladan, oila –

muktab - mahalla; ota-onalar o'qituvchi - mahalla mutasaddisi. Ushbu toifa bolalar ijtimoiylashtirish jarayonini oilada yosh va psixologik xususiyatlarga ko'ra avvalo ota-onalar, oiladagi katta yoshdagilar, keksa avloddan bosqichma-bosqich o'rganib boradi. Ya'ni, dastlab organizmni harakatlantirish uchun jismoni rivojlantirib borish, shaxsiy gigiena qonun-qoidalariiga rioya etish, ovqatlanish, muloqotda bo'lish, kiyinish, o'zini tutish madaniyatiga amal qilish, oilaviy kasb-hunar an'analarni egallab borish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi.

Oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila, muktab va mahallaning hamkorligi mexanizmlari samaradorligini ta'minlashda ularning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. ularning yoshi kattalashgan sari hayotga nisbatan ijtimoiy-huquqiy ongi bilan turmush tarzi o'rtasida uyg'unlik vujudga keladi, ma'naviy madaniyati, atrof-muhitga nisbatan xatti-harakati o'zgaradi va hayotga qiziqishi, muhabbbati oshib boradi. Shuning uchun ham, nogiron bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko'ra ularga beriladigan ijtimoiy hayot borasidagi ta'lim va tarbiyaning mazmuni ham takomillashib boradi. Ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning mustaqilligiga tayanib ish ko'rish ijobiy natija beradi. Masalan, turli yoshdagi, turliha psixologik xususiyatga ega, turli xil nogironligi bo'lgan bolalar uchun ijtimoiylashtirish shakli, metodi, vositalari bir xilda bo'lmashligi lozim chunki u ijobiy natija bermasligi mumkin. Ayrim oilada kar va zaif eshituvchi bolalar ijtimoiy hayotga moslashish jarayonida atrof muhitga nisba-

## Defektologik xizmat

tan oqilona munosabatda bo'lishi, ijtimoiy hayot qonun-qoidalariга rioya qilish fazilatini tezda bilib, unga amal qiladi, ikkinchisi esa unga amal qilmaydi, ayrimlari esa bu xildagi sifatlarni asta-sekinlik bilan qabul qiladilar. Demak, har bir kar va zaif eshituvchi bolalarni hayotiy qobiliyat, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi va boshqa ijtimoiy psixologik va pedagogik jihatlarini aniqlab, ijtimoiy hayotga moslashtirish ishlardida hisobga olish o'z samarasini beradi.

Yuqoridagilardan tashqari, oila, maktab va mahallaning hamkorligida kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning o'ziga xos bir qator xususiyatlari borki, ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonini tashkil etishda ularni e'tiborga olish ijobiy natija beradi. Jumladan, bizning nazarmizda, bosqichma-bosqichlik xususiyati, oila, maktab va mahallaning hamkorligida kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish juda tez va qisqa vaqt mobaynida ro'y bermaydi. Aksincha, ular ulg'ayib borgan sari ijtimoiy hayotga moslashish va atrof-muhit voqyea hodisalarining mohiyatini asta sekinlik bilan anglab boradi. Jamiyatning rivojlanishi, yoshining ulg'ayishi, hamkorlikning kuchayishi, tarbiyaviy ishlarning maqsadga yo'naltirilganligi, uzlaksizligi ular ongiga ham asta-sekinlik bilan ta'sir etib, ma'nан va jismonan rivojlanib borishiga olib keladi.

Nogiron o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda individual yondashish. Oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni oilada, mahallada yashayotgan yoki bir maktabda ta'limga olayotgan o'smirni ekologik-huquqiy ongi, madaniyati va ma'naviyati ham ikki xil bo'ladi. Shu sababli ular bilan olib boriladigan ta'limga tarbiyaviy ishlar ham individual tarzda olib borilmog'i va bunda ularning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor beriladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda jinsiy toifalashish asosida yondashish. Bu o'rinda qiz va o'g'il bolalarning o'ziga xos xususiyatlari (o'smirlik, o'spirinlik, balog'at davri) inobatga olinmog'i zarur.

Nogiron o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda amaliy xatti-harakat, mimika metodlarining kuchliligi. Chunki ushbu toifa o'smir bolalarni ular uchun ota-onasiga, katta yoshdagilar, o'qituvchilar, mahalla ahli namunasi, o'rgatiladigan ijtimoiy qoidalarning shakllanishida shaxsning tasviriy-amaaliy holati ko'proq ta'sir etadi.

Shunday qilib, kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda o'quvchilarga maktab, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlashda, ularni mustaqil hayotga qadam qo'yishida va kelajakdagi bu sohadagi ishlarni rivojlanirishda yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish ijobiy natija beradi.

Sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarda ham ijtimoiylashuv uchun zarur hayotiy ko'nikmalar, ijtimoiy malakalar taqozo etiladi. Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz davomida kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiylashtirish ishlarini rejalashtirishda maqsadli mo'ljal olish uchun qator sifatlarni ajratdik.

Ijtimoiy hayotga tayyor nogironligi bo'lgan bola qanday sifatlarga ega bo'ladi:

1. Ilmiy, falsafiy, diniy dunyoqarashga ega bo'lish. Insonning dunyoqarashga ega bo'lishi, uning aqliy jihatdan o'sishiga bog'liq. Bolalarning aqliy faoliyati avloddan-avlosga o'tib keluvchi tajribalarni, tabiat qonunlari hamda jamiyatdagi munosabatlar mazmunini o'zlashtirishi uchun qo'yilgan har bir qadami zamirida amalga oshadi. Shu jumladan bola

o'zini tabiatning bir bo'lagi, jamiyatning a'zosi ekanligini o'quv fanlarida keltirilgan, ilmiy isbotlangan, tajribalarda sinalgan o'quv materiallari orqali anglaydi. Sog'lom bolalardan farqli ravishda nogiron o'smir bolalar afsuski, faqatgina maxsus tashkil etilgan dars va mashg'ulotlar jarayonidagina bilim, ko'nikma va uquvlarga ega bo'lmoqdalar. Ular ta'lim jarayonidan tashqarida nazariy ma'lumotlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega emaslar.

Maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik jarayon hamda sog'lom bolalar ta'limga yaqinlashtirilgan yonda-shuvalr mazmuni nogironligi bo'lgan bolalarda ilmiy (o'quv fanlari mazmuni asosida), falsafiy (tabiat va jamiyat qonunlarini o'zlashtirish orqali), diniy (tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida) dunyoqarashni shakllantiradi. Ushbu mezon kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarning mahallalarda o'zini tutishi-da va atrofdagilar bilan muloqoti davomida namoyon etgan ko'rsatkichlari hisoblanadi.

2. Ma'naviy yetuk, axloqan pok bo'lish. Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalar shaxsining o'ziga xos xususiyatlari shuki, ularda axloqiy tasavvurlar, tushunchalar, ijtimoiy motivlar, o'zlariga tanqidiy qarashlar yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Chunki aksariyat bolalar oilalarida ta'limiyl va tarbiyaviy yondashuvlar yo'lga qo'yilmagan. Oilalarda nogiron o'smir bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai-nazari bilan qarash munosabati kuchli bo'ladi. Bunday munosabat nogiron o'smir bolalarni hayot jabhalaridan chetda qolishiga olib keladi. Natijada bolalarda sog'lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, mehnat qilish, turli faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalari rivojlanmay qoladi. Aynan mana shu jihat ham ota-onasiga uchun va ham pedagog uchun qiyinchilik tug'diradi. Ya'ni pedagog-tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni bolalarda kundalik hayot uchun zarur oddiy elementar axloq me'yorlarini shakllantirishdan boshlash taqozo etiladi. Shuning uchun ham nogiron o'smir bolalar umumiyl ta'limi muddati sog'lom bolalar umumiyl ta'limi muddatidan ko'p bo'ladi

Ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish nafaqat pedagoglar, balki psixolog, ota-onalar va bolalarning yaqinlari hamda hamkor tashkilotlar zimmasidagi vazifalardandir. Ya'ni, ta'limga muassasalarida tarbiyaviy ishlar maqsadli va psixologik yo'nalgan holda tashkil etilsa, bolalarda quyidagi sifatlarni shakllantirish imkoniyati keng bo'ladi:

♦ umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda urf-odatlarni hurmat qiladigan;

♦ axloqiy me'yorlarni anglagan va ularga rioya etadigan;

♦ Ona Vatanga sodiq, fidoyi, fuqarolik burchini his qiladigan.

3. Jismonan sog'lom bo'lish. Hozirgi kunda nogironligi bo'lgan, imkoniyati cheklangan bolalar har tomonlarga mustaqil hayotga tayyor bo'lishlarining muhim omillaridan biri – jismoniy jihatdan me'yorda rivojlanishdir. Ma'lumki, mazkur toifa bolalarning qator ikkilamchi yetishmovchiliklar kelib chiqadi. Bu jarayonda oilalarda yo'lga qo'yilgan ovqatlanish tartibi va ratsion holati alohida o'rinn egallaydi. Tajriba-sinov ishlari davomida oilalar bilan ishslash jarayonida bu masalaga ham e'tibor qaratildi.

4. Ruhan tetik, barkamol bo'lish. Nogironligi bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishida differensial va yakka yondashuvning ta'siri kattadir. Ma'lumki, oilada, mahallada, dars va tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi o'smir bolalar turli topshiriqlarni bajaradilar. Qachonki, o'quv va hayotiy, maishiy topshiriqlar bolalarning uquv-

lari hamda nutqiy rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib tayyorlansagina, ta'lim-tarbiya va ijtimoiylashtirish jarayoni mashq maydoniga aylanadi. Agar aksincha bo'lsa, bola jayondon zerikadi va hatto muloqotga kirishmaydi, o'qishdan soviydi.

Nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotga ruhan tayyor bo'lish mezonzlari talablariga, avvalo, ota-onalar, o'qituvchi va tarbiyachilar tayyor bo'lishlari muhimdir. Zero, ularning qanchalik psixologik bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari, shunchalik ta'lim jarayonining kar va zaif eshituvchi o'smir bolalar uchun qulay muhitga aylanishida muhim omildir.

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashishga yo'naltirilgan jarayon modelida ayniqsa, muhim yondashuvlarning o'rni alohida aks etgan. Xususan, yakka va differensial yondashuvlar, ularga erishish omillari hamda soha rivojiga hissa qo'shgan olimlarning ta'limotlariga asoslanishning muhimligi yaqqol namoyon qilingan. Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarning atrofdagilar bilan muloqot ko'nikmalarini quyidagi omillar ta'sirida shakllanishini kuzatdik. Bular quyidagilar:

- ◆ nogironlikning qaysi darajasiga taalluqliligi;
- ◆ oilalarda va ta'lim muassasalarda korreksiya ishlarining to'g'ri va vaqtida olib borilishi, o'qituvchi va tarbiyachilar ning kasbiy kompetentligi hamda ota-onalarning pedagogik savodxonligi;
- ◆ ota-onalarning farzandi bilan oilada maxsus shug'ullanishing ahvoli hamda maktab va oila hamkorligi.

Sanab o'tilgan omillarning barchasi kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarda nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki ijtimoiy ko'nikma va malakalar: o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini

namoyon qilish, yaqin va uzoq muddatga maqsad belgilash, qadriyatlarni aniqlash, vaziyatni tushunish va baholash, imidjiga ega bo'lish, axborot vositalari bilan ishlash, o'zgalarga ta'sir etish va jamiyatning turli boshqa munosabatlarida faol bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishda hamda ularning valeologik, huquqiy va iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda ham bevosita ta'sir qiluvchi ahamiyatga egadir.

### Adabiyotlar

1. Muminova L.R., Shomaxmudova R.Sh. Imkoniyati cheklangan bolalarmi individual korreksion-rivojlantirish dasturining metodik asoslari. – T.: “Razzoqov O.J. bosmaxonasi”, 2007. - 27 b..
2. Муминова Л.Р. Теоретические основы коррекционно-педагогической работы по преодолению речевого недоразвития у детей дошкольного возраста: автореф. дисс. пед. наук. - Т.: 1989. 42 с.
3. Muxsieva A. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari. - T.: 2005. - 25 b.
4. Методика преподавания русского языка в школе глухих. / Под ред. Л.М.Быковой. – М.: 2002. – 303 с.
5. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagiz zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish: ped. fan. nom. diss. – Т.: TDPU. 2009.
6. Настольная книга дефектолога. / Т.Б.Епифанцев. - Ростов на Дону: “Феникс”, 2006. -15, 26, 27, 112, 119, 120, 131 -б.
7. Нейман Л.В. Об остатках слуха у глухонемых школьников. - Известия. АПН РСФСР Вып. 62. 1994. –146 с.
8. Немов Р.С. Психологическое консультирование. - М.: “Владос”, 2001. -527 с.

## JANUBIY KOREYA TA'LIMI VA DAVLAT TILI XUSUSIDA

A.A.Nasirov, Ta'lim inspeksiyasi boshlig'i maslahatchisi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Pang Chu Man, Toshkentdagi Koreya ta'lim markazi direktori

В данной статье содержится информация о системе непрерывного образования Южной Кореи, общем среднем образовании, профессиональном образовании, особенностях систем высшего образования, секретах их успеха, интеграции образования, науки и производства, а во второй части - корейском языке и освещается его история, государственный язык в Южной Корее, внимание к его развитию, его обучению и специфическим аспектам.

**Ключевые слова и понятия:** образование, начальное образование, среднее образование, высшее образование, корейский язык, программа, письмо, хангыль, национальный язык, кхагвон, оценка

This article contains information about South Korea's continuing education system, general secondary education, professional education, specific features of higher education systems, the secrets of their success, the integration of education, science and industry, and in the second part, the Korean language and its history, the state language in South Korea attention to its development, its training and specific aspects are highlighted.

**Keywords and concepts:** education, primary education, secondary education, higher education, Korean language, program, writing, Hangul, national language, Khagwon, assessment

So'nggi yillarda Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lган asosiy vazifa - o'z madaniyatini saqlash, siyosi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy, Sharqning an'anaviy

qadriyatlari va oriyentirlari bilan bog'lashga intilish, deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan. Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari "inson resursiga investitsiyaning to'g'ri yo'naltirilganligida" deb ta'kidlanadi.

Janubiy Koreyada Konfutsiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati hozirgi kungacha bor. 1980-yillardan beri fan, ta'lim, ilmiy tadqiqotga e'tibor yuqori darajada. Ta'lim tizimida yana bitta butunjahon tamojili amalga oshiriladi: bu ta'lim va fan integratsiyasidir. Ushbu davlatda o'quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib bormoqda. Bunday birlashuv ilm va ta'lim integratsiyasining aniq asosi bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta'lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo'shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi. U yerda ta'lim raqobatbardosh, moliyaviy mablag'larni olib keluvchi soha ekaniqligi isbotlangan.

Janubiy Koreya **ta'lim tizimi** jadal rivojlanmoqda. Agar 20-asning o'rtalarida mamlakatda maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim muassasalari soni ko'paygan bo'lsa, XXI asr Janubiy Koreya universitetlarini xalqaro maydonga olib chiqishi bilan ajralib turadi. Mamlakatda chet ellik talabalar ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. 25-37 yoshdagi fuqarolarning 97% oliy ma'lumotga ega. O'quvchilarga erkinlik berilgan, ular akademik kurslarni majburiy o'rganishni rad etish imkoniyatiga ega. Janubiy Koreyada **xususiy manbalar** maktabgacha ta'lim muassasalari byudjetining yarmini, oliy o'quv yurtlari byudjetining 80 foizini tashkil etadi. Koreyada tug'ilish kamligi sababli barcha sohalarda raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. COVID-19 pandemiyasi davrida Koreya Ta'lim vazirligi tomonidan masofaviy ta'limga o'tish jarayonlari jadallashgandi. Bugungi kunda Janubiy Koreya 4-iqtisodiy inqilob islohotlariga moslashgan holda rivojlanmoqda.

**Ta'limning birinchi bosqichidayoq e'tibor davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan.** O'qish faqat bilim olish uchun emas, balki olingen bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash uchun zarur. Janubiy Koreyada ta'limga ajratilgan umumiyy mablag' - YAIMning **7,0 %ni** tashkil etadi, dunyoda Daniyadan keyin 2-o'rinda turadi. Lekin ta'limni tizimli modernizatsiya qilish jarayoni o'z-o'zidan eski tartib elementlarni chetga surib qo'yish emas, balki davom ettirish, ular asosida yangi g'oyalarni ishlab chiqish va boshqaruvning boshqa metod va mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yangiliklarni shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki tajriba – sinovdan o'tkazish orqali qabul qilish bilan birga ta'lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an'analar va qo'lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolish yo'lidan borilgan. Barcha ta'lim muassasalari kompyuterlar bilan jihozlangani va Internet tarmog'iga ulangani o'quv jarayoni samaradorligidan tashqari darsliklar, ko'rgazmali qo'llanmalar chop etish, kutubxonalar ni saqlash va hokazolar uchun sarflanadigan xaratatlarni kamaytirgani iqtisodiy samara bergen.

Janubiy Koreya maktablarida uchala bosqichda jami **5,5 mln. o'quvchi, 0,5 mln o'qituvchi, 6000 ta boshlang'ich maktablar, 3000 ta o'rtalik va 3000 ta yuqori maktablar mavjud.**

**Boshlang'ich maktab** O'zbekistonligidek 4 yil emas, balki 6 yil davom etadi. Bolalar maktabning 1-sinfiga to'liq 7 yoshga to'lgan holda qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'limda 1 o'quv yili ikki semestrga bo'linadi (O'zbekistonda 4 chorak). O'quvchilarga faqat akademik bilim berish emas, balki ularda ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor ko'proq qaratilgan. Maktabda o'qish 5 kun davom

etadi, o'quvchilar 3 kun 4 soatdan va 2 kun 5 soatdan dars bo'lib, darslar 40 daqqaq davom etadi. 1-2 sinflarda 5 ta fan, 3 - 4 sinflarda 9 ta va 5 – 6 sinflarda 10 ta fan o'qitiladi: *Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, tasviriy san'at, musiqa kabi fanlar sinfrahbari tomonidan o'-qitiladi, 3-sinfdan boshlab chet tili uchun mutaxassis o'qituvchilar tayinlanadi.*

**O'rta maktab** ham majburiy bo'lib, o'quv yili 1-mart-dan keyingi yil 1-martigacha, darslar esa 45 daqiqadan davom etadi. O'quvchilar bir o'quv yilda **1222 soat** hajmda ta'lim oladilar. O'rta ta'lim **maktablarida davlat tili**, axloq, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ta fan o'qitiladi. Shuningdek axborot, chet tili (fransuz, nemis, ispan, xitoy, yapon, rus, arab, kabi) tanlov fanlari o'qitiladi.

**O'rta maktab(sinf)da** o'quvchilarga forma, sochiga qarash va tartib intizomga ham e'tibor kuchayadi. O'quvchilar asosan sinfdoshlari bilan bir sinfda, lekin turli xil fan o'qituvchilarida o'qiydilar. Bolalar sinf xonasida o'tiradi, o'qituvchilar esa almashib darsga kiradi, faqat ayrim maxsus xona kerak bo'ladigan fan o'qituvchilarini xonasida dars o'tadi. Sinf rahbarlariga katta mas'uliyat yuklatalidi. O'rta maktabning ko'plab o'quvchilari darsdan keyin qo'shimcha kurslar "xagvonlar"ga yoki xususiy repetitorlarga qatnaydilar.

Davlat maktablarida din fan sifatida o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab "Tarbiya" kabi maxsus fan joriy etilgan. Bu fan 12-sinfgacha haftasiga 2 soatdan o'qitiladi, ushbu fan o'z ichiga dinni ham qamrab oladi. Din qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun bir tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanlarining majburiy davomi hisoblanadi.

O'quvchilar bilimini baholash, 3 -va 12-sinflarda 5 darajali baholanish mavjud. (Su, Wu, Mi, Yang, Ga).

Корейча даражаси	Корейча ўқынчиши	Тушунтирилиши	Фонз даражаси	Ҳарфлар билан баҳоланиши
수	Su	Ажойиб	90 дан баланд	A
우	Wu	Зўр	80-90	B
미	Mi	Ўртача	70-80	C
양	Yang	Ўртachedan паст	60-70	D
가	Ga	Ёмон	60 дан паст	F

O'rta maktabning so'nggi sinfida baho muhim rol o'ynaydi, chunki u oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun katta ahamiyatga ega. Fanlar xususiyatidan kelib chiqib baholashning bir necha xil standart shakllari bor. O'qituvchilar bu borada baholash standartlariga qat'iy rioya qiladi.

Koreyalik bolalar yuqori maktabda o'rta maktabdan keyin 17 yoshdan 19 yoshgacha tahsil oladi. Yuqori sinflarda bir kunda 6 va 7 tadan dars 50 daqiqadan iborat. Yuqori maktab majburiy emas, biroq keyingi yillarda 97-98 % koreys yoshlari yuqori maktabni tamomlagan. Yuqori maktablarda mutaxassislik berilmaydi, o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlaydi. Ular bir necha turlarga ajratiladi: Davlat o'zi nazorat qiladigan Davlat yuqori maktablari; har bir viloyatdagি

ta'lim idoralari tomonidan boshqariladigan umumi yuqori maktablar hamda xususiy yuqori maktablar.

Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlari maqsadiga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: **Ixtisoslashtirilgan maktablar** (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot); **Umumi maktablar;** - **Maxsus maktablar** (litsey shaklidagi maktab); - **Texnika maktablari;** - **Chet tili maktablari;** **Jismoniy tarbiya maktablari;** **San'at maktablari** va h.

Janubiy Koreyada hunar maktablari 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45% bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23% da texnika yo'nalishida kasb egalari yetishib chiqadi, 6.5% bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar tayyorlaydigan kollejlar mavjud. Bitiruvchilar "susen" deb nomlanuvchi koreys tili, matematika va ingлиз tili fanlaridan standart test topshiradilar va maktab davarijadi natijalariga qarab baholanadi. **Susen** tabiiy va ijtimoiy fanlardan tanlov asosida qator fanlar kiritiladi. Bunday test bir yilda bir mar'a topshiriladi, u intensiv tayyorgarlikni talab etadi. Bu testga bo'lajak OO'Yu talabalari yoshligidan tayyorlanishni boshlashadi.

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Ushbu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlari ga mos keladi, lekin o'qitish jarayonida farqli tomonlari mavjud. Sinforda o'qituvchilar va o'quvchilar tarkibi har yili rotatsiya qilinadi. Masalan, boshlang'ich sinfda 6 yil davomida 6 nafar boshqa - boshqa o'qituvchi dars berishi ham mumkin.

Bir o'quv yili 34 haftadan iborat, 1 ta semestr 17 ta haf'ta, ikkita ta'til mavjud, yozgi ta'til 45 kun (iyun oxiridan to sentyabrgacha), qishki ta'til 70 kun (yanvar boshidan to martgacha)

**Janubiy Koreyada professional ta'lim kollejlarda** amalga oshiriladi. Ikki (75-80 kredit) va uch yillik (120 yoki undan ortiq kredit) kurslarni taklif qiluvchi *junior colleges* (shuningdek, *specialized colleges, polytechnic colleges*) lar bitituvchilariga diplom beradi. Ta'limning asosiy yo'nalishlari turli xil hunarmandchilik, maktabgacha ta'lim, uy xo'jaligi, biznes boshqaruvi, texnologiya, muhandislik, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, hamshiralik bilan bog'liq keng ko'lamli mutaxassisliklarni o'z ichiga oladi. O'quv rejasi odatda profil fanlaridan tashqari umumta'lim fanlarining 30% gacha bo'lgan qismini o'z ichiga oladi. Amaliyotga katta e'tibor qaratiladi.

Kollejlarga kirish talablari universitetga kirish talablari bilan bir xil, ammo raqobat ancha kam. Junior collegeni tutgatgandan so'ng bitiruvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha ish boshlashi yoki kollej va universitetlar o'rtasidagi hamkorlik shartnomalari bo'yicha bakalavriatning 3-kursiga o'qishga kirishi mumkin.

Janubiy Koreyada **oliy ma'lumotga** ega bo'lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqeい muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oly ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga bo'lgan ehtiyoj doim yuqori darajada. Yoshlar orasida qiziqish IT yo'nalishiga, matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq va tabiiy fanlar hamda jamiyat bilan bog'liq fanlarga qaratilmoqda. Kollej va universitetlar, industrial universitetlar, pedagogika institutlari, sirtqi universitetlar, ochiq universitetlarda Janubiy Koreya ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida bo'lgani singari oly ta'lim sohasida ham chuqur islohotlar olib borilgan.

Koreyada **bakalavriat** (학사) - **Haksa** ta'lim yo'nalishida sohalar bo'yicha asosiy ko'nikmalar rivojlantiriladi, nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalar o'rgatiladi. Bakalavr darajasini olish uchun to'rt yillik kollej va universitetlar, umumi tadqiqot universitetlari, ixtisoslashtirilgan sanoat universitetlari, pedagogika universitetlari, masofaviy kiber universitetlar tomonidan taklif etiladi. Standart akademik yo'nalishlar bo'yicha dasturlar 4 yil (130-140 kredit), kasbiy dasturlar (arxitektura, huquq, tibbiyot, farmatsevtika biznesi) bo'yicha o'qitish 5-6 yil davom etadi. Dastlabki ikki yil davomida talabalar asosiy va ixtiyoriy umumi yfanlarni o'rganadilar, keyin maxsus fanlarga e'tibor qaratiladi, ular ham majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

Dasturni muvaffaqiyatlari yakunlash uchun bakalavr ishi, loyihi bajarish yoki keng qamrovli imtihondan o'tish kerak - *comprehensive examination*. Bundan tashqari, yakuniy o'rtacha ball uchun talablar mavjud, ular kamida 2,00 (C) bo'lishi kerak. Janubiy Koreyadagi universitetlar *Bachelor of Arts* ili *Bachelor of Science*, shuningdek, ko'plab ixtisoslashtirilgan darajalarni beradi: Iqtisodiyot bakalavri, Axborot fanlari bakalavri, Statistika bakalavri va boshqalar.

Xorijiy abituriyentlar uchun asosiy talab koreys maktabida 12 yillik o'qishga teng bo'lishi kerak. Rossiya va MDH davlatlarida to'liq o'rta ma'lumot to'g'risidagi attestat (11 yil) OTMga hujjat topshirish uchun yetarli.

Janubiy Koreyada **magistratura** (석사) - **Seoksa** va doktorantura dasturlarini birlashtirgan oliy maktablar - *graduate schools* bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, universitet negizida ham umumi grad school bitta akademik yo'nalishdagi yoki amaliy yo'nalishiga ega bo'lgan bir nechta kasb-hunar maktablari yo'nalishida bo'lishi mumkin. Koreya magistraturasida o'qish muddati 2 yil. O'quv rejasi 24 kreditdan (taxminan 48 ECTS ga to'g'ri keladi) ma'lum kurslar to'plamini o'rganishni va magistraturada o'qishni o'z ichiga oladi. Magistr darajasini olish uchun talaba yakuniy o'rtacha ball 3.0 (B) yoki undan yuqori bo'lishi, keng qamrovli imtihon va chet tili imtihonini topshirishi hamda dissertatsiya himoya qilishi kerak. Koreyadagi magistratura o'z bitiruvchilariga keng ko'lamli kompetensiyalarni taqdim etuvchi juda yuqori standartlarni belgilaydi. Magistraturaga da'vogarlar tegishli yo'nalish bo'yicha bakalavr darajasini o'rtacha 3,0 (B) yoki undan yuqori ball bilan tamomlagan bo'lishi kerak.

Doktorantura (박사) - **Baksa** Koreyadagi oliy ta'limning oxirgi bosqichidir. U *graduate schools* asosida amalga oshiriladi, ularning aksariyati universitetlar tarkibiga kira-di, alohida ta'lim muassasalari sifatida ham mavjud bo'lishi mumkin.

Koreya universitetlarida doktorlik darajasini (*doctoral degree*) olishning ikki yo'li mavjud:

- **Doktorantura Mustaqil dastur.** Bu kamida uch yillik o'qishni, shu jumladan 2 yillik o'quv kurslarini o'zlashtirishni (30-36 kredit) o'z ichiga oladi. Qabul qilish uchun majburiy talab - tegishli sohada magistr darajasining mavjudligi.

- **Magistratura doktorantura Integratsiyalashgan dastur.** Qabul bakalavr darajasida amalga oshiriladi. Ta'limning ma'lum bosqichida talabalarga oraliq magistratura darajasi beriladi. Muddati - kamida 4 yil, bu vaqt davomida o'quv kurslarida 60 kredit olish kerak.

Dasturni muvaffaqiyatlari yakunlash uchun talaba yakuniy 3.0 (B) yoki undan yuqori bo'lishi, imtihonlarni topshirishi

(keng qamrovli imtihon va ikkita chet tili), so‘ngra doktorlik dissertatsiyasini yozishi va himoya qilishi kerak. Janubiy Koreyada eng keng tarqalgan malaka falsafa doktori (PhD) *Doctor of Philosophy*, ammo *Doctor of Science, Doctor of Business Administration* va boshqalar ham bor.

**Janubiy Koreyada o‘qituvchi mavqeい baland.** Koreyslarda “Ustozingning soyasini ham bosma” degan gap bor. Ishga qabul qilingan yosh o‘qituvchiga eng past toifasi beriladi. O‘qituvchi davlat xizmatchisi maqomiga ega hisoblanadi va maqomga mos tarzda tegishli imtiyozlar beriladi. Ish haftasi davomiyligi 40 soat (5 kunlik), shundan 18-20 soati dars soatlari. O‘qituvchilik kasbini egallagan talabalar institutni tugatgach, alohida test sinovlaridan o‘tadilar. Agarda ushbu test-sinovlaridan yaxshi natija ko‘rsatmasa, talaba boshqa tashkilot yoki muassasalarda ish faoliyatini olib boradi. Ular avval oddiy maktabdan ish boshlaydilar. Toifa ham ushbu ballarga bog‘liq. Uning ballari rahbar, hamkasblari va ota-onalar tomonidan qo‘yildi. Ish haqi o‘qituvchining stagi va malaka toifasidan kelib chiqib turlicha belgilanadi. O‘qituvchilarning maoshi har yili o‘rtacha 100 \$ won oshirib boriladi. Yaxshi ishlagan o‘qituvchilarga mukofot beriladi. Pedagogning mehnat faoliyati davomida uning reyting (kredit) ballari to‘plab boriladi (mamlakat mi-qyosida). 2-toifali o‘qituvchi 3-4 yildan so‘ng 1-toifa uchun malaka imtihonlarini topshirishi mumkin. 1-toifali o‘qituvchi ma‘lum vaqt o‘tgandan keyin o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rnbosari yoki metodist bo‘lish uchun malaka imtihonlarini topshirishi mumkin. O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rnbosari 4 yildan so‘ng direktor bo‘lish uchun malaka imtihonlarini topshirishi mumkin. Direktor rasman mamlakat Prezidentini tomonidan ko‘pi bilan 2-marta 4 yillik muddatga tayinlanishi mumkin.

### Janubiy Koreyada tillarning o‘qitilishi

Koreyaning 34 ta universiteti chet davlatlarda o‘z filiallarini ochgan. 87 ta mamlakatda koreys tilini o‘rgangan o‘quvchilarni imtihon qiluvchi **250 ta markazlar** tashkil etilgan, shular qatorida O‘zbekistonda ham Toshkent Koreya ta’lim markazi faoliyat ko‘rsatadi. Oliy ta’lim muassasalarida 30% dasturlar ingliz tilida o‘qitiladi. Koreys tilida o‘qishni xohlagan xorijliklar universitetlar qoshidagi til o‘qitish kurslarida pullik asosda tahsil olishi va talab etiladigan TOPIKni egallashi so‘raladi.

**Kopeya aholisi** Markaziy Osiyodan Koreya yarim oroliga ko‘chib o‘tgan mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari hisoblanadi. Ular bir tilda – koreyscha - oltila lahjada gaplashadir. Koreys tili Oltoy tillar oilasiga kiradi, ushbu til oilasi mongol, to‘ng‘us, manjuriya tillarini o‘z ichiga oladi. Koreys tilida xitoy tilidan o‘zlashtirgan so‘zlar (70%) juda ko‘p. Koreyaning fonetik alifbosini Xangil XV asrda yaratilgan. O‘sha paytlarda koreys yozuvidagi xitoycha belgilar xanja deb nomlangan. Xangilni yaratishdan maqsad koreys tilida xitoycha belgilarni ishlatmasdan yozishga imkon berish bo‘lgan. Koreys yozuvini loyihalashtirishda xitoycha belgilardan, uyg‘ur va mo‘g‘ul qo‘lyozmalaridan andoza olingan. Shimoliy Koreyada ham shu yozuv ishlatiladi, xanjanadan ham foydalanadi. Xangil o‘rganish uchun qulay, ammo unlilar va undoshlarning xilma-xilligi tufayli koreys tili qiyindek ko‘rinadi. 2000-yilda Koreya hukumati Xangilni kompyuter va internetdan foydalanishga moslashtirish uchun o‘zlarining romanistika tizimini qaytadan qo‘rib chiqqan va bugungi kunda undan keng foydalanadi.

Qirol Senchjon davrida (1419-1450) Saroy akademiyasi “Donishmandlar uyi” tashkil etilgan. Bu yerda asosan konfutsiylik ta’limotlariga asoslangan etika va xuquqiy savollar muhokama qilingan. Saroy ziyyolilari “Koryo tarixini” yaratishgan. U yerda olimlar tibbiyot, astronomiya, matematika, qishloq xo‘jaligi, geografiya, fizikaning yangi qirralarini ochgan. Metall shriftlardan foydalanish kitob bosishdagi va madaniyat tizimidagi yangilik bo‘ldi. Bu davrda Xangil (**한글**) koreys alifbosini vujudga kelgan. 1446-yilda yaratilgan bu alfavit Saroy ziyyolilari tomonidan (Chan In Chji) “xunmin chonim” (axolini o‘rganish uchun xaqiqiy ovozlar) deb nomlangan edi.

## КОРЕЙСКИЙ АЛФАВИТ

[https://vk.com/korean\\_for\\_beginners](https://vk.com/korean_for_beginners)

ㄱ	ㅋ	ㄴ	ㄷ	ㅌ	ㅂ	ㅍ	ㅁ	ㅂ	ㅍ	ㅎ	ㅇ
к/г	кк	н	т/д	тт	п/ль	м	п/в	пп	х		
ა	აა	ი	ჰ	ჰჰ	ე	ე	ე	ე	ე	ა	
ც/ჲ	ცც/ჲჲ	-/ნ	ჯ/ჯ	ჭ	ჭ	ჭ	ჭ	ჭ	ჭ	უ	
ჵ	ჵჵ	ჸ	ჸჸ	ჸ	ჸ	ჸ	ჸ	ჸ	ჸ	ჸ	
ა	აა	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე
ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე
ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი
უ	უ	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი
ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი	ი
ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე	ე

Xangil (**한글**), koreys tili alifbosida 40 ta harf, ulardan 14 ta undosh, 5 ta ikkilashgan undosh, 10 ta unli va 11 ta diftonglar mavjud.

Xangilning o‘ziga xos xususiyati harflar guruhlarga bir-lashtirilgan, taxminan bo‘g‘inlarga mos keladi. Ushbu yozuv Janubiy Koreyada asosiy yagona yozuv hisoblanadi. Alfavit yaratilganiga qaramay muhim xujjatlar va badiiy yozuv qo‘l-yozmalari koreys yoki iyeroglisini qolgan.

Koreys tilida dunyoda 70 mln.ga yaqin aholi gaplashadi. Koreys tili janubiy va shimoliy Koreyaning davlat tili hisoblanadi. Koreys tilida gaplashuvchi odamlar nafaqat davlat tili koreys tili bo‘lgan bu ikki davlatda, shu jumladan Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, AQSH, Rossiya, O‘zbekistonda ham istiqomat qiladilar. Koreys tilida gap tuzilishiga ko‘ra o‘zbek tiliga yaqinligi, har ikkalasi oltoy tillar oilasiga mansubligi sabab o‘zbek yoshlari boshqa millat vakillariga qaraganda koreys tilini juda tez va sifatli o‘rganib olishmoqda. Bugungi kunda koreys tili **O‘zbekistonda ham 40 ga yaqin maktablarda, 16 ta oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘qitilmoqda.**

Koreya maktablari amaldagi o‘quv rejasining xususiyatlari - bu **“Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning** 23-moddasi 2-bo‘limida e‘lon qilangan **milliy o‘quv dasturi bo‘lib**, boshlang‘ich va o‘rta maktablarning ta’lim maqsadlari va vazifalariga erishishga qaratilgan.

Koreya davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida **koreys tili ona tili sifatida ham davlat tili sifatida ham o‘qitiladi**. Koreys tili boshlang‘ich maktablarda 1-2 sinflarda bir o‘quv yilida 34 haftada 448 soat, 3-4 va 5-6 sinflarda 408 soatdan o‘qitiladi. Shunda 1-2 sinflarda haftada 6,5 soatdan, 3-6 sinflarda esa haftasiga 6 soatdan o‘qitiladi. Boshlang‘ich maktabda 6 yil davomida jami 6-9 ta fan o‘qitiladi, 5892 soat hajmda, shundan koreys tilining ulushi 421 soatni (7,1%) ni tashkil etadi.

O‘rta maktablarda 3 yil davomida, jami 3366 soat hajmda 10 ta fan o‘qitiladi, shundan koreys tilining ulushi 442 soatni

(13,1%) ni tashkil etadi, ya’ni koreys tili haftasiga 4-4,5 soatdan o‘qitiladi.

Yuqori 11-12 sinflarda tanlov fanlarining o‘quv rejasiga binoan koreys tili haftasiga 8 soat o‘qitilsa, asosiy tanlov fani sifatida “Tur mushdagi koreys tili” 4 soat hajmida, chuqur lashtirilgan tanlov fani sifatida “Muloqot” 4 soat, “O‘qish” 8 soat, “Kompozitsiya” 8 soat, “Grammatika” 4 soat, “Adabiyot” 8 soat hajmida o‘qitiladi.

Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda ya’ni ona tili va adabiyoti fanining ulushi 2018-yilda 61 soat (23,6%)ni tashkil etgan, 2021-yilda esa 51 soat (20,4%)ni tashkil etmoqda, ya’ni 3,2% ga kamaygan. Ammo o‘zbek tili (davlat tili)ning ulushi esa 2018-yilda 16 soatdan (6,2%) 2021-yilda 21 soatga (8,4%) ya’ni 2,2% ga oshgan. Bu esa mamlakatimizda ta’lim o‘zbek tilidan boshqa tilda olib borilayotgan maktablarda davlat tilining o‘qitilishga bo‘lgan e’tiborning kuchaytirilganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Janubiy Koreya **ko‘chalalarida yozuvlar e’lonlar**, peshlavhalar asosan to‘liq koreys tilida, ayrim hollarda ingliz tilida kichikroq harflarda yozuvlar qo‘shilgan. Bu ham bo‘lsa xalqaro faoliyat bilan bog‘liq holda. Metroda, avtobuslarda yozuvlar O‘zbekistondan ko‘ra elektronlashgani bilan farqlanadi va barcha yozuvlar asosan koreys tilida, orqasidan ingliz va xitoy tilida ham beriladi. Rasmlar, reklamalar, yo‘l ko‘rsatkich belgilari barchasi koreys tilida berilgan.

Janubiy Koreya Milliy bayramlari qatorida **9-oktyabr kuni** “Koreys tili yozuvni” **Xangil bayrami** kuni sifatida nishonlanadi. O‘zbekistonda 21-oktyabr “O‘zbek tili” bayrami kuni hisoblanadi. Dunyo madaniy meroslari qatoriga koreys alifbosi Xangil kiritilgan va u koreya xalqining milliy iftixoridir. Xangil dunyo lingivistlari tomonidan yuqori baholanib 1997-yilda YUNESKO milliy meroslari ro‘yxatiga kirgan. 9-oktyabr **Xangil bayrami** kuni davlat bayramlari statusini olgan va dam olish kuni hisoblandi. Ushbu bayram butun mamlakatdagi koreys tiliga, madaniyatiga va adabiyotiga hurmat, yozuvga ehtirom bilan bog‘liq tadbirlarga boy bayram sifatida keng nishonlanadi. Bayram munosabati bilan Seulda, Kvanxvamun maydonida, qirol Sejon memorial xolida, tarixiy muzeylarda va boshqa konsert zallari va teatrлarda konsertlar, ko‘rgazmalar, ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etiladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida, ilmiy tadqiqot institutlarida, katta kutubxonalarda koreys tili, madaniyati va adabiyotiga bag‘ishlangan konferensiylar, simpoziumlar o‘tkaziladi. Unda tilshunos olimlar, Janubiy Koreya va davlatdan tashqaridagi filologlar ishtirokida lingvistika sohasidagi muammolar doirasida ma’ruzalar bo‘ladi. Mazkur jihatlarini O‘zbekistonda Davlat tili bayramini nishonlash bilan qiyoslash mumkin.

**Janubiy Koreya maktablarida chet tillarining o‘qitilishiga ham e’tibor kuchli.** Ingliz tili 3-sinfdan boshlab o‘rgatiladi. Ingliz tilini o‘rganish juda qiyinligi bois ota-onalar o‘z farzandlarini xususiy o‘quv muassasalariga qo‘sishma o‘qishga jo‘natadilar. Ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklar, til sohiblarini Koreya boshlang‘ich maktablariga dars berish uchun jaib qilish keng yo‘nga qo‘ylgan. Ko‘pchilik ingliz tilida bemalol gaplasha oladi.

Bizdachi, umumiyl o‘rtalimning Milliy o‘quv dasturida “Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o‘zbek tili qardosh tillar (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman), rus tili (ta’lim rus va o‘zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini

ta’minalaydi”, deb qayd etilgan. Bugungi kunda umumiy o‘rtalim maktablarida ta’lim 7 tilda olib boriladi. Shundan, 2069 ta maktabda ta’lim o‘zbek tilidan boshqa tillarda ya’ni rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, turkman, qirg‘iz tillarida olib boriladi va har bir millat vakillari uchun millatlararo bag‘rikenglik tamoyili asosida sharoitlar yaratilgan, o‘quv jarayoni o‘z ona tillarida tashkil etilgan va ushbu maktablarning har birida o‘quvchilar uchun barcha fanlardan o‘z ona tilida darslik va o‘quv metodik adabiyotlar bilan ta’minaladi.

O‘zbekiston Milliy o‘quv dasturida maktab bitiruvchilarida til va adabiyot fanlari bo‘yicha rivojlantiriladigan umumiy kompetensiylar belgilanmoqda. Ular “Nutqiy kompetensiylar” (Og‘zaki nutq malakasi va Yozma nutq malakasini “Anglash malakasi”, “O‘qish va tushunish”, “Tinglab tushunish”) hamda “Lingvistik kompetensiylar” (Lingvistik malaka: fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis) orqali shakkllantirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda koreys tilining o‘qitilish hajmining oshishida, koreys tilining ommalashishida va o‘qitish sifatining yaxshilanishida Toshkent shahridagi **Koreya Respublikasi ta’lim markazining** hissasi katta. Ushbu markaz 1992-yildan buyon faoliyat ko‘rsatib keladi. Ilgari Ta’lim markazining asosiy faoliyati faqat o‘qituvchilik bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uzlusiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari bilan xalqaro hamkorlik ishlarni hamda turli xil ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ustida ham ishlamoqda.

Mazkur Koreya Respublikasi ta’lim markazining ko‘magida 2022-yil 16-20-avgust kunlari Koreya Respublikasi Inchon shahrida Koreya Respublikasi Ta’lim vazirligi tomonidan **Koreys tili ta’limi xalqaro jamg‘armasi** bilan hamkorlikda “Chet eldag‘i koreys tili ta’limining bugungi kuni va kelajagi” mavzusidagi konferensiya o‘tkazildi. Xalqaro konferensiyyada O‘zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etib koreys tilini o‘qitish metodikalari bilan o‘rtoqlashildi. Mazkur shakldagi koreys tilining ommalashuviga bag‘ishlangan konferensiya 2003-yildan buyon muntazam o‘tkazib kelinadi. Bu yilgi anjumanda 14 ta davlatdan 105 nasaf turli darajadagi vakillar ishtirok etdi.

Konferensiya doirasida O‘zbekistonlik guruh a’zolari Koreya universiteti va uning qoshidagi Koreys tili ta’lim markazida bo‘lishdi. Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi hamda Koreya Respublikasi Xalqaro ta’lim milliy instituti o‘rtasida memorandum imzolandi. Unga ko‘ra O‘zbekiston maktablariga STEAM fanlaridan dars beradigan koreyalik mutaxassislar O‘zbekiston maktablariga jaib etildi. Tashrif davomida Koreys tilining o‘qitilishi bo‘yicha o‘quv dasturlarni ishlab chiqish, darsliklar yaratish, ularni o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, metodik xizmat ko‘rsatish borasida hamkorlik qilish, o‘quvchilar bilimini baholash mehanizmlarini takomillashtirish, monitoring jarayonini shaffof tashkil etish, xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, TIMSS)ni amalga oshirishda Koreya tajribasini o‘rganish, o‘qituvchi va rahbar kadrlar malakasini oshirish kabi masalalar bo‘yicha muzokaralar olib borildi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi “Koreya da Ta’lim sifati uchun baholash” yo‘nalishida Koreya o‘quv dasturi va baholash instituti (KICE) Ta’limda baholash va tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i professor Cho Ji Min bilan tajriba almashish, qo‘sma seminarlar o‘tkazish, ekspert jo‘natish masalalarida fikr almashishdi.

O'zbekistonda ham o'zbek tilini davlat tili sifatida mavqeini yanada oshirish, nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham o'zbek tilini keng tarannum etish va o'qitilishini qo'l-lab-quvvatlash maqsadida faoliyatini davom ettirayotgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi" Koreys tili ta'limi xalqaro jamg'armasi bilan o'zaro hamkorlik qilishi borasida ham dastlabki muhokamlar bo'ldi.

Janubiy Koreyaga amalga oshirilgan mazkur xizmat safari O'zbekiston ta'lim tizimini va koreys tilining o'qitilishini yaxshilashga hissa qo'shadigan tajribalarni o'rganish imkonini berdi.

### Adabiyotlar

1. Пак Хи Су. Политика государств Корейского полуострова в области образования. (Сравнительный анализ. Дис...канд.полит.наук. Владивосток -2015)
2. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev. Qiyosiy pedagogika (darslik).Toshkent-2015

3. Т.А Белова, М.И.Струкова, Система образования в Южной Корее VI периода Республики. Нижегородск-2018
4. Janubiy Koreya mo'jizasi, BBC news O'zbek xizmati A.Egamberdiyev, Janubiy Koreya taraqqiyotidagi ikkinchi "mo'jiza" – 2019

5. Nasirov A.A. Xalq ta'limi tizimida chet tilini o'qitishning yangi bosqichlari// Best Practices in teaching Young Learners in Uzbekistan // National Conference Proceedings, – Tashkent, Juin 13-14, 2016.

6. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldag'i "Latin yozuviga assoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-son qarori

7. Council of Europe (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment.(CEFR)

8. Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydag'i "Uzlusiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash" to'g'risidagi 124-sonli qarori.

## ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI ASOSIDA BOLALARNI JISMONIY TARBIYASINI TASHKIL ETISH

N.M.Kayumova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasi dotsenti

В статье рассматривается вопрос учета возрастных особенностей дошкольников при решении задач физического воспитания, значения средств физического воспитания в здоровом развитии.

**Ключевые слова и понятия:** физическое совершенство, физическая культура, здоровый образ жизни, распорядок дня, высшая нервная деятельность, функциональные возможности.

The article deals with the issue of taking into account the age characteristics of preschoolers in solving the problems of physical education, the importance of physical education in healthy development.

**Key words and concepts:** physical perfection, physical culture, healthy lifestyle, daily routine, higher nervous activity, functionality.

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalari bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'mnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiiga mos bir nechta talablardan iborat.

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- yirik motorika;
- mayda motorika;
- sensomotorika.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh xususiyatlari hisobga oli-

nadi. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagagi bola organizmining o'ziga xos xususiyatidir. Maktabgacha yoshdagagi bola juda nozik bo'lgani uchun quyidagi sog'lomlashtirish vazifalari birinchi o'ringa qo'yildi:

Bola hayotini muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmnning tashqi muhit ta'siriga qarshiligini oshirish;

Organizmning barcha sistemalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlanish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish;

To'g'ri qaddi-qomatni uyg'un jismoniy rivojlanishirish.

Bolalarning jismoniy rivojlanishida quyidagi jismoniy tarbiya vositalaridan foydalaniladi:

**Rejim (kun tartibi).** Bolalar hayotining rejimi (tartibi) – bu bedor yurish, uqlash, ovqatlanish, faoliyat xilma-xil turlarining har kuni muayyan izchillikda takrorlanib, oqilona almashinib turishidir. Tartib rivojlanish uchun qulay sharoit ta'minlashi kerak. Shuning uchun u bolaning yoshi, uning salomatligi, kattalar mehnatining xususiyatlari, bola tarbiyal-

nayotgan oila turmushi va tashkilotga bog'liq tarzda o'zgaradi.

Muayyan vaqt ichida tartibning asosiy tarkibiy qismlari bir maromda va doimiy bo'lishi uning ajralmas xususiyatlaridir.

Tartibning bir maromdaligi tabiat hodisalarining maromi, organizm faoliyatining maromiga asoslanadi. Bu bedor yurish va uqlashning, tana haroratining o'zgarishi, nafas olish, yurak urishining qisqarish maromida, ovqat hazm qilish traktining ish maromida namoyon bo'ladi va hokazo.

Oqilona tartib: 1) bedor yurish va uqlashning eng maqbul nisbati asosida quriladi, bu vaqtida bosh miya qobig'i uchastkalari o'rtasidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingen axborot qayta ishlanadi; 2) aqliy va jismoniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish maromini hisobga olish asosida quriladi. Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

**Gigienik sharoitlar.** Bizning jamiyatda jismoniy tarbiya davlatning ona va bola to'g'risidagi g'amxo'rligiga, aholi yashash sharoitlarining doimo yaxshilanib borishi, moddiy farovonligining o'sishiga asoslanadi.

Bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun gigienik sharoit (bino, maydoncha, jihozlar, kiyim – bosh, poyafzal) yaratish, bolalar hayotining ilmiy asoslangan rejimini (bular oqilona ovqatlanish, harakatlarni rivojlantirish va organizmni chiniqtirish tadbirlarini o'z ichiga oladi) albatta bajarish zarur. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining doimiy nazorati, zaruviy profilaktik va davolash ishlarini olib borishi talab etiladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotida har bir guruh uchun xonalar ajratiladi. Guruh xonalari bolalarning erkin harakat qila olishi va sof havo bilan nafas olish imkonini beradigan darajada katta, yorug', quruq va issiq, derazalari janubi-sharqqa qaragan bo'lishi kerak.

Guruh xonasining balandligi 3 – 3,5 m bo'lib, har bir bolaga bino sathidan 2,5 kv. m joy, taxminan 8 kub m havo to'g'ri kelishi; xona bezagi gigienaga xos, tez toza bo'ladijan, yoqimli, yumshoq rangda bo'lishi kerak. Guruhda tartib bo'lishiga rioya qilish zarur. Xonada yorug'likni to'sadigan og'ir va qalin pardalar, gilamlar, yumshoq mebellar, umuman ortiqcha narsalar bo'imasligi kerak. Hamma jihozlar ta'lif-tarbiya talabiga, bolalarning bo'yи va gavda tuzilishiga mos bo'lishi va mutasaddi vazirlik tomonidan qo'yilgan maxsus normaga javob berishi lozim.

Bolalarning stol stillari ancha mustahkam va yengil tuzilishi, sodda hamda oson yuviladigan bo'lishi kerak. Stollar yorug'lik chap tomondan tushadigan qilib joylashtirilishi lozim. O'yinchoq va ko'rgazmali qurollar ham gigienik talablarga javob beradigan, pishiq, zararsiz rangda, tashqi ko'rinishi silliq bo'lishi kerak.

Tarbiyachi o'z guruhining gigienik sharoiti uchun javobgardir. Xonani bolalar sayrga, musiqa mashg'ulotiga chiqib ketgandan keyin shamollatish, deraza fortokchalari esa yil fasllaridan qat'i nazar doimo ochiq bo'lishi kerak.

**Maktabgacha ta'lif tashkiloti maydonchasi.** Har bir yosh guruhi uchun butalar bilan ajratilgan alohida maydoncha bo'lishi kerak. Maydonchada bolalarning harakatlarini rivoj-

lantirish uchun joy (tekis maydoncha), qum, suv, qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar uchun joy, ijodiy o'yinlar va turli o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar uchun joy ajratiladi. Maydonchada harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar: tirmashib chiqish uchun devorchalar (uch, to'rt va olti burchakli), muvozanat saqlash mashqlari uchun xoda, tepalik, sakrash, uloqtirish mashqlari uchun kerakli jihozlar bo'lishi kerak. Bularning hammasi bolalarning yoshi va kuchiga mos, pishiq, mustahkam, chiroyli bo'lishi zarur. Maktabgacha ta'lif tashkiloti maydonchasida bolalarning velosipedda yurishlari uchun ham yo'laklar bo'lishi kerak.

Yomg'ir va quyoshdan saqlanish uchun yopiq ayvonlar bo'lishi kerak. Maydoncha har doim ozoda, tartibli bo'lishi zarur. Maktabgacha ta'lif tashkiloti maydonchasi skamey-kalar, o'ynash uchun zarur bo'lgan o'yinchoqlar, qum yashiklari, har xil kema, samolyot maketlari, narvonchalar bilan jihozlangan bo'ladi. Qishki vaqtarda qor tepalikcha, yaxlatilgan yo'lchalar, qor inshootlarini qurish lozim.

**Bolalarning ovqatlanishi.** Bola stol atrofiga yaxshi ishtaha bilan o'tirs, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil bo'ladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillikni, madaniy-gigienik malakalarni, stol atrofida o'zini to'g'ri tutib o'tirish malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhim bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Ba'zi bolalar keragidan ortiq, ba'zilari keragidan kam ovqat yeyishlari mumkin. Shuning uchun bolaga ovqat normasini ularning yoshiga qarab berish kerak. Ammo bolani taomni oxirigacha yeyishga majbur etish kerak emas, majbur etish har doim ovqatdan oladigan lazzatlanishni kamaytiradi, uni hazm qilishni qiyinlashtiradi, ba'zan bola ovqatdan butunlay voz kechishi mumkin. Bolalning to'g'ri ovqatlanishining asosiy mezoni uning jismoniy jihatdai uyg'un rivojlanganligidir.

**Uyqu.** Bola yaxshi uqlashining asosiy sharti uning yoshiga mos bo'lgan sutkalik rejimni hayotining birinchi kunidan boshlab to'g'ri tashkil etishdir. Bola tez va yaxshi uqlashning kerakli shart-sharoit yaratish, uyg'oqlik vaqtida faol lashtiruvchi har xil harakatlarini tashkil etish kerak.

Bola yaxshi uqlashining asosiy shartlaridan biri hayotining birinchi oyidan boshlab uni toza havoda uqlashdir. Kislorodga to'g'yan qon butun organizmdagi nerv hujayralarining tiklanishiga yordam beradi. Toza havo bolalning nafas olishini yaxshilaydi, shamollaishdan saqlaydi. Jismonan nimjon va 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalarni toza havoda uqlash, sayr qildirish nihoyatda zarurdir. Agar bola yaxshi uqlasa, tetik, quvnoq bo'lib uyg'onadi va harxasha qilmadan kiyinadi.

**Bolalarni kiyimi.** Yozgi kiyim rangi ochiq, asosan oq gazlamadan, qishki kiyim to'q rangli materialdan tikilishi lozim. Bolalarning kiyimi ularning yoshiga yarasha, yengil, qulay, qismaydigan, estetik didiga javob beradigan paxta matosidan tikilishi kerak. Bolalarning oyoq kiyimi ham qulay, poshnasi 1-1,5 sm bo'lishi kerak. Vaqt vaqtida bilan bolalarga qishda binoning ichida, yozda maydonchada yalang oyoq, yurishga ruxsat berish kerak. Notejis joyda

yalangoyoq yurish tovon yassiligini yo'qotadi, bola organizmini chiniqtiradi.

**Sayr.** Bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lishlari ularning sog'ligiga va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning ochiq havoda bo'lishi natijasida qon kislorodga to'yadi, temperaturaning o'zgarib turishi, havoning namligi, shamol ta'siri termoregulyatsion apparatni mashq qildiradi, organizmni chiniqtiradi. Bolaning faolligi oshadi, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashadi.

O'tkaziladigan sayrning tashkiliy jihatlari, mazmuni va metodikasini tarbiyachilar puxta o'ylashlari lozim. Sayrga yig'ilish ko'p vaqt ni olmasligi, buning uchun bolalarni bir tartibda kiyinish va yechinishga o'rgatish kerak. Sayr rejasiga atrof hayotni kuzatish, sport mashg'ulotlari, mehnat faoliyati, o'ynilar kiradi. Bolalarning turli faoliyatlarini tashkil etish uchun bolalar maydonchasi pedagogik talabga javob beradigan qilib jihozlangan bo'lishi kerak. Har bir guruh maydonchasida turli o'ynilar o'tkazish uchun qurilish materiallari, qum, suv, turli o'ynichoqlar, sirpanish uchun tepaliklar, muz maydonchasi, tirmashib chiqish, muvozanat saqlash, sakrash uchun moslamalar o'rnatilgan bo'lishi kerak. Velosiped uchish uchun yo'l bo'lishi kerak. Bolalar 3-4 soat

ochiq havoda vaqt o'tkazishlari lozim. Faqat qattiq yomg'irda, kuchli shamolda, sovuq - 25° dan oshganda sayrga chiqish kerak emas.

Harakatli o'yinlarni o'tkazish muddati mashg'ulotning mazmuniga bog'iqliq. Hatto 15-20 daqiqalik sayrlar ham yaxshi hissiy, jismoniy madad beradi. Tarbiyachi bolalarning bir vaziyatda turib qolmasliklariga e'tibor berib turishi lozim. Harakatli o'yinlarni tinchroq o'yinlar bilan almashtirib turish kerak. Kichik guruh bolalari bilan haftasiga bir marta, katta guruh bolalari bilan haftasiga 2 marta ekskursiya uyushtiriladi. Bunda bolalar kattalarning mehnatini, kishilarning hayotini kuzatadilar.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi -T 2022y
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lif va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802 qarori.

## SOG'LOM VA BARKAMOL BOLA SHAXSINI TARBIYALASH

**D.A.Choriyeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lif fakulteti, "Maktabgacha ta'lif psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasi dotsenti v.b.**

В данной статье описаны меры по коренному совершенствованию сферы образования, повышению качества образования, а также разработка первоочередных задач по формированию поколения с интеллектуальным потенциалом и физической подготовленностью, определенные в Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан.

**Ключевые слова и понятия:** личность, подрастающее поколение, гармоничное развитие, качество образования, воспитание.

This article describes measures to radically improve the education sector, improve the quality of education, as well as the development of priority tasks for the formation of a generation with intellectual potential and physical fitness, defined in the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan.

**Key words and concepts:** personality, rising generation, harmonious development, quality of education, upbringing.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lif tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lif sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lif sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lif tizimini yaratish ko'zda tutildi.

Har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respub-

likasi Davlat mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lif tashkilotlariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lif tizimi bosh-qaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmon va

qarorlari asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning qamrovi 60 foizga oshishi, 2023 yilda esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlash xarajatlari joriy yilga nisbatan 32 foizga o'sishi kutilmoqda.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

Har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash asosan ota-onalar va maktabgacha tarbiyachilar uchun mo'ljallangan. Barcha ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatning asosiy mavzusi bolalarni zamonaviy talablar, me'yorlar va standartlarga mos ravishda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, o'qituvchi-tarbiyachilarning bolalar bilan ishslashda ijodiy yondashuvdan foydalanish qobiliyatidir.

Dunyo bo'ylab mutaxassislarning fikriga ko'ra, tug'ilishdan maktabga qabul qilinish davri – bu bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishining eng tez davri hisoblanadi. Inson uchun zarur bo'lgan jismoniy va ruhiy fazilatlarning, ya'ni uni shaxs sifatida namoyon qiluvchi fazilatlar va xususiyatlar shakllanish davri hisoblanadi. Rivojlanishning boshqa bosqichlaridan ajralib turadigan bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, u aynan umumiyligi rivojlanishni ta'minlaydi, bu kelajakda har qanday maxsus bilim va ko'nikmalarni egallash va har xil turlarni o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan faoliyatdir. Bolaning xulq -atvorining umumiy tabiatida uning atrofidagi narsalarga munosabatini belgilaydigan nafaqat bolalar ruhiyatining fazilatlari va xossalari shakllanadi, balki ular kelajagi uchun "poydevor" bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya bola ruhiy fazilatlarning butun spektrini qamrab olishi kerak, lekin ular har xil yo'llar bilan hal qilinadi. Asosiy ahamiyat yoshga xos bo'lgan fazilatlarni qo'llab-quvvatlash va har tomonlama rivojlanishdir.

Bolalik juda tez rivojlanadi, bolaning xatti-harakatlaridagi barcha o'zgarishlarni kuzatib borish va uning rivojlanishi uchun o'ziga xos sharoit yaratish uchun vaqt ajratish kerak. Ta'lim jarayonida bola uchun o'yin faoliyatining ajralmas qismiga aylangan sharoitlarni yaratish lozim. "Bolalik – kelajak hayotiga tayyorgarlik ko'rish bosqichi". Har bir bola baxtli bo'lishga haqli. Bolalik – bu o'z-o'zidan qimmatli davr, bu shaxsiyatni shakllantirishning birinchi bosqichi bo'lib, uni maktabga tayyorgarlik davri deb hisoblash mumkin emas, aksincha, bu hayotning keyingi davriga tayyorgarlik bosqichidir.

"Shaxsiyatning asosiy madaniyati" atamasi nimani anglatadi va "shaxsni har tomonlama tarbiyalash va barkamol rivojlanirish" atamasi bilan qanday bog'liq? Maktabgacha yoshdag'i bolalikning ichki dunyosini tanolish va uning shaxsiyatini shakllantirishning birinchi bosqichi sifatida tushunish kombinatsiyasi bolalar bilan pedagogik ishning vazifalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Maktabgacha yoshda bola umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga mos keladigan shaxsiy madaniyat asoslarini, uning asosini egallaydi. Shaxsiy madaniyat asosining tarkibi bolaning tabiatga yo'nalishini, inson qo'li bilan yaratilgan ob'ektlarni, ijtimoiy hayot hodisalarini, nihoyat, o'z hayoti va faoliyati hodisalarini o'z ichiga oladi. Shaxsiy madaniyatning asosi – bu insonning insoniy prinsipi, umuminsoniy qadriyatlari (go'zallik, yaxshilik, haqiqat va boshqalar) va hayot vositalariga (voqyelik haqidagi g'oyalar, dunyoga faol ta'sir qilish usullari, uning namoyon bo'lishi) hissiy va baholovchi munosabat. Shaxsiy madaniyat asosining shakllanishi shuni anglatadiki, bola ma'lum bir davrda yoki ma'lum bir davrda odamlar uchun qimmatli bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan narsalarga emas, balki umumiyligi bardoshli insoniy qadriyatlarga bog'liq. Inson hayotining universal (universal) vositalariga qo'shiladi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdag'i ta'lim va tarbiya jarayonlarini faqat shartli ravishda ajratish mumkin. Dunyoga qadriyatlari va faol munosabat vositalarini o'tkazish faqat bolalarning yoshini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "shaxsning asosiy madaniyati" sifatida bolalarga xos bo'lgan madaniyat, u har xil sharoitlar, usullar, usullar ta'siri ostida shaxsni har tomonlama tarbiyalash va barkamol rivojlanishini ta'minlaydi. "Shaxsiyatning asosiy madaniyati" va "shaxsni har tomonlama tarbiyalash va barkamol rivojlanirish" – bu bir tushuncha boshqasiga to'liq bog'liq bo'lgan ajralmas jayrayondir.

### Adabiyotlar

- Д.А.Чориева, Г.Ф.Ражабова. Значение педагогическо-психологического диагностического средства в дошкольных образовательных организациях. Results of National Sciyentific Research International Journal, 1(6), 327-343. (2022).
- Д.А.Чориева, Г.А.Камалова. Роль учителя в организации учебно-воспитательного процесса в образовательном учреждении. Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (пп. 161-166). (2021).
- Жураева, Н. Т. (2022). Технология развития навыков логического мышления при подготовке старших дошкольников к школе. International Academic Research Journal Impact Factor7.4, 1(6), 232-239.
- Jo'rayeva, N. (2022). Maktabgacha ta'lim sifati indikatorlarini amaliyotga joriy etish mazmuni. Euratsian Journal of Academic Research,2(11), 491-493.

## O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ISLOHOTLARI VA ULARNING AHAMIYATI

A.B.Mamatova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lif fakulteti" o'qituvchisi

В статье анализируются вопросы инклюзивного образования и педагогическая сущность концепции его развития.

**Ключевые слова и понятия:** образование, формы обучения, инклюзивное образование, педагогический анализ, методика, социальная политика.

The article analyzes the issues of inclusive education and the pedagogical essence of the concept of its development.

**Keywords and concepts:** education, forms of education, inclusive education, pedagogical analysis, methodology, social policy.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz har kuni yurgan yo'llardan ayrim bolalar yura olmaydi, biz har kuni ko'rgan go'zallikni ko'ra olmaydi, atrof olamdag'i voqyea-hodisalarni eshitma olmaydi, chunki uning harakatlanishi falajlik oqibatida chegaralanib qolgan, uning ko'zlarini ojiz, quloqlari eshitmaydi. Amma bu bola ham har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetishi, hamma qatori jamiki go'zalliklardan baha olib yashashi mumkin edi, biroq salbiy omillar ta'sirida u bundan bebahra qolgan.

Turli xildagi sabablarga ko'ra ruhan yoki jismonan nuqsonli bo'lib qolgan bolalarni e'tiborsiz holda, jamiyatdan alohida chetlab tashlab qo'yib bo'lmaydi. Imkoniyatlarining chegaralanib qolganligi oqibatida korreksion yordamga muhtoj.

Nogiron bolalar bilan korreksion ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ish olib borish, ijtimoiy jamiyatga moslash-tirish imkoniyatlaridan foydalaniib, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada nafi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday halqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi" [1].

Shuning uchun ham bu vazifalarni to'laqonli amalga oshirish maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni huquqlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida jahon miqyosida "Inklyuziv ta'lif" siyosat darajasiga ko'tarilib xalqaro huquq normalari BMT ning 1989 yilgi "Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya"si, Dakar Deklaratsiyasi, Salamanka bayonoti va Ish rejasи (1994yil) kabilarda o'z aksini topgan. Biroq juda ko'p hollarda maxsus yordamga muhtoj bolalar ta'lifdan chetda qolib ketmoqdalar. Bunga asosiy sabablar birinchi navbatda ota-onalarning farzandiga bo'lgan e'tiborining sustligi bo'lsa, keyingi galda bu bolani o'qitish uchun ta'lif muassasalarning o'sha hududda yo'qligi yoki juda uzoqda joylashganligidir. Bu esa maxsus yordamga muhtoj bola uchun juda ayanchli holdir. Chunki mavjud nuqson tufayli uning imkoniyatlari chegaralanib qolgan, bola ta'lif-tarbiya olmasa va undagi nuqsonni tuzatish ishlari olib borilmasa, nuqson darajasi yanada og'irlashadi, ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqadi va uning o'z o'ziga xizmat qilish malakalari shakllanmay

soladi. Ijtimoiy hayotga moslashishi qiyinlashadi. Bir so'z bilan aytganda u "nogiron" bo'lib qolaveradi. O'z navbatida jamiyatda nogironlarning ko'payishi shu ja-miyat taraqqiyotini orqaga tortadi. Mana shunday oqibatlarga olib kelmasligi, maxsus yordamga muhtoj bo'lagan bolalarning haq-huquqlarini to'laligicha ta'minlash maqsadida ham inklyuziv ta'lifni joriy etish masalalari keng tus olmoqda.

Inklyuziv ta'lifning mohiyati ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalardan «nogiron» de-gan tamg'ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlikni ta'minlash, jamiyatga to'laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lif mak-tablari tizimida o'qitishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasida ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Natijada inklyuziv ta'lifning doir xalqaro huquqiy me'yoriy hujjalari, rivojlangan chet el davlatlarning inklyuziv ta'lif tajribalari o'rganib chiqildi va ularga asoslangan holda yangi tahrirdagi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi "Inklyuziv ta'lif" deb nomlanib, "Inklyuziv ta'lif alohida ta'lif ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xil-ma-xillagini hisobga olgan holda barcha ta'lif oluvchilar uchun ta'lif tash-kilotlarida ta'lif olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan"ligi qonuniy asos bilan mustahkamlandi [2].

Inklyuziv ta'lif masalasiga davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi sifatida qaralib, PQ-4860-sonli "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjalarni tasdiqlash to'g'risida" 638-sonli qarorlari qabul qilindi. Mazkur ishlarning natijasi sifatida inklyuziv ta'lifning barcha jihatlari, joriy etish yo'llari, maqsad va vazifalari, bu so-hadagi islohotlar "Umumiyo'rtta ta'lif tashkilotlarida inklyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2020-2025 yillarda xalq ta'lifi tizimida inklyuziv ta'lifni rivojlantirish Konsepsiysi, 2020-2025 yillarda xalq ta'lifi tizimida inklyuziv ta'lifni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da bel-

gilab olinib, amaliyotga joriy etish borasida ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalgalashirilmoqda.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalar kutilmoxda:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning rivojlanishi, reabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta’limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta’minlanadi;

- davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta’lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

- inklyuziv ta’lim tizimining umumiy qulayligi, uzluk-sizligi, ta’lim sifati, shuningdek o‘quvchilarining rivojlanish darajasi, xususiyatlarga moslashu-vchanligi va variativligiga erishiladi [4].

Konsepsiya amaliy natijalariga muvofiq Respublika miy-yosida o‘tgan 2021-2022 va joriy 2022-2023 o‘quv yilidan 130 dan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziv va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar tash-kil etildi.

Inklyuziv ta’limning amaliy natijalarini o‘rganish maqsadida Toshkent shahar Uchtepa tumani 109-sonli, Chilonzor tumani 163-sonli, Sergeli tumani 55-sonli, Olmazor tumani 134-sonli, Samarqand viloyati Samarqand shahar 81-sonli, Yunusobod tumani 70-sonli, Shayxontoxur tumani 324-sonli, Yakkasaroy tumani 135-sonli, Samarqand viloyati Samarqand shahar 81-sonli davlat umumta’lim maktablaridagi inklyuziv ta’limning joriy etilish holati o‘rganildi. Sergeli tumani 55-umumiy o‘rta ta’lim maktabiga Sergeli tumani XTB buyrug‘i asosida 6 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilgan. Ushbu ta’lim shaklini joriy etish bo‘yicha barcha me’yoriy hujjatlar yuritilgan. O‘quvvchilar bilan olib borilgan suhbat va savolnomalar asosida inklyuziv sinflar o‘quvvchilar uchun o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha metodik ta’midot zarurligi, bu borada o‘quvvchilar malakasini oshirishga juda katta zaruriyat mavjudligi, dars jarayonini kuzatish asnosida inklyuziv sinflarda o‘quvvchilar sonini kamaytirishga katta ehtiyoj borligi aniqlandi.

Bayon etilgan qiyinchiliklar bilan bir qatorda 55-maktabda inklyuziv ta’limni joriy etishda ko‘zga ko‘rinarli yutuqlarga ham erishilgan. Koxlear im-plant o‘rnatilgan 1-“a” sinf o‘quvchisi (Uralov Azizbek Oybek o‘g‘li) umumta’lim dasturi talablarini yaxshi o‘zlashtirmoqda, boshqalar bilan bemalol og‘zaki muloqotga kirishadi.

Uchtepa tumani 109-maktabga tuman Xalq ta’limi bo‘li-mining qarori bi-lan 2 nafar koxlear implantli o‘quvvchilar 2021-2022 o‘quv yilida 1-sinfga qabul qilingan bo‘lib, o‘quv-tarbiya jarayonida yutuqlar talaygina.

Chilonzor tumani 163-maktabning 1-sinfida tajriba-sinov tariqasida im-koniyati cheklangan 2 nafar o‘quvchi inklyuziv ta’limga jalb etilgan. Olmazor tumani 134-maktabning 1-sinfiga 8 nafar imkoniyati cheklangan o‘quvvchilar inklyuziv ta’limga jalb etilgan bo‘lib, 2 nafar koxlear implantli o‘quvvchilar (Mustafoev Sirojiddin Chorshanbi o‘g‘li, Fay-zullaev Foziljon Sirojiddin o‘g‘li) maktab dasturini yaxshi o‘zlashtirmoqda. Ular sog‘lom tengdoshlari bilan og‘zaki

muloqotga kirishadi. Yunusobod tumani 70-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-sinfiga ham uch nafar (Abdusattorova Xolida Sanjar qizi, Hamidova Sabina Xurshidovna, Abdumajidova Dinara Dilmurod qizi) alohida ehtiyojli o‘quvchi qabul qilingan bo‘lib, uzoq yillik tajribaga ega maktab direktori (Qodirova Barno Mirvalievna)ning alohida yordami va alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan g‘amxo‘rligi, o‘quvvchilarining mahorat va tajribasi sababli inklyuziv o‘quv-tarbiya jarayonida ko‘zga ko‘rinarli yutuqlarga erishilgan. Masalan, 1-a inklyuziv sinf koxlear implant o‘quvchisi (Abdusattorova Xolida Sanjar qizi)ning nutqi birmuncha yaxshi rivojlangan bo‘lib, boshqalar bilan og‘zaki muloqotga kirisha oladi, o‘quv dasturini yaxshi o‘zlashtirmoqda.

Shayxontoxur tumani 324-umumiy o‘rta ta’lim maktabi inklyuziv ta’limni tashkil etish bo‘yicha boy tajribaga ega bo‘lib, hozirda 20 nafar alohida ehtiyojli o‘quvchi mavjud. Ulardan 6 nafari boshlang‘ich sinflarda, 14 nafari yuqori sinflarda ta’lim-tarbiya olmoqdalar.

Inklyuziv sinflarda o‘quv tarbiya jarayoni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilgan. Lekin shu bilan birga inklyuziv maktablar uchun metodik qo‘llanmalarning yetishmasligi asosiy muammo ekanligi aniqlandi.

Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 81-sonli davlat umumiy ta’lim maktabida ham eksperimental o‘rganish ishlari olib borildi. Ushbu maktabning birinchi sinflariga 2022 yilning sentyabr oyida komissiya xulosasiga muvofiq 5 nafar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar (koxlear implant Valyaev Emi, RRS tashxisi qo‘yilgan Akbarova Anisa, Dauletbaev Abdulaziz, Nar-zullaev Firdavs, Askarov Otobek) 1-sinfga qabul qilingan.

1 sinf o‘quvvchisi Dexkanova Muxayyo Muzaffarovna ning inklyuziv ta’lim ish tajribasi va o‘quv jarayoni o‘rganilganda, bu borada o‘quvvchi tomonidan quyidagi muvaffaqiyatlarga erishilganligi aniqlandi:

- Dexkanova Muxayyo Muzaffarovna tomonidan barcha o‘quv dasturlari alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilib qaytadan tuzilgan;

- alohida ehtiyojli bolalarning har biri uchun individual rejalar tuzilgan;

- har chorakda inklyuziv ta’limdagagi alohida ehtiyojli bolalarning o‘klashtirish ko‘rsatgichlari monitoring qilib borilmoqda;

- darsdan keyin va bo‘s sh vaqtarda alohida ehtiyojli o‘quvvchilar uchun individual ish grafigi tuzilgan;

- alohida ehtiyojli uquvvchilar sinfida alohida qadr-qimmat va mavqyega ega;

- o‘quvvchilarining dastur talablarini o‘zlashtirishlari yuqori darajada;

- alohida ehtiyojli o‘quvvchilarining muloqot ko‘nikmalari shakllangan.

- sinf o‘quvvchilar o‘rtasida do’stona munosabat yaratilgan.

Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda inklyuziv ta’limni joriy qilishda ko‘plab muammolar va to‘siqlar talaygina. Muammolarni va to‘siqlarni hal et-ish zaruriyatdir. Chunki jamiyatimizda yashayotgan har bir maxsus yordamga muh-

toj bola bizning ham farzandimiz. Alovida ehtiyojli bolalarga “Ular kimn-ing farzandi?” deya savol berish o‘rinsizdir. Zero, ularning kamoloti bizning ham kamolotimiz, ularning fojiasi bizning ham fojamizdir.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. 2020 yil 30-sentyabr. (<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>)
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari milliy bazasi. Lex.uz

3.BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006 yil 13 dekabr

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025 yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)

5. M.Mamatov, A Isomiddinov, S Yuldashev. Factors of Developing the Intel-lectual Abilities of the Youth. Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth 8. International Journal of Progressive Sciences and Technologies 16 (2), 311-313\

6. U. J. Mansurov. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta’lim va yangicha pedagogik yondashuvlar.

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILAR BILAN PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI TASHKIL ETISH

D.R. Babayeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasini professori Z.M.Salixova, magistratura bosqichi talabasi

Основной целью дошкольного образования является интеллектуальное, физическое и духовное развитие детей, эффективная подготовка их к школьному обучению.

**Ключевые слова и понятия:** дошкольное образование, современные образовательные технологии, инновации в образовании, педагогическая диагностика, воспитанники.

The main goal of preschool education is the intellectual, physical and spiritual development of children, their effective preparation for schooling.

**Key words and concepts:** preschool education, modern educational technologies, innovations in education, pedagogical diagnostics, pupils.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan chuqur o‘ylangan islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillari ishlab chiqilmoqda. Hozirgi davr ta’lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabatda bo‘lish, yuksak madaniyatli kasb egasi, metodik jihatdan mahoratli, zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini va innovatsiyalarni mukammal egallagan kadrlarni talab etmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalaruvchilar bilan pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etishning yo‘llari va vositalarini o‘rganish hamda tavsiyalar ishlab chiqishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruh tarbiyalaruvchilar bilan o‘qish malakalarining pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etishning yo‘llarini o‘rganish va tahlil qilish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruh tarbiyalaruvchilar bilan o‘qish malakalarining pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etishning yo‘llari darajasini aniqlash va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruh tarbiyalaruvchilar bilan o‘qish malakalarining pedagogik diagnostika faoliyatini tashkil etishning yo‘llari va vositalari bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur ekanligini ko‘rsatdi.

Maktabgacha ta’limni davr talablari asosida takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ustuvor o‘rin egallamoqda. Maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi bolalarni intellektual, jismoniy, ma’naviy rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga

samarali tayyorlashdan iborat. Tilni amalda o‘zlashtirish ona tilining barcha tovush birliklarini (tovush – bo‘g‘in – ibora – matn) tinglab ajratib olish va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni nazarda tutadi, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolada tovushni talaffuz qilishni shakllantirish borasidagi ishlar mun-tazam ravishda olib borilishi lozim.

Ohang, tembr, pauza, urg‘ulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi. Bolaga intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanishni, bildirilayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini, balki emotsiyal xususiyatlarini ham bergen holda, uning intonatsion tasvirini qurishni o‘rgatish juda muhim. Shu bilan parallel ravishda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, talaffuz tempi, past-balandoqligini to‘g‘ri qo‘llash, tovushlar, so‘zlar, iboralar, gaplarni aniq talaffuz qilish (diksiya) qobiliyatini shakllantirish ishlari ham olib borilishi lozim.

Bolalarda nutqning intonatsion jihatiga diqqat-e’tibor qaratishni tarbiyalar ekan, katta yoshli odam (pedagog) uning nutqni tinglash qobiliyatini, tembr (har bir tovushning o‘ziga xos bo‘lgan sifati) va vaznni his qilish, tovush kuchini sezishni rivojlantiradi, bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Nutq intonatsiyasi, tovushning ifodaliligi ustidagi ishlar bolalarning bildirilayotgan fikrga nisbatan, matndan kelib chiqqan holda, ovozini balandlatib yoki pasaytirib, talaf-

fuz qilinayotgan matnga mantiqiy va emotsiyonal urg'u beinish orqali o'z munosabatini bildirishni o'rganishlari uchun zarur. Buning uchun pedagog tegishli topshiriqlardan ko'proq foydalanishi lozim. Aynan ushbu qobiliyatlar bolaga turli-cha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish – hikoya qilish, tasvirlash, mulohaza yuri-tilish uchun zarur bo'ladi. Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, bolaga fikrlarning predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o'rgatishi lozim. Nutqning past-balandligi o'rinci bo'lishi, tezligi esa atrofdagi muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to'g'ri nutqning muhim ko'rsat-kichi bo'lib, uning ravonligi hisoblanadi.

Artikulyasion va intonatsion qobiliyatlarning uzviy bog'liqligi keng ma'nodagi tinglash va artikulyasion-talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ish jarayonida tarbiyachi bolalarga so'zning tovush tarkibini, so'zdagi urg'u o'rnini tinglab, aniqlay olishga, qofiya va vaznni his qilish tuyg'usini rivojlantirishga, aniq talaffuzni, so'zlar, iboralar, gaplarning turli intonatsion tavsiflarini bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanishi zarur. Bu murakkab nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish fonetik mashqlarni takrorlashni, ularni muntazam ravishda o'tkazishni talab qiladi. Quyidagilar talaffuz chog'ida qiyinchiliklarga olib keluvchi jihatlar hisoblanadi:

1. Unli tovushlar talaffuzi; 2. "A" va "O" tovushlarining noto'g'ri talaffuz etilishi; 3. "I"ning o'rniga "ye" ning talaffuz qilinishi; 4. "I"ning chuqur talaffuz etilishi; 5. Unli tovushlarni tushirib qoldirilishi; 6. Jarangsiz undoshlarni jarangli yoki aksincha talaffuz qilinishi; 7. "N" tovushini talaffuz qila olmaslik; 8. "S", "Z", "J" sirg'aluvchi tovushlarning noto'g'ri talaffuz etilishi; 9. "R" va "L" tovushlarini aralashtirib yuborilishi; 10. Qo'shimchalarni chaynab qo'yish; 11. "X" va "H" tovushlarini farqlay olmaslik; 12. "F" tovushini noto'g'ri talaffuz qilinishi.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan zamonaviy talablar pedagoglarni ta'limga rivojlantirishga yo'naltiradi, maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishing kognitiv, o'zin, qidiruv va ta'limga o'zaro ta'siri elementlarini sintez qiladigan yangi texnologiyalardan foydalanish zarurligini taqozo etadi. Interfaol pedagogik texnologiyalarni ta'limga jarayoniga joriy etish maktabgacha yoshdagagi bolalarining integrativ fazilatlarini shakllantirish, ularni zamonaviy ta'limga standartlari tomonidan belgilangan vazifalarga muvofiq atrofdagi odamlar bilan muлоqot qilishning konstruktiv usullari va vositalarini o'zlashtirishga qaratilgan. "Innovatsiya", "Interfaol usullar", "innovation texnologiyalar" to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'limga tashkilotlarda o'rgatish samaradorligini orttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o'zlashtirish natijalariga erishishni ta'minlovchi Interfaol usullardan foydalanishning samarali yo'llarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo'yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir.

Ta'lif jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kun-da quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- ta'lif jarayonining aniq maqsadini aniqlash;
- ta'lifning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo'lgan ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqish;
- moddiy va texnik ta'minotini yaratish;
- ta'lif oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- bolaning tayyorgarligi mashg'ulotini loyihalash.

Yuqoridaqgi vazifalar ichida eng muhimi, bu ta'lif jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo'lgan ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Bu muammolarni u yoki bu aniq bir usulni tavsiya etish bilan, ayniqsa, pedagog reproduktiv ta'lif usullarining qo'llashni maqsad qilgan bo'lsa, hal etib bo'lmaydi. Maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'li, bu

– Maktabgacha ta'lif tashkilotlarining rivojlantiruvchi markazlarida o'zin faoliyatları orqali amalga oshirish, markazlar faoliyati uchun integrallashgan ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Rivojlantiruvchi markazlarda quyidagi metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir: o'zinli texnologiyalar; muammoli ta'lif; dasturlashtirilgan ta'lif; kompyuterlashtirilgan ta'lif. Bu texnologiyalar ta'lif mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, faoliyatning turli bosqichlarida turlicha qo'llanishi mumkin.

Bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olib, maktabgacha ta'lif tashkilotlarining rivojlantiruvchi markazlarida ishlash faoliyatini samarali bo'lishi uchun qator o'zinli texnologiyalar ishlab chiqish kerak bo'ladi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ta'lif berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muлоqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga yordam beradi.

Interfaol ta'lif - bu bolaning o'quv muhiti, o'rganilgan tajriba sohasi bo'lib xizmat qiladigan, o'quv muhiti bilan o'zaro ta'sirga asoslangan o'rganish. Interfaol ta'lifning mohiyati shundaki, o'quv jarayoni barcha maktabgacha yoshdagagi bolalarning doimiy faolligi va o'zaro ta'siri sharoitida amalga oshiriladi. Doimiy hamkorlik va o'zaro ta'lif mavjud: tarbiyachi-bola, bola-bola. Shu bilan birga, tarbiyachi va bola teng huquqli ta'lif sub'ekti hisoblanadi. Bu mashg'ulotda bir ishtiroychining boshqasidan ustunligini istisno qiladi. Interfaol usullar yordamida bolalar fikrlashni, muлоqot qilishni va qaror qabul qilishni o'rganadilar. Bundan tashqari, bu xayrixohlik va o'zaro yordam muhitida sodir bo'ladi, bu nafaqat yangi bilimlarni olishga imkon beradi, balki kognitiv faoliyatning o'zini ham rivojlantiradi, uni hamkorlik va hamkorlikning yuqori shakllariga aylantiradi. Bolalar katta yoshdagilarning mehnat faoliyatida juda erta ishtiroy eta olishlari uchun ijtimoiy jamiyatda syujetli-rolli o'yinlarni tashkillashtirishga ob'ektiv sharoitlar mavjud emas. Bu yerda bolaning mustaqil bo'lishga intilishi va kattalar hayotida ishtiroy etish istagi to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvatlangan va bola 3-4 yoshdan boshlab mehnat tarbiyasini o'zlashtiradi yoki kattalar bilan birgalikda o'ynashdan ko'ra ko'proq ularning mehnatlariga qiziqish bildiradi deyilgan.

Ushbu faktlar bizga muhim xulosa chiqarishimizga imkon berdi: jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida bolalnig ijtimoiy munosabatlari tizimidagi o‘rnini o‘zgartirish rolli o‘yinlar natijasida vujudga keladi. Interaktiv o‘yinlarning markaziy nuqtasi - bu bola o‘ynaydigan rol. Shu bilan birga, u nafaqat o‘zini kattalardek nomlaydi (“Men kosmonavtman”, “Men onaman”, “Men shifokorman”), balki eng muhimi, u kattalardek o‘zini tutadi. Voyaga yetgan bola singari, u ham xuddi shu narsani his qila oladi.

O‘ziga kattalar rolini ijro etish uchun tanlagan bolani, nofaol bo‘lib, faqat aqliy jihatdan – hayolida va tasavvurda harakat qilishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki, chavandozning, shifokorning yoki haydovchining rolini faqatgina ongda, haqiqiy amaliy o‘yinlarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

## Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13-maydag‘i “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 391-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019 y., 09/19/391/3120-son.

2. Djamilova N.N. “Maktabgacha metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi” TDPU. 2017y.

3. Fayzullayeva M., Z. Raximova, M. Rustamova “Maktabgacha yoshdag‘i bolalarning nutqini o‘stirish” (Tayyorlov guruhi uchun mashg‘ulotlar ishlanmasi). -T.: 2010.

4. Egammazarova Sh. M. “Tarbiya ishlar metodikasi” Ilim ziyo T.: 2016-y. O‘quv qo’llanma.

# ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘QUV FAOLIYATIDA NATIJAGA ERISHISH MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TAHLILI

A.P.Xolturayev, Termiz davlat pedagogika instituti “Psixologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

Данная статья посвящена психологическому анализу проблемы достижения результата в образовательном процессе.

**Ключевые слова и понятия:** подросток, учебная деятельность, образовательный процесс, организация образовательного процесса.

This article is devoted to the psychological analysis of the problem of achieving results in the educational process.

**Key words and concepts:** teenager, educational activity, educational process, organization of the educational process.

Bugungi kunda har qanday o‘quv jarayoni muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘quv faoliyati jarayonida natijaga erishish qobiliyati bo‘lishi kerak. Ta’lim jarayoni ishtirokchilar, xususan o‘quvchilarni rag‘batlantirish muammoasi ana shu natijaga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan muammodir.

O‘smir o‘quvchilarining natijaga erishish jarayoni-bu ularni bilimga undash jarayonlari, usullari va vositalari, faoliyati, ta’lim mazmunini faol rivojlantirishdir. O‘smir o‘quvchilar uchun o‘quv faoliyatida natijaga erishish-o‘quv jarayonini takomillashtirishning eng samarali usulidir. Natijaga erishish motivatsiyasi-bu shaxsning ma’lum bir o‘rganish mavzusiga ham, butun ta’lim jarayoniga munosabatini o‘zgartirishning juda samarali jarayonidir. “O‘quvchi uchun hayotda yuqori cho‘qqilarga erishish va o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi uchun doimiy muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi zarur hisoblanadi”. “Bugungi kunda insonning muvaffaqiyati har bir inson hayoti ko‘rsatkichlaridan biri sanaladi [1].

O‘smir o‘quvchilarda o‘quv faoliyati orqali ularning aqliy rivojlanishi va mustaqil ishlash qobiliyati darajalari quyidagi mezonlar bilan baholanadi [2]:

- tafakkurning mustaqilligi bilan;
- o‘quv materialini o‘zlashtirishning tezligi va mustahkamligi bilan;
- standart bo‘lмаган vazifalarni hal qilishda aqliy chamlashning tezligi bilan;
- o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish;

– aqliy qobiliyatning tanqidiy asossiz mulohazalarga moyillikning yo‘qligi bilan ajralib turadi.

Natijaga erishish muammofiga oid kognitiv yondashuv ham o‘ziga xos ta’limot sanaladi. Natijaga erishishning kognitiv nazariyaning yaratilishiga U.Djeymsning qarorlarni qabul qilish haqidagi qarashlari turki bo‘ldi. Unga ko‘ra, insonda qaror qabul qilishning bir nechta turlari mavjud, ya’ni, niyatni shakllantirish, g‘oyani tanlash, harakat qilish istagidan iborat. [4.] Ya’ni, bunda inson harakatlarini rejalashtiradigan yoki unga mos keladigan vaziyatlarni tanylaidigan, ongli ravishda anglangan qarorlar motivatsiyaning asosini belgilay oladi.

Ushbu ta’limot namoyondachilari fikricha, natijaga erishish tushunchasining mazmuni o‘zida ijtimoiy ehtiyojlar, hayotiy maqsadlar, kognitiv omillar, qadriyatlar, muvaffaqiyatga intilish, kutish, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, da‘vogarlik kabi psixologik tushunchalarni ham qamrab oлади [5].

Demak, inson faoliyati uchun nafaqat ong, ehtiyoj balki, ijtimoiy xarakterdagи yutuq motivi, a’zolik motivi, kuch motivi kerakligi aniqlanadi.

Shuning uchun ham psixologik tadqiqotlarda, o‘smir o‘quvchilarda natijaga erishishni shakllantirish masalasi o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘quv faoliyatini rivojlanish, kasbiy kamolot, o‘quv jarayonida refleksiya, faoliyat psixologiyasi kabi fenomen tushunchalar mohiyatini o‘rganish orqali tu-shuntiriladi.

O'smir o'quvchilarning natijaga erishish ko'nikmalari, ijodiy faoliyati, o'z-o'zini rivojlantirish masalalarining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari, ko'pchilik tadqiqotchilar diqqat e'tiboridan chetda qolgan. Shuning uchun ham, o'quv faoliyati jarayonida natijaga erishish masalasi unga yaqin bo'lgan tushunchalar orqali o'rganiladi. N.A.Rubakin o'zining "o'z-o'zini rivojlantirish amaliyoti" asarida o'smir o'quvchi faoliyatini tahlil etar ekan, muvaffaqiyatlari o'quvchilarda natijaga erishishda o'zini o'zi takomillashtirishning quyidagi asosiy jihatlarini ajratadi [6].

Ularga:

- kasbiy bilimlarni doim to'ldirib borish;
- pedagogik mahoratni oshirish;
- umumiy dunyoqarashni kengaytirish;
- o'quv faoliyati jarayonini samarali tashkil etish qobiliyati;
- o'z-o'zini kuzatish, ichki kuzatish, o'zini qadrlay olish;
- o'zini boshqalar bilan taqqoslash, o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish va hokazo.

Bundan tashqari, o'smir o'quvchilar shaxsida o'quv faoliyati jarayonida izlanuvchanlik mahorati ham farqlanib, u psixologik-pedagogik usullarni ta'lilda mohirona qo'llay bilish, o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta olish kabi sifatlar bilan tushuntiriladi. Demak, o'smir o'quvchilar o'quv faoliyatida natijaga erishish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda o'quvchining akademik qobiliyati, ilmiy yo'nalganligi, kasbiy ko'nikma va malakalari hamda shaxsni tarbiyalash uchun muhim sanalgan hayotiy qadriyatlar tizimi kabilalar ham aks etadi.

Natijaga erishishning asosida har bir kishi uchun xos bo'lgan o'zini namoyon qilish istagi yotadi [8]. Bunday yondashuv biror bir faoliyatda shaxsning hayotdagi faol rolini tanolishi, har bir kishida tanlov mavjud va bu uning kelajakdagi hayot yo'nalishini belgilaydi

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida natijaga erishishi bu, o'quv malakalarini oshirish, tashqi ijtimoiy talablarga tayyor turishlik, o'quv faoliyati shart-sharoitlaridan xabardorlik kabilalar bilan xarakterlanadi.

Psixolog E.P.Illining ta'kidlashicha, shaxsiy xususiyatlar muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya xususiyatlariga ta'sir qiladi va motivatsiya xususiyatlari mustahkmalanib, shaxsiyat xususiyatlari aylanadi. Shu bilan birga, psixolog muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining rivojlanishiga asosiy ta'sirni o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va o'z-o'zini samaradorligi g'oyalari kabi shaxsiy xususiyatlarni belgilaydi.

O'quv faoliyatida natijaga erishish bilan bog'liq ehtiyoj har doim ham odamning qoniqish yoki norozilik hissi bilan bog'liqidir. Barcha tirik mavjudotlarda ehtiyojlar bor va shu orqali hayot tarzi bir-biridan katta farq qiladi. Inson faoliyati ham xuddi shunday qonuniyatga bo'y sunadi. Boshqa bir tomonidan farqi shuki, istaklar ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, ayni paytda tanada etishmayotgan narsalarga javob beradi. Ehtiyoj tanani faollashtiradi, uning harakatlarini rag'batlantiradi, insonga kerakli narsani topishga yordam beradi. Hayotiy vaziyatlarga ko'ra, ehtiyojlar moddiy (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy ehtiyojlar), ma'naviy (atrof-muhitni va o'z-o'zini anglash ehtiyojlar, ijodkorlik, estetik zavq olish ehtiyoji) va ijtimoiy (muloqot, ish, ijtimoiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlar)ga bo'linadi.

O'quv faoliyatining ilmiy masalalariga oid zamonaviy tadqiqotlarda, o'smir o'quvchilarning muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning ta'sirini aniqlash va uni maxsus yondashuv hamda usullar yordamida ilmiy asoslash zarurati tobora ortmoqda. O'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish, o'quv faoliyati yuqori natijalarini qayd etish, tanlangan o'quv faoliyatida o'smir o'quvchining imkoniyatlarni to'liq ta'minlash, ularni taktik va psixologik jihatdan tayyorlash muhimligini nazarda tutmoqda.

O'quv faoliyatida natijaga erishishni ilmiy manbalarda o'rganish holati shuni ko'rsatadi, natijaga erishish yo'lini anglash ko'proq shaxsning qadriyatlari tizimi bilan bog'liqidir. O'quv faoliyatida yaxshi natijalarini ta'minlovchi psixologik sifatlarga quyidagilar kiradi;

- qaror qabul qilishda samaradorlik;
- shaxsiy mavqega intilish;
- o'z harakatlari uchun javobgarlikni his eta olish;
- ko'pchilik orasida boshqalardan farq qilishga harakat qilish qobiliyati;
- chuqur hissiy tajribalarning mavjudligi;
- boshqa odamlar bilan uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish va ularni qo'llab-quvvatlash va boshqalar. Ushbu tasnifga muvofiq, o'quv faoliyatining muvaffaqiyati-bu shaxs his-tuyg'ularining maxsus ichki faoliyatiga asoslanib, u o'z vaqtida maxsus yo'naltirilgan, yaxlit dinamik psixologik hodisadir. Bundan tashqari, har qanday faoliyat turining samaradorligi, undagi sub'ektlarning o'z maqsadlarini to'liq anglashi hamda keng qamrovli ijtimoiy faolligi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy psixologik adabiyotlarda qayd etilishicha, o'quv faoliyati muvaffaqiyati, psixologik nuqtai-nazardan, motivlar va his-tuyg'ular manbai sifatida, faol o'smir o'quvchi hayotida juda muhim o'rin tutadi.

O'quv faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiyasini oshirish bilan bog'liq ilk tadqiqot D.Makkellandning izlanishlarida o'z aksini topgan. Uning mazkur konsepsiyasi F.Gersberg nazariyasiga yaqin bo'lib, mazmunan o'quv faoliyati jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan. D.Makkellandning fikriga ko'ra, eng yuqori darajadagi ehtiyojlarning tarkibi uchta turga bo'linadi. Ular muvaffaqiyatga erishish, hokimiyatga intilish va ishtirok etish kabilardan iborat. Mazkur yondashuvga muvofiq muvaffaqiyat atrofdagilar tomonidan maqtov yoki e'tirof sifatida emas, balki faol o'qish natijasida erishilgan shaxsiy yutuqlar, qiyin qarorlarda ishtirok etishga tayyorlik va o'qishdagi shaxsiy javobgarlik sifatida qaraladi.

Yuqorida tahil etilgan va ilmiy dalillangan nazariy ma'lumotlardan kelib chiqib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- o'quv jarayoni faoliyati-umuman olganda, yuqori natijalarga erishishga va o'z maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan, shaxsning jismoni va aqliy imkoniyatlarni aniq baholovchi faoliyat turlaridan biridir.

- o'quv faoliyatida natijaga erishish bu-murakkab tuzilma, subyektning psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlari bilan bog'liq irrodaviy sifatlaridan biri sanaladi.

Zamonaviy psixologiyada natijaga erishish muammosini o'rganishga doir yondashuvlar shu qadar o'zgarganki, ba'zida ularni oldindi yondashuvlarga nisbatan qarama-qarshi deb atash mumkin. Shuning uchun, biz aynan bitta individual nazariyani tahlil qilishni emas, hozirga qadar amalga oshirilgan natijaga erishish muammosi borasidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqishga harakat qildik.

## Adabiyotlar

1. Маслоу А. Мотивация и личность / А. Маслоу. – СПб.: Питер, 2008. – С.224.
2. Роджерс К. Фрейберг Дж. Свобода учиться М.: Смысл, 2002.–С.58.
3. Парсонс Т. Структура социального действия / Гл. 1,2, 17, 18, 19 // О структуре социального действия. М.: Академический Проект, 2000 (1937). - С.123.
4. Джураева С.Н. Структурные компоненты профессионального имиджа педагога. // Школа будущего. 2018. № 4. С. 100-104.
5. Jurayeva S.N. Structural components of a teacher's professional image. // Europexebgan Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2019. 7 (12)
6. <http://innosci.org/index.php/jarsp/article/view/262>.

## IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR DOIRASIDA EMOTSIONAL INTELLEKT VA QADRIYATLAR O'ZARO ALOQADORLIGI MUAMMOLARI

Z.N.Raxmonova, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

В статье говорится о важности изучения взаимосвязи эмоционального интеллекта и ценностей в рамках социально-психологических исследований на сегодняшний день.

**Ключевые слова и понятия:** эмоциональный интеллект, ценности, личность, исследование, интеллект, социальная психология, потребность, установка, феномен, способность, воображение.

The article talks about the importance of studying the relationship between emotional intelligence and values in the framework of socio-psychological research today.

**Key words and concepts:** emotional intelligence, values, personality, research, intelligence, social psychology, need, attitude, phenomenon, ability, imagination.

Jahon hamjamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borgan sari inson aql zakovati va ma'naviyati hamda sog'lom tafakkuri asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda emotsiyonal intellekt muammosi ijtimoiy psixologiyining turli ob'ektlarida turli xil maqsadlar asosida o'rganilgan bo'lib, ularda emotsiyonal intellekt fenomenining umumiyligi tabiat, fanda qo'llanilishi va o'ziga xos amaliy-tatbiqiy yo'nallishlari ochib berilishi muhim ahamiyat kash etadi.

Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiq qilish bugungi kunda fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Emotsional intellekt o'zining his-tuyg'ularini tushunish va tanolish, o'z niyatlaridan to'liq xabardor bo'lish hamda ularni va o'zining xatti-harakatlarni boshqara olish qobiliyatidir.

"Emotsional intellekt" tushunchasi ilmiy paradigmaga kiritilishi bilan emotsiyonal va bilish jarayonlarining nisbati nuqtai nazaridan tadrijiy o'zgarish yuz berdi. R.Bar-Onning fikricha, "emotsional intellekt" tushunchasining shakllanishini Ch.Darvinnin nazariyalaridan boshlab kuzatish mumkin. Charlz Darvinnin ta'kidlashicha, "Ong kuchli qo'zg'alganda, u yurakka ham bevosita ta'sirini ko'rsata boshlashini kuzatishimiz mumkin. Yurak bu ta'sirni sezganda, u o'z reaksiyasini miyaga yo'naltiradi, bu esa, har qanday qo'zg'alishda ham ahamiyatlari o'zaro ta'sir va tananing bu ikki muhim a'zosi o'rtasidagi javob o'rniga ega bo'ladi" [2] deb o'z vaqtida fikr bildirgan edi.

Emotsional intellektga doir dastlabki ish 1930 yillarning oxirlarida R.L.Torndayk va S.Shteyn tomonidan o'tkazilgan tadqiqotdir. Tadqiqotchilar ijtimoiy intellektini "Odamlarni tushunish va ularni boshqarish qobiliyat" sifatida belgilashdi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Torndayk va Shteyn ijtimoiy intellekt unitar (birlashgan) qobiliyat sifatida o'chanishi mumkin [3] degan xulosaga kelishdi.

Tadqiqotlar natijasida asta-sekin intellekt tarkibiy qismlari ko'pligi ilmda tasdiqlandi. Mashhur olim L.Terstoun (1938) ning konsepsiyasini namuna sifatida keltirish mumkin, uning doirasida dastlabki yetti aqliy potensiya ajratiladi. Shunga qaramay, ko'rsatib o'tilgan omillar ichidan (hisob-kitob qobiliyati, verbal qabul qilish, verbal moslashuvchanlik, qabul qilish tezligi, makon orientatsiyasi, assotsiativ xotira) muallif emotsiyonal ma'lumotni intellektual qayta ishlashga bavosita bog'liq bo'lgan munosabatni topa oldi.

D.Veksler umumiyligi intellektning komponentlarini o'zida aks ettiruvchi, biroq intellektning an'anaviy koefitsientidan farqlanuvchi tafakkur turlari diapazoni mavjudligini biringchi bo'lib ma'lum qildi [4]. 1940 yilda kamdan-kam havola olinadigan "umumiyligi intellektidagi nointellektual omillar" maqolasida D.Veksler har bir "to'liq" o'chamda "umumiyligi qobiliyatlarning nointellektual jihatlari"ga e'tiborni qaratdi. Olim "nointellektual elementlar" deganda nafaqat psixikaning umumiyligi ishga layoqatini, balki uning affektiv-boshqaruv komponentlarini ham tushungan, uning sharofati bilan inson uzoq muddat unga ahamiyatlari bo'lgan sohadagi muammolarga bog'lanib turadi [5]. Shuningdek, maqolada muallif "kognitiv" va "affektiv" deb nomlagan ijtimoiy va emotsiyonal qobiliyatlar haqidagi ham o'z mulohazalarini bildirgan. Afsuski, bu omillar Vekslerning IQ testiga kiritilmagan, chunki u paytlarda bunga kam e'tibor qaratilgan. Veksler intellektual qobiliyatlarini verbal va noverbal turlarga (tasavvurga bo'lgan qobiliyat) ajratgan va turli kishilarda u yoki bu guruh ustunlik qilishini ko'rsatib bergen [6] edi.

Insonning bu hayot faoliyati ma'lum bir psixologik hodisalar, jarayonlar asosida sodir bo'ladi. Bu muloqot va o'zaro ta'sir davomida qadriyatlari ehtiyojlar davomida shakllanadi. Insonni ma'lum bir ehtiyojlar tizimi faollikkaga tortadi. O'z

ehtiyojlarini qondirish davomida insonda ko'plab qadriyatlar paydo bo'ladi va ularni qondirish uchun ma'lum bir urf-odatlar, an'analar qadriyatlar asosida shakllanadi. Biz qadriyatlarni ehtiyojlar bilan bog'liqligini A.Maslou nazariyasiga asosan tushunishimiz mumkin.

Insonlar ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilishlari zarur. Deylik, ma'lum bir sohada olib borilayotgan faoliyat o'sha soha uchun zarur va qadrli bo'lgan xatti-harakatlarga, qonunlarga, urf-odat va an'analarga rioya qilishi talab qilinadi. Ana shu narsalar shu faoliyat uchun qadrli va juda zarur hisoblanadi. Lekin bularga amal qilinmasa qadriyatning ahamiyati yo'qolib, qadrsizlik vujudga kelinadi. Bu esa odamlar o'rtasida sodir bo'layotgan o'zaro muloqotni, o'zaro ta'sirni buzilishiga olib keladi va ziddiyat paydo bo'ladi. Ishning unumdorligi buzilishiga, mehnat natijasining yo'qolishiga olib keladi.

Qadriyatlarni ijtimoiy tasavvur va ijtimoiy ustanovkalar asosida aytish mumkinki, u insoniyat shakllanishining muhim barqaror psixologik jarayonidir. Shuning uchun birinchi qadriyat insonlarning sog'ligi hisoblangan. Qadriyat bu puldan qadri bo'lgan barcha narsalardir.

Shaxsda qadriyatlar to'g'risidagi ijobiy ustanovkani shakllantirish, sub'ektni ushbu hodisalarga ishontirish sof ijtimoiy-psixologik voqyelik bo'lib, unga oxirgi yirik psixolog olimlar katta e'tibor bermoqdalar. G'arb mutaxassislarning asarlarida "qadriyat" atamasi ko'pincha "e'tiqod" atamasiga yaqin tushuncha sifatida talqin etiladi. Shunga ko'ra, yuksak qadriyatlarga nisbatan ijobiy ustanovkalar yoki e'tiqod shakllanishi jarayoni o'ta murakkab bo'lib, uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omil – bu axborotlardir, deb yoza di amerikalik ijtimoiy psixolog R.Aronson [7] demak, axborot bu o'rinda kundalik muloqot jarayonida bir shaxsning yoki ijtimoiy guruhning boshqa bir shaxs yoki ijtimoiy guruhga uzatadigan har qanday ma'lumotlari, kognitiv birliklarining majmuidir. Bizning izlanishimiz doirasida, bu talaba yoshlar muomalasida ro'y beradigan o'zaro ma'lumotlar almashinuvidir.

Ko'pgina g'arb psixologlarining fikrlarini umumlashtirib, Aronson shuni ta'kidlaydi, zamонавиј юшлар "axborotlar kasalligiga" duchor bo'lganlar. Uning yozishicha, "axborot kasalligini, tabiiy, faqatgina axborotli dori-darmon bilan davolash" mumkin [8]. Bu fikr bilan u oila muhitidagi o'zaro axborot almashinuviga ma'lum ma'noda zid ta'sir ko'rsatuvchi axborot manbalarining ko'pligiga diqqatni qaratadi. Ijtimoiy psixologiya sohasidagi mutaxassislarning fikricha, [9] ko'plab davlatlarda demokratiya nimaligini uning imtiyoz va imkoniyatlarini anglaganliklari tufayli, targ'ibot va tashviqot ishlari tobora kuchayib bormoqda, chunki ilk ijtimoiylashuvning manbai bo'lmish oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishiga halaqt berayotgan ijtimoiy omillar miqdori orbit bormoqda.

Shunday qilib, jamiyatda, oila muhitida, yoshlarga mos tarzda ularning xulqiga ta'sir ko'rsatishning barcha uslublari dan oqilona foydalana olishlari, kundalik xatti-harakatlarda ijtimoiy ongda mujassamlashgan, qadriyat sifatida e'tirof etilgan azaliy udumlardan hamda davr taqozosizi bilan qaror topayotgan odatlar va udumlardan o'rinni foydalangan holda ibrat namuna bo'lib harakat qilishlari lozim, bu holat yoshlarda qadriyatlarni ijobiy idrok etish, anglash va ijtimoiy tasavvurlar tizimida kognitiv ustanovkalar tariqasida mustahkamlashga asos hisoblanadi. Aks holda, an'analarga bepisandlik, ijobiy samara beruvchi rasm-rusumlarni bilmaslik shu muhitidagi muomaladoshlar

ongida, ijtimoiy tasavvurlari va bilimlarda kognitiv dissonansi keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun shaxsning qadriyatlarga nisbatan e'tiqodining tashqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishi yoki o'zgarishini tushuntirib beruvchi yana bir nazariya – bu G'arbda, aniqrog'i, Amerikada paydo bo'lgan kognitiv dissonanslar nazariyasidir. Uning muallifi va asoschisi Leon Festinger 1957 yilda ilk marotaba inson ijtimoiy hulqining mohiyatini tushuntirish uchun kognitiv dissonanslar nazariyasini asoslab berdi. Uning fikricha, shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda u yoki bu tarzda o'zini tutishi yoki o'z qarashlarini kognitiv ustanonkalar orqali namoyon etishida uning miyasidagi turli kognitsiyalar – fikrlar, g'oyalalar, qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlar sabab bo'ladi. Agar u yoki bu jarayon yoki xulq shakli xususida odamda bir xil mazmunli tasavvur yoki tushuncha mavjud bo'lsa, u osongina o'z xatti-harakatida dissonansli yoki boshqacha qilib aytganda qarama-qarshiliklarga boy bo'lgan harakatlarni namoyon etadi. Lekin, hayotda ko'pincha ijtimoiy tasavvurlar tarkibidagi fikr va tushunchalar bir xil bo'lmaydi. Ongda bir turli vaziyatga yoki odamlar guruhiga nisbatan turlicha tasavvurlarning mavjudligi dissonansi-kelishmovchilikni keltirib chiqaradi. Har qanday kognitiv ustanovkani paydo qilish ham ko'pincha ana shunday ichki ziddiyatlar sharoitida kechadi. Shaxslararo o'zaro munosabatlarda ham qaysi tomonning asoslari kuchli bo'lsa, o'sha tomonning ta'siri samaraliroqdir.

Yana bir amerikalik psixolog Robert Chaldini ham shogirdi Devid Shreder bilan birga o'tkazgan eksperimenti kognitiv dissonanslarni kamaytirish yo'l-yo'riqlariga bag'ishlangan. U ijobiy tasavvurlar hosil qilish va ijobiy kognitiv ustanovkalarni shakllantirishning turli usullari bor ekanligini asoslagan holda ularning aksariyatida ta'sir ko'rsatuvchining verbal uslublari qo'l kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Demak, birlamchi guruhda oilaviy qadriyatlarni uning a'zolari ongida barqarorlashuviga verbal muomala maromlarining samarasini katta ahamiyatga egadir.

G'arb mamlakatlaridagi psixologlar asosiy qadriyatlar ga nisbatan adekvat tasavvurlarni hosil qilish va uni o'zgartirishning omil hamda vositalari to'g'risida o'z g'oyalari va qarashlarini bildirar ekanlar, Aronson bunday usul va vositalarni "strategem"lar deb atab, shaxs dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishni to'rt strategemga ajratadi [10].

"Birinchidan, vaziyatni o'z nazorati ostiga olib, ta'sir uchun ijobiy muhitni tashkil etgandan so'ng ish boshlash, buni eski stereotiplarga, biddiyatlarga ta'sir o'tkazish deb atash mumkin" [11]. Olim bu o'rinda biddiyatning mohiyatini shaxs ongidagi "allaqachon ma'lum bo'lgan", "o'zidan-o'zi sodir bo'ladigan tabiiy holat" deb ataluvchi narsaday tushuntiradi va o'z ta'sirini o'tkazishda ana shu ma'lum va odatiy hodisalarni tushunarli tilda ifodalashni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, kommunikator o'zi to'g'risida auditoriyada ijobiy obraz yarata olishi kerak. Buni Aronson "manbag'a nisbatan ishonch" deb ataydi. Boshqacha qilib aytganda, ishon tiruvchi o'ziga nisbatan auditoriyani xayrixoh qila olishi, unga yoqishi, obro' qozonish uchun o'zidagi barcha fazilatlarni namoyon qila bilishi kerak. Masalan, bizning holatda oilani misol tariqasida oladigan bo'lsak, ota yoki onaning samimi yunusabati hamda farzandlari bilan iliq muomalasi tabiiy, ularning obro'si va martabasini o'smir ko'z o'ngida oshiradi, bu esa o'z navbatida, uning oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy kognitiv ustanovkani shakllantirishida kattalarning rolini yana orttiradi.

Uchinchidan, adresatga shunday tarzda murojaat qilish kerakki, uning butun fikr va diqqati aynan o'sha murojaatning mazmuniida mujassamlashib qolishi kerak. Buni muallif "nom-a, murojaatnom-a" deb ataydi. Demak, bu o'rinda gap bildirilgan murojaat yoki yuborilayotgan ma'lumotning sifati to'g'risida bormoqda. Oilada bu – masalan, bobolar yoki momolar o'gitlarining, hadisiy fikrlarning aniq maqsadda o'smir ongiga yetkazilishi tarzida tushuniladi.

To'rtinchidan, adresatda ijobjiy his-tuyg'ularni uyg'otish. Ya'ni, samarali ta'sir yoki ijobjiy ustanovka doimo ijtimoiylashuv ob'ektingin hissiyotlarini nazorat qila olishiga bog'liq. Bundagi asosiy qoida, Aronsonning fikricha [12], dastlab hissiyotlarni qo'zg'atish yoki boshqacha qilib aytganda, qiziqish uyg'ota olish, keyin tinglovchini shu hissiyotlarga qanday munosabatda bo'lishga o'rgatish orqali uning ongida aniq bir yo'nalishdagi ishonchni yuzaga keltirishdan iborat.

Bizningcha, shaxsnинг qadriyat yo'nalishlari tizimi ma'lum bir jamiyatning mavjud qadriyatlarini aks ettiradi-gan aniq ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda shakllanadi, bu esa o'z navbatida undagi rivojlanishning umumiyy iqtisodiy va madaniy darajasi bilan bog'liqdir.

### Adabiyotlar

1. Андреева И.Н. Взаимосвязь эмоционального интеллекта и тезауруса эмоциональных переживаний в юношеском возрасте/ И.Н.Андреева// Психология и современное общество: взаимодействие как путь взаиморазвития: материалы междунар. науч.-практ. конф., Санкт-Петербург, 28 – 29 апр. 2006 г. / СПБИУиП; редкол.: В.Н. Дежкин [и др.]. – СПб.,2006. – Ч. 1. – С. 17 – 21.

2. Андреева И.Н. Понятие и структура эмоционального интеллекта/ И.Н.Андреева// Социально-психологические проблемы ментальности: материалы 6-й междунар. науч.практ. конф., Смоленск, 26 – 27 нояб.2004 г.: в 2-х ч.; редкол.: В.А.Сонин [и др.]. – Смоленск: СГПУ, 2004. –Ч. 1. – С. 22 – 26.

3. Андреева И.Н. Предпосылки развития эмоционального интеллекта/ И.Н.Андреева // Вопросы психологии. – 2007. – № 5. – С. 57 – 65.

4. Изард К. Психология эмоций / К. Изард; пер. с англ. – СПб.: Питер, 2008. – 464 с. – (Серия «Мастера психологии»).

5. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.:Питер, 2000.- с.512

6. Исмаилова Г.У. «Вклад женщин Узбекистана в индустриальное развитие республики на этапе развитого социализма».

7. Камарова А.И. Культурно-психологические особенности взаимосвязи ценностей и эмоционального интеллекта. Канд.пс.наук (автореферат) Саратов - 2011 – 26с

8. Каменский Н. Социальная психология: Учебное пособие. Изд.4-е-Ростов н/д: Феникс, 2008. – С. 47, 55

9. Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент, 1994. – Б. 48–54;

10. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Дарслик . – Т.: "Fan va texnologiyalar" нашриёти, 2012.-172 б.

11. Каримова Г, Халилова Н. "Мулоқот маданияти модули бўйича" ўкув услубий мажмуга. Тошкент, 2018. Б. 17

12. Кеннон В. Физиология эмоций / В.Кеннон. – Л.: Прибой, 1927. – 173 с.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Д.Б.Касимова, преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz xotira ustunlik qiladi: qiziqarli bo'lgan va hissiyotlar paydo qiluvchi voqyea-hodisalar xotirada tezda va davomli saqlanib qoladi. Shunga ko'ra, o'yin texnikasini qo'llash ixtiyorsiz xotira uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi.

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** maktabgacha yosh, faoliyat, o'qitish, xorijiy til, o'yin, motiv.

In preschool children, involuntary memorization prevails: what is interesting and causes an emotional response is remembered well and quickly. Accordingly, the use of gaming techniques allows you to create conditions for involuntary memorization with the help of games.

**Key words and concepts:** preschool age, activity, learning, foreign language, game, motive.

В настоящее время без знания иностранных языков современному человеку обойтись невозможно. Изменился и возраст учащихся. Если до сих пор методика ориентировалась прежде всего на школьников, то теперь родители стремятся как можно раньше начать обучение детей иностранному языку. Тем более, что дошкольный возраст признан психологами наиболее благоприятным периодом для этого вида деятельности. Раннее обучение развивает психические функции ребенка, удовлетворяет его познавательные потребности, создает прекрасные возможности

для того, чтобы вызвать интерес к языковому и культурному многообразию мира, уважению к языкам и культурам других народов, способствует развитию коммуникативно-речевого такта.

Включение иностранного языка в систему дошкольного обучения и воспитания в Республике Узбекистан продиктовано рядом причин, основной из которых является наличие определенного противоречия между возросшей ролью овладения иностранными языками в современном мире и превращением их в существенный фактор соци-

ально-экономического развития общества в целом и недоценкой и несовершенством обучения им в современной школе.

Наметившийся в конце 20 века отход от аудиолингвального подхода в обучении иностранным языкам означал смещение акцента от концепций, придававших основное значение «формальному» обучению – тренировке, имитации, механическому повторению, предотвращению ошибок, – к концепции овладения языковым кодом, ориентирующющейся на творческий характер процесса овладения языком, на ситуативно-тематическую организацию материала, на реализацию принципа активной коммуникативности, на учебную деятельность учащихся как субъектов овладения иностранным языком, на процесс управления усвоением, на изучение ошибок и личности обучаемого. В целом такая ориентация обучения была наиболее полно отражена в ситуативно-коммуникативно-личностно-деятельностном подходе, где каждое звено определения соотнесено с разными аспектами процесса обучения [1].

Основу психолого-педагогического аспекта данного комплексного подхода составляют понятия личности и деятельности. При этом личность рассматривается как субъект деятельности, развитие которого осуществляется в деятельности и общении в условиях социализации и целенаправленного воспитания. Иными словами, «личностный подход означает, что все психические процессы, свойства и состояния рассматриваются как принадлежащие конкретному человеку, что они производны от индивидуального и общественного бытия человека и определяются его закономерностями»[1].

Каждый возраст характеризуется своей ведущей деятельностью. На протяжении первых семи лет жизни ребенок последовательно осваивает несколько ее видов. Среди них выделяют три основных, ведущих: эмоциональное общение со взрослыми, предметную деятельность и сюжетно-ролевую игру. Игра и особенно ее развернутая форма – совместная сюжетно-ролевая игра, являясь ведущей деятельностью в дошкольном возрасте, как никакая другая деятельность, отвечает особенностям психики дошкольника» наиболее свойственна и характерна для него.

Это свидетельствует о том, что именно игровое обучение, обеспечивающее ведущую роль игровых и социальных мотивов учения, компенсацию и моделирование нематериализованной на уроке действительности и успешно моделирующее сам учебный процесс, является наиболее адекватным для овладения иностранным языком дошкольниками.

Предмет деятельности отличает одну деятельность от другой, т.е. определяет ее как игровую, трудовую или учебную. Деятельность опосредуется мотивом как осознанным побуждением поведения и деятельности, возникающим при высшей форме отражения потребностей [2].

Применительно к обучению дошкольников иностранному языку это означает максимальный учет возрастных и индивидуально-психологических особенностей детей, осуществляющийся через содержание и форму игровых учебно-речевых ситуаций, контроль и оценку игрового взаимодействия, характер и содержание общения. Деятельность при этом определяется как динамическая система взаимодействий субъекта с миром, в процессе которых происхо-

дит возникновение и воплощение в объекте психического образа и реализация опосредованных им отношений субъекта в предметной действительности.

